



**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI**



**"HOZIRGI ZAMON
FALSAFASINING NAZARIY
MASALALARI"**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“HOZIRGI ZAMON FALSAFASINING NAZARIY MASALALARI”
MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

FARG‘ONA – 2025

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27 dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

I.Siddiqov - FarDU Falsafa kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)

Taqrizchilar:

I.M.Arzimatova -FarDU Falsafa kafedrası mudiri, dotsent, falsafa fanlari nomzodi

D.E.Normatova - Falsafa kafedrası dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

*Ishchi o'quv dasturi FarDU Ilmiy Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan
(2024 yil 27 dekabrda 5- sonli bayonnoma).*

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	14
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	17
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	119
V.	GLOSSARIY	132
VI.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	149

I. ISHCHI O'QUV DASTURI

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlarihamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamdainnovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

I. Modulning maqsadi va vazifalari

"Hozirgi zamon falsafaning dolzarb muammolari" modulining maqsadi: pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

"Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari" modulining vazifalari:

- "Falsafa" yo'nalishidagi pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma hamda malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun

zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

- "Falsafa" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

"Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari"moduli bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- **"Hozirgi zamon falsafaning dolzarb muammolari"**modulining umumnazariy masalalarini;

- Hozirgi zamon falsafaning jamiyat ma'naviy hayotidagi ahamiyatini;

- Hozirgi zamon falsafaning boshqa xalqlar falsafasi bilan dialektik bog'liqligi, uning umumiy qonuniyatlari va dolzarb muammolari haqida nazariy bilimlarni bilishi kerak.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№		Tinglovchilaning o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			
			jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni.	2	2	2		
2.	Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili. Falsafada ong masalasi.	2	2	2		
3	Sistema, element, struktura va funktsiya falsafiy tushunchalar sifatida	2	2	2		
4.	Ilmiy bilish metodlari va ularning zamonaviy tasnifi	2	2	2		
5.	Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati	2	2		2	
6.	Gnoseologik ta'limotlar va ularning zamonaviy tahlili	2	2		2	
7.	Fanda metod va metodologiya tushunchasi	2	2		2	6
8.	Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari	2	2		2	6
9.	Jami:	28	28	8	8	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida o'rni va falsafiy bilimlar tasnifi (2 soat)

Falsafaning yangi sohalari. Hozirgi zamon falsafasi: vorislik va yangilanish. XX asr falsafasining asosiy oqim va yo'nalishlari. XX asr falsafasida inson va jamiyat muammolari. Hozirgi zamon falsafasini o'rganishning ahamiyati.

2-mavzu: Hozirgi zamon falsafasida borliq va ong muammosi hamda fandagi asosiy zamonaviy yo'nalishlar (2 soat)

Yangi zamon falsafasida borliq va ong muammosi. Klassik va noklassik falsafada inson intellektual imkoniyatlarining ulug'lanishi. Hozirgi zamon falsafasidagi asosiy zamonaviy yo'nalishlar

3-mavzu: Sistema, element, struktura va funktsiya falsafiy tushunchalar sifatida (2 soat)

Falsafada asosiy tushuncha – kategoriya muammosi. Yakkalik, xususiylik va umumiylik. Sistema, element struktura.

4-mavzu: Hozirgi zamon falsafasida ilmiy bilish va metod muammosi (2 soat)

Hozirgi zamon falsafasi: vorislik va yangilanish. Hozirgi zamon falsafasi gnoseologik muammolar. XX asr falsafasida metod va metodologiya muammolari

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-mavzu: Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati (2 soat)

Reja:

1. *Hozirgi zamon falsafasidagi: vorislik va yangilanish, uning XIX asrdagi ildizlari.*
2. *Pozitivizm, Neopozitivizm, Neotomizm, Empiriokritisizm falsafasi.*
3. *Ekzistensializm falsafasi. Kyerkekor – inson falsafasining asoschisi.*

2-mavzu: Gnoseologik ta'limotlar va ularning zamonaviy tahlili (2 soat)

Reja:

1. *Analitik falsafa tushunchasi va uning vujudga kelishi hamda asoschilari.*

2. Analitik falsafa hozirgi zamon G'arb falsafasida neopozitivizm yo'nalishining davomi sifatida.

3. Yangicha tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda analitik falsafa.

3-mavzu: Fanda metod va metodologiya tushunchasi (2 soat)

Reja:

1. Tildagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf qilish analitik falsafaning vazifasi.

2. Analitik falsafaning funksionalxarakteristikasi.

3. Jamiyatning yangi taraqqiyoti bosqichida analitik falsafa o'rnini va ahamiyati.

4-mavzu: Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari (2 soat)

Reja:

1. Bilish falsafiy tahlil predmeti sifatida (gnoseologiya). Bilishobyektiv reallikning in'ikosi, dunyoga bo'lgan tarixan rivojlanib boruvchimunosat sifatida.

2. Sharq mutafakkirlari qarashlarida bilish masalalari. Bilishning obyekt va subyekt. Ularning o'zaro munosabati. Bilishbosqichlari: hissiy va aqliy bilish.

3. Aqliy bilishning asosiy shakllari. Ijod vaintuitsiya. Bilishda "hissiylik" va "aqliylik"ning birligi.

KO'CHMA MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-ko'chma mashg'ulot. Fanda metod va metodologiya tushunchasi. (6 soat)

Tarixiy va falsafiy muzeylar, kutubxonalar. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi va Farg'ona viloyati axborot resurs markazida tashkil etiladi. Unda tinglovchilar falsafiy bilimlarni chuqurroq o'rganish, tarixiy manbalarni tahlil qilish va zamonaviy falsafiy fikrlarni o'rganish bilan shug'ullanadilar. Qadimgi va zamonaviy falsafiy asarlar o'rganadilar. Falsafiy metodologiyalar va tahlil usullari. Fan va jamiyatdagi falsafiy muammolar. Arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar bilan

ishlash. Manbalar tahlili. Qadimgi qo'lyozmalar va falsafiy matnlarni o'rganish bilan shug'ullanadilar.

2-ko'chma mashg'ulot. Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari (6 soat)

Farg'ona Davlat Universiteti Falsafa kafedrası bilan hamkorlikda mashg'ulot o'tkazish. Unda Neorealizm va lingvistik tahlil bo'yicha mahalliy mutaxassislarni jalb qilish, Farg'ona politexnika institutida texnologiya va jamiyat o'rtasidagi falsafiy bog'liqlikni tahlil qilish. Til va mantiq masalalarini texnik fanlar bilan bog'lash, Farg'ona viloyati Axborot-kutubxona markazi falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish, Farg'ona viloyati OAV va Jurnalistika markazida matnlar va ommaviy axborot vositalari tili bo'yicha lingvistik tahlil qilish мақсадида .

Neorealistik tasvirlar bilan bog'liq jurnalistik materiallar tahlili, Farg'ona viloyati Tarix va madaniyat muzeyida San'at va adabiyotda neorealizm tahlili. Farg'ona mintaqasida neorealizm g'oyalari aks etgan tarixiy materiallarni ko'rib chiqish bilan shugullanadilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ – 637- sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr

“Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

- 8.Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
- 9.Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. -T.: Sharq, 2005.
- 10.A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon» - 2015.-155 b.
- 11.Abdulla Sher. Axloqshunoslik / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y.
- 12.Abdulla Sher. Estetika. / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston, 2015 y.
- 13.Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.- 318 b
- 14.Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y.i dr.Sovremenniy obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
- 15.B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.
- 16.Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessi podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKSS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
- 17.Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -160b.
- 18.Gulobod Quadratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
- 19.J.Rumi. Ichingdagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.
- 20.Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.YE.Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
- 21.Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo

obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial)UrFU, 2017.– 128 s.

22.Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharkshunoslik, 2012.340-6

23.Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

24.L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.

25.L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018 y.

26.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoye posobiye. Rizograf imeni Nizami. 2018 g.

27.Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

28.Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.

29.Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

30.Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yang i asr avlodi. 2008.

31.Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019 y.

32.Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.

33.Shermuxamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.

34.Shermuxamedova N.A. Borlik va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013,720
6

35.Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-6.

36.Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.

37.Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Moliya, 2003.

IV. Internet saytlar

40.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

41.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

42.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

43.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

44.<https://philpapers.org/> - mejdunarodnaya filosofskaya poiskovaya sistema po knigam, statyam, jurnalam, naxodyashimsya v otkritom dostupe

45.<https://plato.stanford.edu/> - Stenfordskaya ensiklopediya filosofii.

46.<https://elibrary.ru/> - krupneyshiy rossiyskiy informatsionno-analiticheskiy portal (v tom chisle) v oblasti filosofii

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“Hozirgi zamon falsafaning dolzarb muammolari” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning fan xususiyatidan kelib chiqqan holda deyarli barchasi tadbiq etilishi mumkin. Xususan, ma’ruza va seminarlar “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Menyu”, “B/B/B”, “Munozara”, “Rezyume” singari metodlar, slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini tulakonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq ukish maksadlaridan kelib chikkap xolda yondoshilishni nazarda tutadi.

Shaxsga yunaltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chikkan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha buginlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini akllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgannatijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilishorqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahdili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baxolash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs ohirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Excel" elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha tinglovchilar bilimini baholash test asosida va kompyuter

yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiyko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi

“Hozirgi zamon falsafaning dolzarb muammolari” darslari qiziqarli va tinglovchiga boy axborot beradigan bo'lishiga yordam beradigan ulublar juda ko'p. Lekin ular orasida falsafaning eng sinalgan va eng qadimiy uslubi bo'lgan “suqrotcha baxs”ga hech qaysi uslub yeta olmaydi. Zero aynan shu uslub dialektik fikrlash uslubidir va aynan shu uslub dunyoga Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino kabi ko'plab mutafakkirlarni yetishtirgan. Ayni shu uslub Platon dialoglarida aks etgan va hozirgacha insoniyat yetuk mutafakkirlarini kamolotga yetkazishda davom etmoqda. Bu uslubni yaxshi bilish uchun mazkur dialoglarni chuqur o'rganish kerak. Bugungi kunda ularning o'zbek tilidagi tarjimai amalga oshirilgani esa ishimizni yanada yengillashtirdi. Bu uslub seminarda emas, balki faqat ma'ruzalar vaqtida o'kaziladi. Bunda o'qituvchi Suqrotning, tinglovchilar esa Suqrotning suhbatdoshi rollarini o'ynaydilar. Mazkur metodni mashq orqaligina namoyish etish mumkin. Shuning uchun bu yerda ushbu uslubga boshqa to'xtalmaymiz. Lekin metodikadan o'tkazadigan seminarlarimizda bu metodni maxsus mashq qilib ko'ra olamiz. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu uslubni falsafani chuqurroq biladiganlar o'zlashtirishi mumkin va maqsadga muvofiqdir. Falsafa darslarining xajmi juda qisqa bo'lgan nofalsafa mutaxassisliklari darslarida esa uni qo'llash uchun yetarli vaqt topib bo'lmaydi. Ammo bu uslub masalaning javobi baxs qatnashchilaridan biriga ayon bo'ladigan platoncha (suqrotcha) dialog emas, albatta. Bu savollar va ularga javoblar to'qnashuvi jarayonida kelib chiqadigan o'z o'zidan tashkillanishi kutiladigan noxiziqli kognitiv-kommunikativ muhitdir.

“Hozirgi zamon falsafaning dolzarb muammolari” ni o'rganishga endigina kirishganlar esa avval osonroq uslublar asosida o'z tafakkurlarini rivojlantiradigan uslublar asosida ishlashlari maqsadga muvofiq. Shunday uslublar qatoriga “insert” uslubi turadi.

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu: Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida o'rni va falsafiy bilimlar tasnifi

Reja:

- 1.Falsafaning yangi sohalari.**
- 2.Hozirgi zamon falsafasi: vorislik va yangilanish.**
- 3.XX asr falsafasining asosiy oqim va yo'nalishlari.**
- 4.XX asr falsafasida inson va jamiyat muammolari.**
- 5.Hozirgi zamon falsafasini o'rganishning ahamiyati**

Tayanch atamalar: *sientizm, antisientizm, ekzistentsializm, neopozitivizm, texnologik determinizm, neokantchilik, Fridrix Nitsshe, Artur Shopengauer, Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn, Xaydeger, Sartr, Kamyu, pragmatism, sivilizatsiya, strukturalizm, yevroposentrizm.*

Falsafaning yangi sohalari. Falsafiy bilimning tuzilishi o'zgarmas, uzil-kesil shakllangan emas. Falsafaning rivojlanishi va u hal qilayotgan muammolar doirasi kengayishiga qarab falsafiy bilim tuzilishida ham o'zgarishlar yuz beradi. Ilmiy nazariyalar yoki falsafiy g'oyalar inqirozga uchragan yoki o'zining asossizligini namoyish etgan taqdirda, ularning bilim tizimidagi o'rni va rolini qayta baholash amalga oshiriladi, bu esa ba'zan ularning nazariy va amaliy ahamiyati yo'qolishiga olib keladi. Masalan, flogiston nazariyasi, «falsafa toshi»ni izlash, empiriokrititsizm falsafasi va o'z ahamiyatini yo'qotib, tarix mulkiga aylangan boshqa ko'pgina g'oyalar bilan shunday bo'lgan. Bugungi kunda falsafa bilan ham shunga o'xshash hodisa yuz beryapti, degan fikr mavjud. Hatto falsafa o'lyapti deb hisoblaydiganlar ham yo'q emas.

Darhaqiqat, o'zini oqlamagan g'oyalar, yo'nalishlar va kontseptsiyalar bisyor, ularning aksariyati hozir juda og'ir ahvolda, ayrimlari esa kuchli inqiroz holatini

boshdan kechirmoqda. Ammo falsafa o'zining birinchi ma'nosida – «donolikni sevish» sifatida, haqiqatning tagiga yetish usuli sifatida, jon holati sifatida va nihoyat, dunyoqarashning alohida shakli sifatida insoniyat turguncha mavjud bo'ladi.

Buni falsafiy bilimning ayrim nisbatan yangi sohalari ham tasdiqlaydi (ba'zan ular mustaqil falsafiy fanlar maqomiga da'vogarlik qiladi). Ular falsafa yondashuvlari va metodlari jamiyat hayotining ayrim jabhalari, murakkab ob'ektlar, muayyan fanlar va shu kabilarni o'rganishga nisbatan qo'llanilishi natijasida yuzaga keldi. Ularning aksariyati falsafaning eng yangi tarixi bilan bog'liq bo'lib, asosan XX asrga tegishlidir. Bu yerda avvalo tabiat falsafasi, huquq, fan, tarix, siyosat, san'at, din, texnika falsafasi, tanatologiya, gerontologiya va boshqalar nazarda tutilmoqda. O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida tadqiqotning yana bir yangi va o'ta muhim sohasi – globallashuv va u yuzaga keltirayotgan global muammolar falsafasi paydo bo'ldiki, uni o'rganish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Falsafaning asosiy masalalari. Falsafani o'rganayotgan har bir odamda falsafada qolgan barcha muammolarga nisbatan ustunroq ahamiyat kasb etadigan, ya'ni muhimroq, asosiyroq hisoblanadigan masalalar, muammolar mavjud yoki mavjud emasligiga qiziqish ertami, kechmi albatta yuzaga keladi. Bu mavzu nafaqat boshlovchi, balki professional faylasuflar uchun ham diqqatga sazovordir. Ularning orasida kimdir bu mavzuga jiddiy e'tibor beradi, kimdir esa, aksincha, uni muhim deb hisoblamaydi. Falsafaning uzoq tarixiga umumiy nazar tashlasak, olam va insonning kelib chiqishi, rivojlanishi va mohiyatiga, shuningdek, hayotning ma'nosi, inson bilishining tabiatiga tegishli «boqiy» falsafiy muammolar deyarli barcha falsafiy ta'limotlarda u yoki bu tarzda mavjudligini, turli falsafiy asarlarda, ular aynan kimga qarashliligi va qaysi davrga mansubligidan qat'iy nazar, qisman yoki, aksincha, atroflicha muhokama qilinishining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Darhaqiqat, ong, tafakkur, ruh, ideallik va ularning materiya, tabiat, borliq bilan o'zaro nisbati masalalariga o'z munosabatini bildirmagan yoki, aytaylik, o'z mulohazalari va xulosalarida shubha qilmagan faylasufni topish mushkul. Bu hol o'z vaqtida olimlar tomonidan «falsafaning asosiy masalasi»ni ta'riflashiga turtki

bergan bo'lib, unda ikki jihat alohida ajralib turadi.

Birinchi jihat moddiylik va ideallikning o'zaro nisbatiga tegishli. Savol shunday qo'yiladi: «Materiya birlamchimi yoki ruh (ong)mi?» yoki, «Tafakkur va borliqning nisbati masalasi butun, ayniqsa, eng yangi falsafaning buyuk asosiy masalasidir».

Ikkinchi jihat birinchi jihat bilan uzviy bog'liq bo'lib, quyidagicha ta'riflanadi: «Dunyoni bilish mumkinmi?» Boshqacha aytganda: «Biz haqiqiy dunyo haqidagi o'z tasavvurlarimiz va tushunchalarimizda borliqni to'g'ri aks ettirishga qodirmizmi?»

Materialistlar va idealistlar. U yoki bu faylasuflar savolning birinchi qismiga qanday javob berishiga qarab, ular **materialistlar** -dunyo azaldan moddiy, ong esa bu materiyaning mahsulidir, deb hisoblovchilar va **idealistlar** -dunyo zamirida materiyadan oldin paydo bo'lgan va uni yaratuvchi ideal narsalar va hodisalar yotadi, degan fikrni himoya qiluvchilarga ajratiladi.

Bunda idealizmning ikki turi – ob'ektiv va sub'ektiv idealizm farqlanadi. Qandaydir nomoddiy va inson ongiga bog'liq bo'lmagan (ya'ni ob'ektiv mavjud bo'lgan) narsalar va hodisalarni (Xudo,dunyoviy aql, g'oya, ruh va shu kabilar) butun borliqning asosi deb e'tirof etuvchilar **ob'ektiv idealistlar** hisoblanadi. Falsafa tarixida Platon, Avliyo Avgustin, Foma Akvinskiy, G.Gegel, , N.Berdyayev kabi mutafakkirlar ob'ektiv idealizm namoyandalari sifatida shak-shubhasiz e'tirof etiladi. Dunyo faqat individual (sub'ektiv) ong nuqtai nazaridan qaralgan holda **sub'ektiv idealizm** to'g'risida so'z yuritiladi. J.Berkli, D.Yum, I.G.Fixte sub'ektiv idealizmning yorqin namoyandalari hisoblanadi.

Falsafa tarixida materialistik yo'nalishlar va oqimlar ham anchaginadir. Xususan, materiyaning yaratish va yo'q qilish mumkin emasligi haqidagi fikr-mulohazalarga ilk faylasuflarning asarlaridayoq duch kelish mumkin. Mazkur **sodda materializm** vakillari :qadimgi xitoy faylasuflari – Lao tsi, Yan CHju;

- Qadimgi hind faylasuflari – lokayata yo'nalishi namoyandalari;
- Qadimgi davrning mashhur faylasuflari – Geraklit, Empedokl, Demokrit, Epikur va boshqalar.

- Qadimgi Markaziy Osiyo faylasuflari- Zardo'sht Sepitoma kabilardir.

Klassik mexanika vujudga kelgan va faol rivojlangan Yangi davrda **mexanistik materializm** (P.Golbax, P.Gassendi, J.Lametri) ayniqsa keng tarqaldi.

XVIII-XIX asrlarda falsafiy materializmning yo'nalishlari:

- antropologik materializm (L.Feyerbax);
- vulgar materializm (Fogt, Byuxner, Moleshott);
- dialektik materializm (K.Marks, F.Engel's) shakllandi.

Biroq, yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, mazkur tasnifga muvofiq materialistlar yoki idealistlar deb nomlanuvchi u yoki bu faylasuflar bunday farqlashga asossiz sxemalashtirish va soddalashtirish deb qarab, o'zini bu yo'nalishlarning birortasiga ham mansub deb hisoblamasligi mumkin. Bunday qarashlar shu bilan izohlanadiki, to'g'ridan-to'g'ri va uzil-kesil tarzda, bu muammoni tushunishga nisbatan boshqacha yondashuvlarni e'tiborga olmasdan ta'riflangan «falsafaning asosiy masalasi» muqarrar tarzda barcha faylasuflarni ikki katta qarama-qarshi lagerga – materialistlar va idealistlarga ajratadi va bu hodisaning ayrim ko'rinishi sifatida faqat moddiy va ma'naviy substantsiyalarni teng huquqli asoslar deb hisoblovchi **dualistlarnigina** (masalan, R.Dekart) farqlaydi.

Ammo falsafiy tafakkur tarixida u yoki bu faylasuflar fikriga ko'ra eng muhim deb qaraladigan boshqa muammolar ham mavjud. Ayni shu sababli aksariyat faylasuflar substantsiya (dunyoning birinchi asosi) haqida mulohaza yuritar ekan, mazkur masalaning qo'yilishini «falsafaning asosiy masalasi» bilan bog'lashga moyil emas. Masalan, ilk **antik faylasuflar** uchun falsafaning asosiy muammosi: «Dunyo nimadan yaratilgan?», degan savol bilan bog'langan. O'sha davrda bu savol eng muhim, asosiy, birinchi darajali hisoblangan.

O'rta asrlar sxolastikasi nuqtai nazaridan «falsafaning asosiy masalasi» quyidagicha ta'riflanishi mumkin: «Xudoning borligini qanday qilib oqilona asoslash mumkin?» Hozirgi diniy falsafiy kontseptsiyalar, xususan neotomizm uchun u hozir ham bosh masala bo'lib qolmoqda. Ibn Sino fikricha, falsafaning asosiy masalasi – mavjudotni barcha mavjud narsalarni kelib chiqishi, targ'iboti

o'zaro munosabati, biridan-ikkinchisiga o'tishni har tomonlama tekshirish uchun zaruriy imkoniyat, voqelik sabab tamoyillarini asos qilib olishdan iborat.

Yangi davrda I.Kant yondashuvi diqqatga sazovor bo'lib, u «Inson nima?» degan savolni mohiyat e'tibori bilan falsafaning asosiy masalasi deb hisoblaydi. Uning fikricha, inson ikki har xil dunyo – tabiiy zarurat va ma'naviy erkinlikka mansub bo'lib, ularga muvofiq odamzot, bir tomondan, tabiat mahsuli hisoblanadi, boshqa tomondan esa, u «erkin harakat qiluvchi mavjudotning o'z-o'zidan yaratish» natijasidir¹.

Ekzistentsializm falsafasida esa har bir individ o'zi uchun o'zi hal qilishi lozim bo'lgan «Hayot yashashga arziydimi?», degan muammo asosiy masala sifatida e'tirof etiladi, zero, mazkur yo'nalish namoyandalarining fikriga ko'ra, bu savolga javobsiz qolgan hamma narsa o'z ma'nosini yo'qotadi. Frantsuz ekzistentsialist faylasufi A.Kamyu ta'biri bilan aytganda: «Hayot yashashga arzishi yoki arzimaslighi masalasini hal qilish, falsafaning asosiy masalasiga javob topish demakdir».

Masalan, pragmatizm asosiy e'tiborni haqiqat tushunchasiga va uni aniqlash muammosiga qaratadi. Bu yo'nalish vakillarining fikriga ko'ra, falsafa avvalo ayni shu muammo bilan shug'ullanishi va insonga amalda foyda keltirishi lozim.

Falsafani siyosiylashtirish va sxemalashtirishning oqibatlari. Falsafani o'ta siyosiylashtirish ma'lum ma'noda zararlidir. Chunki sobiq sovet tuzumi davrida ayni falsafiy bilimni mutlaqlashtirish, uni siyosiy bilim doirasi bilan chegaralash oqibatida falsafa siyqalashdi, uning asl mazmuniga putur yetkazildi. SHuningdek, falsafaning barcha zamonlarda va har qanday sharoitda o'z ahamiyatini saqlab qolishi mumkin bo'lgan, qolgan barcha masalalarni istisno etadigan biron-bir bitta, birdan-bir to'g'ri asosiy masalasi bormi? Bizningcha, mazkur uzil-kesil ta'rif kontekstida bunday masala mavjud emas. Birinchidan, ayni holda tarixiy davrni ham, falsafiy bilimning plyuralistik tabiatini ham hisobga olish talab etiladi. Ikkinchidan, qandaydir bitta muammoni faqat u yoki bu muayyan vazifani yechish maqsadida murakkab masalalarni sxemalashtirish, ataylab soddalashtirish to'g'risida so'z yuritilayotganini tushungan holda, ma'lum darajada shartlilik bilan

¹ Қараңг: Кант И. Соч. Т. 6. – М., 1966. – 351-б.

mutlaqlashtirish mumkin.

Masalan, falsafaning «borliq» va «substantsiya» kabi ayniqsa keng tarqalgan asosiy kategoriyalari haqida soʻz yuritar va muayyan faylasuflarning ularga boʻlgan munosabatini aniqlashga harakat qilar ekanmiz, «falsafaning asosiy masalasi»ni uzil-kesil yechish tarafdorlari ilgari surgan mantiqqa muvofiq, barcha faylasuflarni maʼlum darajada shartlilik bilan materialistlar, idealistlar va dualistlarga ajratishimiz mumkin. Umuman olganda, agar, falsafada ayniqsa koʻp muhokama qilinadigan muammolar doirasini aniqlashga harakat qilinayotgan yoki falsafa tarixini, u yoki bu falsafiy gʻoyalar, yoʻnalishlar, oqimlarning vorisiyligini yaxshiroq tushunish vazifasi qoʻyilayotgan boʻlsa, bunday ajratish mutlaqo oʻrinlidir.

Ayni vaqtda, muammoga nisbatan yangicha yondashuvni yoki masalaning yangicha talqinini taklif qilishi mumkin boʻlgan boshqacha yondashuvlar paydo boʻlishi va mavjudligiga yoʻlni berkitmaslik uchun har qanday sxemalashtirish cheklangan xususiyatga ega boʻlishini unutmaslik kerak.

Ayni bir masalaga boshqacha nuqtai nazardan, gʻayrioddiy yoki mutlaqo kutilmagan tomondan yondashish taklif qilingan, pirovardida esa avvalgi qarashlar nuqtai nazaridan erishish mumkin boʻlmagan kashfiyotlar olingan hollarga tarixda misollar bisyor. Masalan, geotsentrik qarashlar oʻrmini geliotsentrik qarashlar egallashi, nisbiylik nazariyasining paydo boʻlishi, Rim klubiga taqdim etilgan «Oʻsish chegaralari» maʼruzasi va hokazolar koʻpchilik uchun tabiiy, oʻz-oʻzidan ravshan boʻlib tuyulgan narsalarga nisbatan noanʼanaviy, gʻayrioddiy yondashuv mahsulidir. Mazkur misollar falsafada «qatʼiy», uzil-kesil taʼriflarga nisbatan ancha ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim, zero bu baʼzan yanglishishlarning mustahkamlanishiga, oxir-oqibatda esa – turgʻunlik va dogmatizmga olib keladi, degan fikrni faqat tasdiqlaydi.

Dunyoni bilish mumkinmi, degan savolga faylasuflar tomonidan berilgan javoblar orasida ham ikki qarama-qarshi yondashuv ajralib turadi. Bu yondashuvlardan biri gnoseologik optimizm deb ataladi. Unga muvofiq insonning bilish imkoniyatlari umuman olganda cheklanmagan va u oʻzini qiziqtirayotgan tabiat va jamiyat qonunlarini kashf etish, narsalar mohiyatini aniqlash va dunyoning

haqiqiy manzarasini yaratishga ertami, kechmi albatta muvaffaq bo'ladi, deb hisoblanadi. Bunda G.Gegelni, va u yaratgan ta'limotning ko'p sonli tarafdorlarini tilga olib o'tish o'rinli bo'ladi.

Ikkinchi yondashuv agnostitsizm (yunon. a – inkor va gnosis – bilim) deb ataladi. Bu yondashuv namoyondalari dunyoni, narsalar va hodisalar mohiyatini to'la (yoki hatto qisman) bilish amalda mumkin emas, deb hisoblaydi. Bunday qarashlar ayniqsa D.Yumga xosdir. Odatda, agnostitsizm namoyandalari qatoriga I.Kant ham kiritiladi, ammo bu yondashuv ancha bahsli bo'lib, faylasuflar orasida munozaralarga sabab bo'lib keladi.

Falsafada shubhaning roli. Yuqorida keltirilgan ikkala gnoseologik yondashuvni taqqoslash va ularga baho berishda shubha muhim rol o'ynaydi. U nafaqat o'rinli, balki ijodiy yo'naltirilgan har qanday bilishning zaruriy elementi hisoblanadi. SHuningdek, falsafiy mulohazalar har qanday shak-shubhadan xoli bo'lsa, notanqidiy idrok etiladigan o'tmish va qadimda o'zlashtirilgan qonun-qoidalarga so'zsiz bo'ysunish me'yorga aylanib qolsa, bu, dogmatizm, turg'unlik va tanazzulga eltadi.

Bunga qadimdayoq antik faylasuflar: elladalik Pirron, Arkesilay, Sekst Empirik va shubhani fikrlashning asosiy tamoyili, inson bilimini esa – nisbiy deb e'lon qilgan falsafiy yo'nalish – skeptitsizmning boshqa asoschilari e'tiborni qaratgan. Skeptitsizm haqiqatga shak-shubhasiz egalik va narsalarni to'g'ri tushunishga da'vogar bo'lgan falsafiy ta'limotlar hukmronligiga munosabat sifatida vujudga keldi va shu ma'noda, ijobiy rol o'ynadi.

Falsafiy bilimning tuzilishi. Falsafa o'z shakllanishi va rivojlanishining qadimgi davridayoq, tabiat, inson, jamiyat va ma'naviyatni, shuningdek sababiy bog'lanishlar, qonunlar va shu kabilarni bilish sohasida yuksak natijalarga erishdi va ratsionallik nuqtai nazaridan odamlarning dunyo haqidagi umumiy tasavvuriga aylandi. Ammo olamning cheksiz darajada rang-barangligi va serqirraligi tufayli o'sha davridayoq parchalanmagan falsafiy bilimlar va tasavvurlardan ayrim bo'limlar ajralib chiqa boshladi, vaqt o'tishi bilan rivojlanib, ancha aniq shakl-shamoyil kasb etdi va yangi bilimlar bilan to'ldirildi. Pirovard natijada ular falsafiy

bilimning tuzilishini (strukturasini) tashkil etdi.

Quyidagilar falsafiy bilimning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi:

- ontologiya – mavjudlik, borliq haqidagi bilim;
- gnoseologiya (boshqa bir terminologiyaga ko'ra – epistemologiya) –

bilish nazariyasi;

- ijtimoiy falsafa – jamiyat haqidagi ta'limot;
- etika – axloq haqidagi ta'limot;
- aksiologiya - qadriyatlar haqidagi ta'limot;
- falsafiy antropologiya – inson haqidagi ta'limot va boshqalar.

Falsafiy muammolar mohiyatini tushunib yetish, ularning eng muhimlarini aniqlash va nihoyat, falsafiy bilimlar bilan oshno bo'lish – ko'rsatilgan bo'limlarni sinchiklab o'rganish, bunda ularga yaxlit bir butunning tarkibiy qismlari sifatida yondashish demakdir. Pirovardida biz falsafaning o'ziga xos tili, o'z yondashuvlari va metodlari, nihoyat, tabiat, jamiyat va tafakkurga oid eng muhim aloqalar, xossalar va qonunlarni o'zida aks ettiruvchi umumiy tushunchalar – kategoriyalar tizimi vujudga kelganining guvohi bo'lamiz. Bunda falsafadagi har bir bo'lim yoki yo'nalish ham o'z tushunchalar apparatiga, ya'ni bilimning faqat shu sohasiga xos bo'lgan va uning asosiy mohiyatini yoritib beradigan kategoriyalar tizimiga egadir.

Falsafada ko'rib chiqilgan mavzular bilan bir qatorda shunday bilim sohalari ham mavjudki, ular qolgan barcha bilim sohalariga kirib boradi, ular bilan uyg'unlashadi va ularni to'ldiradi. Masalan, tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkurida yuz beruvchi harakat, rivojlanish va o'zgarishlar haqidagi falsafiy ta'limot – dialektika ana shunday bilim sohalaridan biri hisoblanadi.

Ob'ektiv sabablarga ko'ra falsafiy bilimning ayrim sohalari sezilarli darajada rivojlandi va vaqt o'tishi bilan mustaqil falsafiy fanlarga aylandi. Bunday bilim sohalari qatoriga, masalan, insonning bilishni amalga oshirish shakllari, qonunlari va usullarini o'rganadigan fan - mantiqni; ma'naviyat va axloq haqidagi ta'limot – etikani; go'zallik qonunlariga muvofiq ijodning mohiyati va shakllari haqidagi fan – estetikani kiritish mumkin.

SHu ma'noda falsafa tarixi fani alohida diqqatga sazovordir, zero u, mohiyat

e'tibori bilan, nafaqat falsafiy, balki tarixiy fan hisoblanadi. Ayni vaqtda u falsafiy bilim tarkibiga ham kiradi, chunki falsafiy tafakkurning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini, falsafiy g'oyalar evolyutsiyasi va xususiyatini turli faylasuflar, yo'nalishlar, oqimlarning ta'limotlarida qanday tavsiflangani nuqtai nazaridan o'rganadi. Falsafa tarixi fanida falsafiy ta'limotlarni tizimga solish va tasniflashga, matnlar, tarixiy sanalarni tahlil qilishga, daliliy material, biografik ma'lumotlar yig'ishga alohida e'tibor beriladi. SHu munosabat bilan dunyoqarashni kengaytirish va teranlashtirishga, o'z falsafiy yondashuvlarini yaratishga qaratilgan falsafani o'rganish, uning tarixi, asosiy namoyandalari va eng muhim falsafiy asarlari bilan albatta tanishishni nazarda tutadi.

Falsafaning asosiy funktsiyalari. Falsafa u yoki bu muammolarni hal qilar, qonunlar, muayyan tamoyillarni ta'riflar yoki gipotezalar, g'oyalar va nazariyalarni ilgari surar ekan, ayni vaqtda (ba'zan shu tariqa) har xil funktsiyalarni bajaradi. Falsafaning muhim funktsiyalaridan dunyoqarashni shakllantirish, bilish, metodologik, integrativ, madaniy, aksiologik, axloqiy va tarbiyaviy funktsiyalarni qayd etish mumkin. Ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bu funktsiyalarning roli va ahamiyati falsafaning amal qilish sohasi, u hal qilayotgan vazifalar darajasi va xususiyati bilan belgilanadi.

Dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasi. Falsafaning, dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasi, insonning dunyoga munosabati, uning o'z-o'zini va o'zini qurshagan borliqni tushunishi, shuningdek turli voqealar, hodisalarni va o'z burchini qanday talqin qilishi avvalo va bevosita uning dunyoqarashiga bog'liq bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, inson dunyoqarashida e'tiqodlar va bilimlar, tuyg'ular va emotsiyalar, ratsionallik va irratsionallik, tajriba, intuitsiya va hokazolar chambarchas bog'lanadi. Ayni shu sababli falsafasiz dunyoning yaxlit manzarasini yaratish mumkin emas, chunki «donolikni sevish» sanaladigan, «hamma narsaga aralashadigan» falsafagina dunyoqarashning o'zaro bog'lanmagan turli «parchalari»ni birlashtirib, shu tariqa odamlarning butun borliqqa nisbatan umumiy, izchil va mantiqan to'g'ri munosabatini yaratish imkonini beradi. Bunda falsafa ayrim ikir-chikirlar, ahamiyatsiz tafsilotlarni mavhumlashtiradi va umumiy

aloqalarga, turli narsalar va hodisalar xossalarining birligiga e'tiborni qaratadi va shu tariqa o'zining bosh funktsiyasi – dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasini bajaradi.

Falsafaning gnoseologik funktsiyasi tajribada sinash, tavsiflash yoki shakshubhasiz inkor etish mumkin bo'lmagan, ya'ni fan ochib berish, tadqiq etish va tahlil qilishga qodir bo'lmagan narsalar va hodisalarni oqilona yo'l bilan tushuntirishga harakat qilishdir. Falsafa u yoki bu mohiyati aniqlanmagan yoki kam o'rganilgan hodisalarni tushuntirishga nisbatan o'z yondashuvlari, nazariyalari va gipotezalarini taklif qilar ekan, ularni bilishga bo'lgan qondirilmagan qiziqish o'rnini ma'lum darajada to'ldiradi, shu tariqa mifologik va diniy fantaziyalarga kamroq o'rin qoldiradi. Falsafa gnoseologiyada hal qiladigan boshqa bir muhim vazifa «Haqiqat nima?», «Uning mezonlari qanday?», degan masalalar bilan bog'liq, zero har qanday bilish jarayoni oxir-oqibatda, u yoki bu tarzda haqiqatning tagiga yetishga qarab mo'ljal oladi, bu esa eng muhim masaladir.

Metodologik funktsiyasi to'g'risida so'z yuritganda metod tushunchasiga murojaat etish o'rinli bo'ladi. Bu tushuncha yunoncha methodos – yo'l, tadqiqot, tekshirish so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u yoki bu maqsadga erishishning muayyan usulini, shuningdek borliqni nazariy va amaliy o'zlashtirishga qaratilgan usullar yoki amallar majmuini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, bu faylasuf yoki olim o'zi o'rganayotgan predmetning tadqiqot yo'lidir. Odatda metodologiya muammolari falsafa doirasida o'rganilgan, biroq ayrim fanlar vujudga kelishi bilan falsafiy (umumiy) metodlar bilan bir qatorda muayyan, ayrim ilmiy metodlar ham rivojlana boshladi. Falsafaning boshqa bir muhim metodologik funktsiyasi falsafada ham, ayrim fanlarda ham muhim rol o'ynaydigan har xil kategoriyalarni ishlab chiqishidan iborat. Kezi kelganda yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, falsafa o'ta keng tushunchalar, ya'ni kategoriyalar bilan ish ko'rar, ularni ta'riflar ekan, metodologik funktsiya bilan bir vaqtda dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasini ham bajaradi.

Falsafaning integrativ funktsiyasi fan bilan chambarchas bog'liq. Real borliqning yangi va yangi ob'ektlari va hodisalari inson nazariy tadqiqotlari

sohasidan o'rin olishi, shuningdek ilgari ma'lum darajada anglab yetilgan narsalar va hodisalarni yanada chuqurroq o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ilmiy bilim o'z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq tabaqalanishiga turtki beradi. Buning natijasida ayrim fanlar paydo bo'lib, ular nafaqat o'z tadqiqot ob'ekti va predmetini ajratdi, balki o'zining faqat mazkur fanga xos bo'lgan tili, kateqoriyalar apparati va hokazolarni yaratdi. Ammo bu yo'lda jiddiy xavf ham mavjud bo'lib, u shundan iboratki, fanlarning ajralishi natijasida ular o'rtasidagi aloqalar susayadi, ular murakkab kompleks vazifalarni yechishda faol o'zaro aloqa qilish qobiliyatini yo'qotadi. Qarama-qarshi jarayon – ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi va u yoki bu muammolarni yechish uchun kuch-g'ayratni birlashtirish jarayoni bu xavfning oldini olish imkonini beradi.

Murakkab kompleks muammolarni tadqiq etuvchi hozirgi zamon fanida ba'zan ayrim ilmiy fanlarning vakillari boshqa fanlarning vakillarini faqat ular turli tillarda, ya'ni har biri o'z fanining tilida gapirgani bois tushunmaydi. Bu jihatdan falsafa ular uchun amalda bog'lovchi bo'g'inga, birlashtiruvchi asosga aylanadi, chunki u o'z tahlilida fanlararo muloqotga va mazmuni ayni bir kontekstda turli fanlar tomonidan qabul qilinadigan va qo'llaniladigan fundamental tushunchalarni yaratishga qarab mo'ljal oladi.

Murakkab ob'ektlarni kompleks tadqiq qilishda har bir muayyan fan o'z predmetidan kelib chiqadi. Bu predmet doirasi unga o'rganilayotgan ob'ektni yaxlit ko'rish, uning aloqalarini aniqlash imkonini bermaydi. Bu vazifani hal qilishga ham faqat falsafa qodir bo'lib, u butun vaziyatni yaxlit ko'rish imkonini beradi va bu jihatdan nafaqat fanlar o'rtasida, balki inson faoliyatining ayrim jabhalari, masalan, o'tkazilayotgan tadqiqotlar bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy, siyosiy, axloqiy faoliyat o'rtasida ham bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi.

Madaniy funktsiyasi. Falsafa odamlar dunyoqarashini kengaytirish, ularda bilishga qiziqish uyg'otish, nazariy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish orqali madaniy funktsiyani ham bajaradi. U dunyoni o'zlashtirish va bilishning universal shakli sifatida, insoniyatning eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi va ularni butun insoniyat mulkiga aylantiradi. Turli mamlakatlar

va xalqlarning falsafa tarixini o'rganish ularning o'tmishdagi va hozirgi madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, g'oyalar almashinuvi va madaniy an'analarning o'zaro ta'siriga ko'maklashadiki, bu madaniy meros bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik funktsiyasi. Falsafa hayotning ma'nosi, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yish, u yoki bu harakat, voqea, hodisaga «yaxshi», «yomon», «muhim», «foydali», «foydasiz» kategoriyalari bilan baho berish orqali yana bir muhim funktsiya – aksiologik (yunon. axia - qadriyat) funktsiyani ham bajaradi. U uzoq muddatli tendentsiyalarni qisqa muddatli tendentsiyalardan farqlash, yuzaki jarayonlarni fundamental jarayonlardan, muhim narsalar va hodisalarni ikkinchi darajali narsalar va hodisalardan ajratish orqali insonning qadriyatlarga munosabati bilan uzviy bog'liq bo'lgan tegishli ehtiyojlarini shakllantiradi. SHu tariqa insonning muayyan qadriyatlari, mo'ljallari va ustuvorliklari belgilanadi, ya'ni tegishli qadriyatlar tizimi tarkib topadi. Bu tizim odamlarning muhim xususiyati hisoblanadi, ularning hayotga munosabatini aks ettiradi va jamiyatdagi xulq-atvorini ko'p jihatdan belgilaydi.

Falsafaning axloqiy funktsiyasi odamlar xulq-atvori va u yoki bu jamiyatda yuzaga keluvchi munosabatlar bilan bog'liq. Bunda, masalan, axloqiy qadriyatlar, ularning tabiati, asoslari va jamiyatdagi amaliy roli falsafaning tadqiqot predmeti hisoblanadiki, bu jamiyatda yuzaga keladigan va tabiiy yo'l bilan, ya'ni real hayot amaliyotida o'rnatiladigan me'yorlar va qoidalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday me'yorlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim dastak hisoblanadi va odamlarning o'zaro aloqalari, ularning munosabatlari xususiyati va o'zaro til topish darajasida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa doimo axloqda, jamiyatning barcha a'zolari xulq-atvorida muxtasar ko'rinishda namoyon bo'ladi va shu tariqa yana bir muhim funktsiya – axloqiy funktsiyani bajaradi.

Falsafaning tarbiyaviy funktsiyasi haqida fikr yuritilganda bu masalaning xalqaro darajadagi keng va har tomonlama muhokamasi natijalarini hisobga olgan

holda so'z yuritish o'rinli bo'ladi. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati o'z-o'zini anglab yetishga yo'naltirilgan falsafaga muhtojdir. Buni 2002 yildan Yunesko qaroriga binoan, butun dunyoda har yili noyabr oyining uchinchi payshanbasida o'tkaziladigan "Jahon falsafa kunlari" ham, hozirgi kunda dunyo uchun eng muhim masalalarga e'tiborini qaratadigan Jahon falsafa kongresslari ham tasdiqlaydi. Darhaqiqat bunday kongress birinchi marta 1900 yilda Frantsiyada o'tkazilgan, 1948 yildan boshlab uni har besh yilda bir marta o'tkazish an'anaga aylangan. Xususan, 1998 yilda Boston shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan XX jahon falsafa kongressi "Paydeyya: insoniyatni tarbiyalashda falsafa" mavzusiga bag'ishlangan bo'lsa, Turkiyaning Anqara shahrida o'tkazilgan XXI Jahon falsafa kongressida "Falsafa jahon muammolari bilan yuzma-yuz" mavzusi atroflicha muhokama qilindi. XXII jahon falsafa kongressi birinchi marta Osiyo mamlakati bo'lmish Koreya respublikasining Seul shahrida "Hozirgi davrda falsafani qayta anglash" degan umumiy mavzu ostida bo'lib o'tdi. Kongresslarning mavzularidan ko'rinib turganidek, falsafa real hayot bilan uzviy bog'liq va eng muhim muammolarni anglab yetishga xizmat qilib keldi. SHunday muammolardan biri – insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol toptirishda falsafaning roli va ahamiyati masalasidir. Buning uchun esa, albatta, qadimgi davr mutafakkirlarining asarlariga yana bir bor murojaat etish taqozo etiladi.

Qadimgi mutafakkirlar har tomonlama ta'lim va tarbiyani, ya'ni o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan jismoniy va ma'naviy jihatdan komil insonni voyaga yetkazishni «paydeyya» (yunon. pais – bola) atamasi bilan ifodalaganlar. O'sha zamonlarda paydeyya aristokratiyaning o'ziga xos belgisi hisoblangan; endilikda faylasuflar ta'lim va tarbiya muammolarini yana birinchi o'ringa qo'yib, ularni hal qilishda falsafaning rolini aniqlashga harakat qilar ekanlar, bu tushunchani yana esga oldilar. Xususan, Boston kongressidagi asosiy ma'ruzalarning mualliflaridan biri frantsuz faylasufi P'yer Obenk: «Insonning vahshiyona tabiatidan ma'rifatli tabiatga o'tish imkoniyati qay darajada mavjud?», degan savolni o'rta tashlaydi. Uning fikricha, insonning yagona tabiati ikki ma'noli bo'lib, faqat ma'rifat (paydeyya) odamzotni so'zning to'liq ma'nosidagi

insonga aylantiradi yoki, Platon ta'biri bilan aytganda, paydeyya uning ko'zini ochadi.

Biroq ma'rifatning vazifasi ko'zga ko'rish qobiliyatini berishdan emas, balki unga to'g'ri qarashni o'rgatishdan iboratdir. Demak, Platon, Demokrit, Zardo'sht va boshqa mashhur faylasuflar fikriga tayanib, ma'rifat yordamida, ta'lim va tarbiya jarayonini zo'rlikka qarshi yo'naltirish va odamzot aql-idrokini kamol toptirish orqali insonning boshqacha tabiatini yaratish mumkin. «Paydeyya» tushunchasi bolani tarbiyalab komil insonga aylantiruvchi ta'lim jarayoniga e'tiborni qaratadi. Qadimgi yunonlar «texne» va «paydeyya» kabi tushunchalarni farqlaganlar; birinchi atama bilimni, ya'ni o'rganish mumkin bo'lgan narsani anglatadi, ikkinchi atama bilim berish manbaini emas, balki to'g'ri fikr manbaini anglatadi. Bunda paydeyya, Aristotel ta'biri bilan aytganda, insonni o'zini o'zi kamol toptirishga rag'batlantirishi lozim. SHu bois Protagor, Suqrot va Platon aytganidek, falsafadan saboq berishda ishonitirish mahoratini emas, balki to'g'ri fikr yuritish mahoratini o'rgatishga e'tibor qaratish muhim.

Falsafaning jamiyatdagi ahamiyati va roli yoki amaliy falsafa. Odatda falsafa kundalik hayot va amaliyotdan ancha uzoq bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud. Ammo bu fikrga qo'shilish mushkul, zero umumiy nazariyalar, agar ularga kengroq ma'noda va uzoqroq istiqbol nuqtai nazaridan yondashilsa, ba'zan bilimning tor sohalariga taalluqli bo'lgan ko'pgina muayyan g'oyalardan yaxshiroq samara beradi.

Albatta, falsafa doim kundalik hayotdan ma'lum darajada uzoq bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Uning o'ziga xos xususiyati, betakrorligi ayni shu omilda namoyon bo'ladi. Biroq, boshqa tomondan, falsafa oddiy ijtimoiy borliq, kundalik ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy hayot amaliyoti deb nomlash mumkin bo'lgan narsalardan ham o'zini olib qochmaydi. Falsafiy refleksiya va u bilan mushtarak bo'lgan harakatlarning mazkur yo'nalishi XX asrda hatto butun bir yo'nalish – amaliy falsafa vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bunda falsafa siyosiy, ijtimoiy va boshqa qarorlar qabul qilishga muqarrar tarzda va bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb aytish mumkin emas, ammo bu holni butunlay istisno etish ham o'rinli bo'lmaydi.

Biroq shu narsa aniqki, falsafa odamlar dunyoqarashini shakllantirish orqali ularning xulq-atvorini, yuqorida zikr etilgan qarorlarni ishlab chiqish jarayonida ularning yondashuvlarini ham ko'p jihatdan belgilaydi, faylasuflarning o'zlari esa ba'zan odamlar hayotini butunlay o'zgartiruvchi muhim, olamshumul g'oyalar tashabbusi bilan chiqadilar.

Faylasuflar jamiyatdagi ma'naviyat va axloqning holati uchun ham sezilarli darajada javobgardirlar, zero ular nafaqat ijtimoiy me'yorlar va tamoyillarni rivojlantiradilar, ulardan dars beradilar yoki kitoblar, maqolalar orqali ijtimoiy ongni ular bilan oshno etadilar, balki aksariyat hollarda keng jamoatchilik fikrini uyg'otadigan, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy muammolar, madaniyat va ma'naviyat masalalariga doir muhokama va munozaralar tashkil etadilar.

Falsafaning ijodiy xarakteri. Falsafa jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan holda, ayni vaqtda fan bilan doim yaqin aloqada ish ko'radi. U yoki bu fan qanday muayyan muammolarni hal qilishidan qat'iy nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo zaruriy shart hisoblanadi. Muayyan fan predmetiga va uning oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng, mazkur fan chegarasidan chetga chiqadigan, bilimning boshqa sohalarida erishilgan eng so'nggi yutuqlarni ham aks ettiradigan yaxlit yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishiga erishish ham mumkin emas.

O'z vaqtida dunyoga nisbatan (odatdagi, «klassik» fizika doirasida uzoq yillar hukm surgan yondashuvlarga qaraganda) kengroq yondashuv, masalan, A.Eynshteyn (1879-1955)ga dunyoning manzarasini tushunishga nisbatan butunlay yangicha yondashuvni taklif qilish va avvalgi fizikaning aksariyat qoidalari muayyan darajadagina haqiqiy bo'lib qolgan sharoitda klassik (Nьyuton) mexanikasini ham o'z ichiga olgan «Nisbiylik umumiy nazariyasi»ni ta'riflash imkonini berdi. Ammo tabiiy bir savol tug'iladi: bu yerda falsafa chindan ham ijodiy rol o'ynadimi? Agar ijodiy rol o'ynagan bo'lsa, bu nimada va qay tarzda namoyon

bo'ldi?

Umumiy dalillarga to'xtalмай, shuni qayd etishni o'rinli deb hisoblaymizki, Eynshteyn ongida o'zidan oldingi va o'zi yashayotgan davrdagi falsafa g'oyalari to'qnashdi. Ular mutafakkirning butun ijodiy faoliyatiga, hech shubhasiz, kuchli ta'sir ko'rsatdi, zero u ratsionalistik falsafaning ko'pgina klassiklari, ularning o'tmishdoshlari va izdoshlari bilan talabalik yillaridayoq tanishgan edi. «Biz Eynshteyn ijodiga XX asr o'rtalarining fizik kontseptsiyalari va kelajakka prognozlar nuqtai nazaridan, retrospektiv nazar tashlar ekanmiz, uni insoniyat ma'naviy hayoti katta bir bosqichining yakuni deb hisoblash mumkin. – Bu bosqich faqat Nbyuton mexanikasi bilan boshlangani yo'q. Butun ratsionalistik fan va XVII asr falsafasi uning negizi hisoblanadi. Eynshteyn asarlari bilan tanishar ekansiz, Galiley, Dekart, Spinoza, Gobbs, Nbyuton satrlarini beixtiyor eslaysiz – ba'zan g'oyalarning ajabtovur o'xshashligiga duch kelasiz... XVII asr ratsionalistik tafakkurining nomuayyan farazlari va izlanishlari qanday qilib ijodiy, izchil shakl-shamoyil kasb etayotganining guvohi bo'lasiz. Bu yerda tadrijiy aloqa mavjudligi shak-shubhasizdir»¹.

Xulosa. Falsafiy tasavvurlar va tabiiy-ilmiy qarashlarni farqlash oson ish emas. Biroq falsafiy tasavvurlar tabiiy-ilmiy qarashlarga ta'sir ko'rsatgani, xuddi shuningdek al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Ibn-Sino, Mirzo Ulug'bek, I. Nbyuton, A.Eynshteyn kabi buyuk olimlarning ilmiy g'oyalari zahirida ularning keng va teran falsafiy bilimlari yotishi shak-shubhasizdir. Ayni shu sababli ko'rsatilgan mutafakkirlarning yaxlit falsafiy ta'limoti haqida bo'lmasa ham ularning jiddiy falsafiy qarashlari haqida to'la asos bilan so'z yuritish mumkin.

Ma'lumki, hamma zamonlarda ham falsafa o'z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo'llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og'ir yo'qotishlar davri ham bo'ldi. Bu esa falsafiy fikrning taraqqiyotida o'z aksini topdi, uning turli yo'nalish va oqimlari shug'ullangan muammolarning salmog'i, maqsad-

¹ Кузнецов Б.Г. Эйнштейн. Жизнь, смерть, бессмертие. – М., 1980. – 414-б.

muddaosini aniq belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xilma — xil oqim va yo'nalishlar mavjud. O'z navbatida bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo'lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi. Hozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminsoniylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyg'unligi, demokratik erkinliklar, inson qadri, biror ta'limotni mutlaqlashtirmaslikdir. Bag'rikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy ta'limotlar rang-barangligini ta'minlaydi. An'anaviy falsafada, turli g'oyaviy tizimlarga bo'linishiga qaramay, muhim muammolarni hal etishda ma'lum bir umumiylik mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning ko'p xilligi va o'ziga xosligi, turli-tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yo'nalish sifatida shakllanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. An'anaviy falsafada aql — inson mohiyatining belgilovchisi, deb talqin etilgan bo'lsa, endi ratsionalizmga qarshi insonning mavjudligi (ekzistentsializm) muammolari, hamda uning noratsional mohiyati ilgari surila boshladi. Ya'ni ilgari ma'rifatparvarlik g'oyasi ustuvor bo'lsa, endilikda ko'proq inson huquqlariga e'tibor kuchayib ketdi. Falsafa guyoki, mavhumlikdan aniqlik tomon bordi, umumiy emas, aniq-ravshan masalalarni hal qilish boshlandi. An'anaviy falsafada hodisalar mexanika qonunlari asosida tushuntirishga harakat qilingan bo'lsa, endi bunday tahlil doirasidan chetda qolgan muammolar o'rganila boshlandi. Bugungi kunga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda lardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida, nomlariga «neo», ya'ni yangi, zamonaviylashgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Fanning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilash va unga nisbatan munosabatga qarab, zamonaviy falsafiy ta'limotlarni asosan ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Ulardan biri — stsientizm (lot scientia — fan) ya'ni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Stsientizm g'oyalari, neopozitivizm, texnologik determinizm kabi ta'limotlarning asosini tashkil etadi. Ikkinchisi — antistsientizm, ya'ni fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga

salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Bunday dunyoqarash ekzistentsializm, frankfurt ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim Klubining bir qator tarmoqlarini, ba'zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi. Antistsientizm ilm-fan taraqqiyotining natijalarini nazorat ostiga olish, bu masalada jamiyat hayotini xavf ostiga qo'ymaslik talabi bilan bog'liqdir. Antistsientizmning ayrim o'ta ashaddiy namoyandalari fan-texnika taraqqiyotini tamoman to'xtatib qo'yish g'oyasini ham ilgari suradilar. Umuman olganda, XX asr falsafasida bir-biriga muqobil bo'lgan yo'nalishlar ratsionalizm va irratsionalizm, antropologizm va naturalizm, stsientizm va antistsientizm, materializm va idealizm o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida ko'pchilik nemis olimi Artur Shopengauer (1788 — 1860) qarashlarini tilga oladi. Shopengauer olamdagi barcha mavjud narsalarni irodaning namoyon bo'lishi, irodani esa ongsiz ko'r-ko'rona intilish tarzida tushunadi. Maxluqotlarning instinktlari, xatti-harakatlari — irodaning namoyon bo'lishidir. Inson faoliyati ham aqldan begona bo'lgan irodaning natijasidir. Shuning uchun inson mohiyati irrotsional asosga ega. Aql esa tasodifiydir. Inson hayoti doimo aylanib turgan iroda g'ildiragiga bog'liqdir. Shopengauer ta'limotini davom ettirgan nemis faylasufi Fridrix Nitsshe (1844-1900) fikricha, «borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo'lgan irodadir.» Nitsshe inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlikni birlashib ketganini asoslab berishga harakat qildi. Uning diyorimizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardushtiylik ta'limotini o'rganib yaratgan «Zardusht tavallosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. U o'z ortidan irodasiz kishilar ommasini etaklashga qodir bo'lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdori bo'lgan. Nitsshening tsivilizatsiya va madaniyatning so'nishi va barham topishi to'g'risidagi g'oyasiga asoslanib, 1918 yilda G. Shpengler «Evropaning so'nishi» degan asarini yozadi. O'tgan asr oxiri olimlari ijtimoiy inqiroz va ma'naviy turg'unlikdan chiqishning yo'lini G'arbda klassik falsafiy merosga murojaat etishda va uni qayta tiklashda ko'rdilar. Shu zaylda «Orqaga Kantga» shiori ostida neokantchilik, «Orqaga Hegelga» shiori ostida esa neohegelchilik paydo bo'ldi. Shu bilan birga, falsafaning klassik ildizlarini saqlab

qolishni diniy oqim bo'lgan neotomizm ham yoqlab chiqdi. Neatomizm shu bugunga qadar ham o'z mavqeini yuqotmagan bo'lib, katolik cherkovi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bunda ayniqsa Rim papasi rahbarlik qiladigan Vatikanning faoliyati muhim o'rin tutadi. Neotomizm — XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo'lib, u o'rta asrlardagi (XIII asr) Foma Akvinskiyning

ta'limotini qaytadan tikladi. U (neo — yangi, tomizm — «foma», transkripsiyada «toma» bo'lib o'zgargan) Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta'limoti demakdir. Bu ta'limotga ko'ra, ilm va e'tiqod o'rtasida to'la muvofiqlik, uyg'unlik bor. Ular bir-birini to'ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan berilgan xaqiqat. Neotomizm vakillari fikricha, ilm etmagan joyda e'tiqod qo'llanishi kerak. Lekin bu e'tiqod ko'r-ko'rona, shunchaki ishonch bo'lmay, balki mantiqan teran anglangan e'tiqod bo'lishi kerak. Xudoning mavjudligini falsafa turli mantiqiy usullar orqali isbot qilishi lozim. Shunday qilib, falsafaning vazifasi dinga xizmat qilishdan iboratdir. Neotomistlar dunyoni, jamiyatni xudo yaratgan, jamiyat taraqqiyoti xudoning rejasi asosida boradi, deydilar. Diniy teologiya oqimi bo'lganligidan neotomizm albatta, ilohiy qadriyatlarni ustuvor qo'yadi. Ammo u din va uning jamiyatdagi o'rniga, o'zining nomi kelib chiqishiga sabab bo'lgan, Foma Akvinskiy zamonidan farqli yondoshadi. Fomadan keyingi davr Evropada xristianlikning sofliğini saqlash g'oyasi, asta-sekin mutlaqlashib, o'rta asr aqidaparastligining ma'lum ko'rinishlaridan biri-inkvizitsiyaga olib kelgan edi. Bu esa hurfikrlilik, ilm-fandagi yangilikka qarshi kurashga aylanib ketgan edi. Lekin inson huquqlari, fikr erkinligi demokratiya belgisiga aylangan XX asrda bunday o'taketgan aqidaparastlikka o'rin yo'q. Neotomizm hozirgi tsivilizatsiyali dunyoda tsivilizatsiyalashgan ta'limot sifatida maydonga chiqmoqda. O'z navbatida bu demokratiya ustivor bo'lgan hayot tarziga muayyan darajada mos keladi. Neokantchilik XIX asr o'rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan edi. Uning vakillari I. Kant o'z davrida qo'ygan ilmiy bilishning umumiyliги va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta'limotga ko'ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o'zi uchun eng oliy maqsaddir. Shunday ekan, inson hayotidan kimdir o'z

maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin mavjudot deganda, Kant izdoshlari o'zi xohlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamotchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan, unga zid ish qilmaydigan, ammo o'z haq-huquqlarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar. XX asrga kelib, fan va texnika taraqqiyoti bilan ilmiy tafakkur va til muammolarini falsafiy tahlil qilishga qiziqish nihoyatda ortdi. Bu yo'nalishda ishlayotgan eng yirik oqimlarga neopozitivizm, strukturalizm va germenevtika kabi falsafiy qarash namoyondalari misol bo'ladi. Neopozitivizm oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo — yangi; pozitiv — ijobiy degan ma'noni anglatadi. Neopozitivizm G'arbda XIX asrning 20 — yillarida paydo bo'lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa — ob'ektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak. Kont falsafaning o'zi mustaqil ravishda ob'ektiv dunyo to'g'risida hech qanday aniq bilimlar berishi mumkin emas, u shu paytgacha yig'ilgan bilimlarni formal logika qonunlari asosida tahlil etishi va qayta baholashi, uni «absolyut g'oya, ruh» to'g'risidagi ortiqcha fikrlardan tozalashi kerak va yangi falsafani yaratishi kerak, deb ta'lim bergan. Neopozitivistlar verifikatsiya printsipini ilgari suradilar (lot. Veritas — xaqiqat.) ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimlarning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu printsip keyinchalik inkor etildi. Shundan so'ng postpozitivizm (ya'ni keyingi pozitivizm) vakili K. Popper falsifikatsiyalash metodini ilgari surdi.

Bunga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning xaqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning xaqiqiyligini mantiqiy — lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60 — 70 yillariga kelib, neopozitivizmning mavqei kamayib, asosiy o'ringa strukturalizm va germenevtika chiqdi. Strukturalizm (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko)

bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasini bilish uning ob'ektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar. Masalan Levi-Stross mifologik tafakkurni tahlil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar yaratgan afsonalarning umumiy strukturaga ega ekanligini isbot qildi. Uning fikricha, bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to'la muvofiq keladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta'limotga ko'ra shunday printsipga, umumiy mantiqqa ega. Germenevtika — qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun erga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalari asosiy diqqatini qaratadi. Jamiyat, bu ta'limotga ko'ra, kishilar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Shuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma'nosini, mohiyatini kishilar o'rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat. Bu oqim vaqillari Shleyermaxer va Diltey fikricha, biror bir tarixiy manbaning to'g'ri tahlil etilishi tadqiqotchining davr xususiyatlarini to'la his etishi, tushunishi bilan bog'liq. Hozirgi davrda bu ta'limotning ko'plab tarafdorlari mavjud. XX asrning 30 — yillariga kelib «ekzistentsial falsafa» rivojlandi. Ekzistentsiya — tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. Ekzistentsializm nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi. Bu muammolarning talqini, ayniqsa, ijodkor ziyolilar o'rtasida ommaviy tus oldi. Shuning uchun ekzistentsial falsafa bu davrda eng keng tarqalgan oqim bo'lib qoldi. Ekzistentsializm vakillari asosan ikki yo'nalishga bo'linadilar. Biri — dunyoviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (Yaspers, Marsel) bo'lib bunday bo'linish nisbiydir. Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining yaratish jarayonini o'zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o'z mohiyatini o'zi erkin belgilaydi, uning kim bo'lib etishishi faqat uning o'ziga bog'liq. Shu ma'noda, inson doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan loyihaga o'xshatiladi. Erkinlik insonning o'zi tomonidan yaratiladigan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi. Insonga berilgan imkoniyatlarni

tanlash nihoyatda mas'uliyatlidir, chunki bunda inson o'zi, boshqalarni hamda uni o'rab turgan olamni ham qayta yaratadi. Diniy ekzistentsializm vakillari Yaspers va Marsel fikricha, inson o'z erkin faoliyati davomida xudoga qarab unga etishish uchun, kamolot tomon harakat qiladi. Haqiqiy erkinlik insonga tahlikali onlarda, tashvishda, yolg'izlikda namoyon bo'ladi. «ahlika, mas'uliyat sof erkinlikning o'zidir, faqat shunday sharoitda inson o'zini to'laligicha anglaydi. Hayot va o'lim, qo'rqinch, dahshat tushunchalari bu ta'limotning markaziy tushunchalaridir. Ekzistentsialistlar fikricha, olam ma'nosiz va uni bilib bo'lmasligi abadiy, inson umri o'tkinchi bo'lganligi uchun ham dahshatlidir. Yangi zamon falsafasining yana bir oqimi pragmatizm AQShda keng tarqalgan. Umuman olganda, «pragmatizm» foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foydaga» tushunchasi «tajriba», «haqiqat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi. Pragmatizm ta'limotining yirik namoyandalari Ch. Pirs, U. Djems, J. Dyui va boshqalardir. Ularning ta'limotida olamning o'zgaruvchanligi o'z ifodasini topgan. Ular tajribani turli tasodif va kutilmagan vaziyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ongimizdan tezkor qarorlarni qabul qilishni talab etuvchi hodisalar majmui sifatida ta'riflaydilar. Insonning xatosiz faoliyat ko'rsatishi uchun uning xatti-harakatlarini boshqarib turuvchi vosita — intellektdir. J. Dyui fikricha, intellekt insonni o'rab turgan olamdan nusxa oladi, hamda unga muhitga moslashishga yordam beradi. Pragmatizm falsafasining maqsadi insonga olamda o'z o'rnini topishga yordam berishdan iborat. Dyui tajriba natijasining «foydali» tomoniga e'tiborini qaratadi. Djems fikricha, haqiqat foydali bo'lgan narsa yoki hodisadir. Pragmatizm AQSh ijtimoiy-madaniy hayotining qadriyatlarini ifoda etib, u erdagi ishbilarmonlar, menedjerlar, siyosatchilar va davlat arboblari o'rtasida keng tarqalgan. Amerikaliklar bu ta'limotning nazariyotchilarini halqning dunyoqarashi o'zgarishida, hozirgi amerikacha hayot tamoyillarini keng ommaga singdirishda katta xizmat qilgan faylasuflar sifatida qadrlaydilar. Masalan, J. Dyui «Amerikaning Arastusi» deya hurmat bilan tilga oladilar. Jamiyat taraqqiyotiga oid g'oyalar tahlili falsafada antik davrlardan, Suqrot va Aflotun zamonlaridan boshlab shakllana boshlagan. Bu g'oyalarning rivojida

XVII-XVIII asrlarda yashagan italiyalik faylasuf Dj. Viko, XVIII asrda yashagan I.G. Gerder va ayniqsa, nemis falsafasining yirik namoyondasi Xegel katta hissa qo'shganlar. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi ta'limotlar orasida tadrijiy taraqqiyot va inqilobiy sakrashlar yo'lidan borishni ilgari

suradigan ta'limotlar talaygina. Ko'pchilik tadrijiy yo'lni ma'qul ko'radi va biz yuqorida tilga olgan faylasuflarning aksariyati ana shunday qarash tarafdori. Afsuski, boshqacha qaraydigan ta'limotlar ham bor. Yangi davr falsafasia tarqalgan ana shunday oqimlardan biri marksizm bo'lib, uning asoschisi nemis iqtisodchisi va faylasufi K. Marksdir (1818 — 1883). Uning ijtimoiy falsafasi kapitalizmga sinfiy kurashning mutlaq antogonizm darajasiga ko'tarilishi, oxir-oqibat proletariat diktaturasining o'rnatilishi va shu yo'l bilan sinfsiz jamiyatga o'tishni targ'ib qiladigan va real hayotni aks ettirmaydigan nazariyadir. Keyinchalik sobiq ittifoqda hukmron mafkuraga aylangan bu ta'limot dastlab K. Marks va F. Engels yozgan «Kommunistik partiya manifesti»da bayon qilingan. Uning nazariy asoslari K. Marksning «Kapital», F. Engelsning «Anti-Dyuring» va «Tabiat dialektikasi» asarlarida ta'riflab berilgan bo'lib, ijtimoiy hayotda salbiy oqibatlarga olib keldi. U borliq tushunchasini materiya bilan aynanlashtirgan, ruhni butunlay inkor qilgan, materializm va ateizmni mutlaqlashtirgan. Bu ta'limotning K. Kautskiy, V. Plekhanov boshliq mo''tadil tarafdorlari keyinchalik sotsial-demokratiyaga ko'proq moyil bo'lishdi. Rossiyada V. Lenin boshchiligidagi tarafdorlari esa sinfiy kurash va proletariat diktaturasini mutlaqlashtirish yo'lidan bordilar. Bu o'z navbatida, inqilobiy sakrash yo'lini tanlashga olib keldi va Rossiyani terror yo'lga boshladi. Oqibatda esa bu tipdagi dunyoqarash jamiyat va xalqlar taqdirida g'oyat salbiy o'rin tutishi ma'lum bo'ldi. G'arbda Marksning hozirgi davrdagi tarafdorlari «neomarksizm» oqimini tashkil etadilar. Ko'pgina

neomarksistlar sinfiy kurashni mutlaqlashtirmaslik, inqilobiy emas, tadrijiy sakrash yo'lidan borish ustuvor bo'lishi lozimligini e'tirof eta boshladilar. Ammo ularning asl qarashlarini jamiyat, millat emas, sinf va ular o'rtasidagi kurash taraqqiyoti belgilaydi, degan o'sha ta'limotga bog'liqligicha qolmoqda. Alohida ta'kidlash lozimki, yaqingacha sobiq Ittifoq va uning ittifoqchilari hududida mutlaq

hukmron bo'lgan mafkuraning taqdirini o'rganish, uning tarixidan xolisona xulosa chiqarish, bu ta'limotning qanday ayanchli natijalarga olib kelganini bilib qo'yish ham foydadan xoli emas. Bu borada lom-mim demaslik foyda bermaydi. Zero, ta'limotlar tarixi — insonlar, ularning taqdiri, yuksalishi yoki tanazzuli tarixidir. Bu yuksalish yoki tanazzul ko'p hollarda muayyan g'oyalar, mafkuralar ta'sirida ro'y beradi. Gohida minglab, millionlab kishilarni maftun qilgan ba'zi g'oyalar yoki mafkuralar oxir-oqibat ana shu millionlarning zavoliga sabab bo'lishi ham mumkin. Biz qisqa tahlil qilgan marksizm va keyinroq u paydo bo'lgan hududda shakllangan natsional sotsializm (fashizm) nazariyalari ana shu tarixiy haqiqatni isbotlaydi. Bu haqiqatning ostida esa biror ta'limot qadriyatlarini mutlaqlashtirish, albatta, muayyan «izm»ga, aqidaparastlikka olib keladi, bu o'z navbatida jaholat va qabohatga eltuvchi yo'ldir, degan umuminsoniy

tamoyil yotadi. XX asrga kelib jamiyat tarixiy taraqqiyotiga oid ta'limotlarni umumlashtirish natijasida ijtimoiy taraqqiyotning plyuralistik modeli, «lokal madaniyatlar» hamda «tsivilizatsiyalarning xilma-xilligi» kontseptsiyalari shakllandi. Ularga ko'ra, jamiyat tarixi — o'ziga xos madaniyatlarning birligi emas, xilma-xilligidan iborat. Shu ma'noda u organik tabiatdagi hayot shakllarining rang-barangligiga qiyoslanadi. Demak, tabiat qanday xilma-xillikning birligi bo'lsa, jamiyat ham ana shunday rang-baranglikning uyg'unligidir. Jamiyatda ham hamma va har bir narsaning o'z o'rnini bor. Bu g'oyalar nemis faylasufi va sotsiologi O. Shpengler (1880-1936) va ingliztarixchisi A. Toynbi (1889-1975) ta'limotlarida har tomonlama asoslab berishga harakat qilindi. O. Shpengler o'zining «Evropaning so'nishi» nomli asarida tarixni bir — biridan mustasno bo'lgan madaniyatlar majmuidan iborat, deb hisoblaydi hamda mukammal rivojlangan 8 xil madaniyatni ko'rsatadi. Bular: arab, hind, vavilon, xitoy, yunon-rim, vizantiya-arab madaniyatlari, mayya va russ-sibir madaniyatlaridir. Madaniyatlar o'ziga xos diniy asosga ega bo'lib, ularning har biri qat'iy biologik maromga (ritmgaga) bo'ysunadi. Va quyidagi asosiy davrlarni bosib o'tadi: tug'ilish va bolalik, yoshlik va kamolot, qarilik va so'nish. Buning asosida madaniyatlar rivojining ikki bosqichi mavjud, deb ko'rsatiladi. Birinchi bosqich — madaniyat ravnaqi (sof madaniyat) va ikkinchisi —

uning tanazzuli («sivilizatsiya»). O. Shpengler yevropotsentrizmga, ya'ni barcha madaniyatlarni yevropalashtirish g'oyasiga qarshi chiqdi. Har bir madaniyatning o'ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanish g'oyasini mutlaqlashtirdi. Ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ham mavjudligiga kam e'tibor qaratdi. Yana bir olim A. Toynbi esa o'zining 12 jildlik «Tarixni o'rganish» asarida madaniyatlarning lokal rivojlanish g'oyasini davom ettirdi. Biroq uning ta'limoti Shpengler kontseptsiyasidan o'zining ikki jihati bilan farqlanadi. Birinchidan, insonda o'z hayotini erkin belgilash imkoniyati mavjudligini, tarixiy taraqqiyot zaruriyat va erkinlikning o'zaro birligidan iborat ekanligini nazarda tutsa, ikkinchidan, tarixiy taraqqiyotning davriy modeli dunyoviy dinlar (buddizm, xristianlik, islom) ning barcha xalqlarni yakinashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil g'oyasi bilan

boyitilgan. Toynbi G'arb xristian tsivilizatsiyasining tanazzulga qarab borayotganligini ko'rsatib, uning oldini olish yo'lini ma'naviy birlikda, jahon xalqlarining yagona dinni qabul qilishlarida, deb hisoblaydi. Umuman olganda, hozirgi paytda jamiyat taraqqiyotining tsivilizatsion kontseptsiyasi ko'pchilik faylasuflar tomonidan tan olinmoqda. Xususan, industrial va postindustrial jamiyat g'oyalari, ayniqsa, ommaviylashib bormoqda. Unga ko'ra, jamiyat taraqqiyotining bosh mezon — sanoatning rivojlanish darajasidir. Shunday qilib, XX asrga kelib rang-barang falsafiy ta'limotlar shakllandi. Ularning barchasini mazkur mavzuda

ko'rib chiqish imkoniyati bo'lmasa-da, yuqorida bayon etilgan ma'lumotlardan falsafiy plyuralizm haqida, falsafa zamon va makon bilan bog'liq murakkab fan ekanligi to'g'risida muayyan xulosaga kelish mumkin. Bu sohadagi bilimlarimiz, o'z navbatida bizning milliy g'oya va mafkuramizni shakllantirishga, ma'naviyatimizning boyib, mustahkamlanib borishiga, intellektual kamolotimizga xizmat qiladi.

2-mavzu: Hozirgi zamon falsafasida borliq va ong muammosi hamda fandagi asosiy zamonaviy yo'nalishlar

R e j a:

1. Yangi zamon falsafasida borliq va ong muammosi

2. *Klassik va noklassik falsafada inson intellektual imkoniyatlarining ulugʻlanishi.*

3. *Hozirgi zamon falsafasidagi asosiy zamonaviy yoʻnalishlar*

Ontologiya tushunchasi. Oʻquv kurslarida asosiy falsafiy muammolarni oʻrganish odatda *ontologiyadan* boshlanadi. Ontologiya falsafiy bilimlarning alohida sohasi boʻlib, unda borliq va yoʻqlik, mavjudlik va nomavjudlik kabi masalalarning keng doirasi oʻrganiladi, shuningdek *mavjudlik* sifatiga ega boʻlgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. «Ontologiya» atamasi falsafada faqat XVII asrdan beri ishlatiladi, lekin u yunoncha oʻzaklarga ega boʻlib (*ontos* – borliq, *logos* – soʻz, taʼlimot), borliq haqidagi taʼlimot degan maʼnoni anglatadi. Ontologiya falsafada alohida oʻrin egallaydi. Ikki yarim ming yillik faol falsafiy izlanishlar natijasida falsafiy bilim tizimida *ontologiyadan* tashqari falsafaning muhim falsafiy mazmun kasb etadigan *gnoseologiya, aksiologiya, ijtimoiy falsafa, axloq, estetika, mantiq* kabi tarkibiy qismlari paydo boʻldi. Lekin ularning barchasi zahirida ontologiya yotadi. Oʻz navbatida ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va shu tariqa oʻz tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini koʻp jihatdan belgilaydi.

Ontologik bilimning tabiati. Borliq haqidagi fan – ontologiya qadim zamonlardayoq falsafaning muhim qismi hisoblangan. Garchi «ontologiya» soʻzi falsafa tilidan XVII asrdagina oʻrin olgan boʻlsa-da¹, borliq antik mutafakkirlar falsafiy mulohazalarining bosh mavzularidan biri boʻlgan. Borliq kategoriyasi dunyoda hamma narsaga xos boʻlgan xususiyatning oʻta umumiy tavsifi sifatida vujudga kelgan. Qadimgi faylasuflar atrof muhitda narsalarning rang-barangligi va oʻzgaruvchanligini kuzatar ekanlar, ularda «haqiqiy mavjud» narsani – vujudga kelmaydigan va yoʻq boʻlmaydigan, ularning umumiy va muqarrar asosi hisoblangan borliqni qidirganlar.

Ontologiya – falsafiy tafakkurning eng abstrakt sohasi. U oʻta umumiy bilimni yaratish – borliqni bilishga qaratilgan. Ontologik bilim serqamrov va

¹ Бу сўз илк бор 1613 йилда нашр этилган Р.Гоклениуснинг «Фалсафий луғати»да пайдо бўлган.

universaldir. U amalda mavjud bo'lgan hamma narsaga taalluqli. Insonga bunday bilim nima uchun kerak? Axir odamlar amalda «umuman hamma narsa» bilan ish ko'ra olmaydilar – ularning ishlari doim muayyan narsalar doirasi bilan cheklangan bo'ladi. Ontologik kontsepsiyalar real mazmundan xoli bo'lgan abstraktsiyalarni o'ylab topish bilan shug'ullanuvchi falsafiy aqlning quruq o'yini emasmikan? Bunday savollar borliq haqidagi ontologik tasavvurlar tanqidining manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunday tasavvurlarni Berkli, Yum, Kant va empirizm nuqtai nazarini himoya qiluvchi boshqa faylasuflar tanqid tig'i ostiga oladi.

Ammo ontologik bilim shunchaki qiziquvchanlikdan yoki fantaziyalarga ishqibozlikdan tug'ilmaydi. U insonga shuning uchun kerakki, bilish faoliyati doim har qanday konkret ob'ektni bilishga kirishilgunga qadar mavjud bo'lgan uning tuzilishi haqidagi ayrim dastlabki tasavvurlarga tayanadi. Bu tasavvurlar bilish amallarining umumiy strategiyasi yoki dasturini belgilaydi. Bunday dastur inson qandaydir kutilmagan va tushunarsiz narsaga duch kelgan holda ayniqsa zarur. Bunday vaziyatda yangi va betakror hodisalarni tushunish va o'zlashtirishga yaqinlashish uchun bu hodisalarni, ularning dunyodagi o'rnini va ularga qanday yondashish kerakligini hech bo'lmasa taxminiy aniqlash imkonini beruvchi dunyoning barcha hollarda qo'llashga yaroqli bo'lgan umumiy sxemasi yoki «xaritasi»ga ega bo'lish lozim.

Kundalik tajribada biz butunlay yangi ob'ektlarga kamdan-kam holda duch kelamiz. Ammo inson o'zi o'zlashtirgan makrodunyo chegarasini kengaytirgani sari «har qanday hol» uchun zarur bo'lgan borliq haqidagi ontologik tasavvurlarni falsafiy nuqtai nazardan maxsus o'rganish vazifasi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Turli ontologik kontsepsiyalar – bu dunyoni idrok etishning turli usullaridir. Faylasuflar ularni yaratar ekan, insoniyatga u «birdan» ilgari ko'rilmagan narsaga duch kelgan va «buning nimaligi»ni tushunishning eng maqbul usulini tanlashga to'g'ri keladigan taqdirda kerak bo'ladigan universal modellarni oldindan tayyorlashga «ijtimoiy buyurtma»ni bajaradi.

SHu o'rinda tabiiy bir savol tug'ilishi mumkin: dunyoning umumiy manzarasini yaratishni fizika o'z zimmasiga olgani tufayli ontologiya o'z

ahamiyatini yo'qotgani yo'qmi? Axir fizika materiya va harakatning eng umumiy shakllarini o'rganadi va uning fundamental nazariyalari «butun mavjudlik»ka tatbiq etiladi. Dunyoning zamonaviy fizik nazariyalari mavjud bo'lgan sharoitda ontologiya anaxronizm, eskirgan falsafiy an'ana «sarqiti» hisoblanmaydimi?

Ammo ontologiya bilan fizika o'rtasida jiddiy farq mavjud bo'lib, u biron-bir fizik nazariyaga ontologiyaning o'rnini bosish imkonini bermaydi.

Fizikaning umumiyligi shu bilan belgilanadiki, u o'rganuvchi materiya va harakat shakllari qolgan barcha, yanada murakkabroq - kimyoviy, biologik, ijtimoiy shakllar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Fizika «butun mavjudlik»ni (borliqning bizga ma'lum bo'lgan shakllari doirasida) qamrab oladi va o'zi aniqlagan qonunlarni butun dunyoga tatbiq etadi. Ammo u borliq nofizik shakllarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganmaydi. Fizika borliqda topuvchi umumiy jihatlar voqelik barcha ob'ektlarining «fizik zamini»gina hisoblanadi. Ontologiya esa borliqning har qanday sohasi ob'ektlari, shu jumladan biologik va ijtimoiy ob'ektlarning o'ziga xos xususiyatlari o'rtasida umumiy jihatlarni aniqlashga harakat qiladi. *Fizika doirasida aniqlanuvchi umumiy xossalar – bu fizik xossalardir. Ontologiya esa umumiy jihatlarni ob'ektlarning fizik xossalarida ham, nofizik (kimyoviy, biologik, ijtimoiy) xossalarida ham izlaydi.*

Har qanday ontologiya, hech shubhasiz, gipotetik xususiyat kasb etadi. Uning bu xossasi ilmiy nazariyalarnikidan ham kuchliroqdir. SHu ma'noda Yum va Kant mutlaqo haq: tajribada ko'rilmaydigan narsalar haqidagi ontologik mulohazalar muqarrar tarzda sub'ektiv va isbotlab bo'lmaydigan farazlarni o'z ichiga oladi va shu bois ishonchsiz. Ontologiya – falsafaning taxmin va farazlar bilan ayniqsa kuchli bog'liq bo'lgan qismi. Neopozitivistlar uning tabiiy-ilmiy bilimdan farqiga ishora qiladilarki, bunga qo'shilmaslik mumkin emas (ammo qaerda fan tugashi va «metafizika» boshlanishini aniq va uzil-kesil ko'rsatishga hali muvaffaq bo'linganicha yo'q).

SHunga qaramay har qanday ontologiya qanoatlantirishi lozim bo'lgan bir mezon mavjud: insoniyat ijtimoiy-tarixiy amaliyoti rivojlanishining mazkur bosqichida u mavjud bilimlar bilan ziddiyatga kirishmasligi kerak. Turli ontologik

kontseptsiyalar bu mezonni turli darajada qanoatlantiradi. Sun'iy o'ylab topilgan, fanga tayanmaydigan ontologik kontseptsiyalar tajriba bilan to'qnashuvni chetlab o'ta olmaydi. Mazkur mezonga materialistik ontologiya ko'proq mos keladi, zero uning zahirida jamiyat to'plagan tajribani umumlashtirish yotadi.

Materialistik nuqtai nazardan ontologik kontseptsiya mavhum tushunchalarni va borliqning umumiy tamoyillarini spekulativ tarzda tuzish yo'li bilan yaratilmasligi kerak. Bu yo'l tafakkurning voqelikdan uzoqlashishiga olib boradi. Tamoyillar va tushunchalar tabiatga muqarrar va shak-shubhasiz haqiqatlar sifatida bog'lanmasligi kerak. Aksincha, ular tabiatni o'rganishdan, fan to'plagan borliqni bilish tajribasini umumlashtirishdan keltirib chiqarilishi lozim.

Sof borliq g'oyasi. Ontologiyaning asosiy tushunchasi – borliq falsafada ikki yoqlama talqin qilinadi. Bir ma'noda u «sof borliq» sifatida, boshqa ma'noda – “substantsial borliq” sifatida tushuniladi.

«Sof borliq» - bu o'z holicha, barcha konkret belgilaridan xoli ko'rinishda olingan mavjudlik. Borliqning bunday o'ta abstrakt mazmuni ko'pgina faylasuflarni o'zi tortgan. Ular borliqning mazkur talqinidan dunyo haqidagi muayyan mulohazalarni mantiqiy ta'riflashga harakat qilganlar. Birinchilardan bo'lib bunga Parmenid (miloddan avvalgi VI asr) harakat qilgan. U borliq tushunchasidan yo'qlikning mavjud emasligi kelib chiqishini isbotlashga uringan. Amalda biz yo'qlik haqida hatto fikrlay ham olmaymiz, chunki agar biz u haqda o'ylasak, u bizning fikrimizda mavjud bo'ladi, ya'ni borliq sifatida fikrlanadi. Binobarin, yo'qlikni tasavvur qilish ham mumkin emas, bu esa uning mavjud emasligini anglatadi. Ammo yo'qlik bo'lmasa, hech narsa paydo bo'lishi ham, yo'q bo'lishi ham mumkin emas. Chunki paydo bo'lish yo'qlikdan bor bo'lish, yo'q bo'lish esa – yo'qlikka aylanishdir. Bundan xulosa shuki, borliq «harakatsiz», unda biron-bir o'zgarish bo'lishi mumkin emas: har qanday o'zgarish nimaningdir paydo bo'lishi va yo'q bo'lishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, borliq yagona, bir jinsli va bo'linmas: uni qismlarga faqat yo'qlik ajratishga qodir, lekin u mavjud emas. Borliqning chegarasi bo'lishi mumkin emas, uning boshi ham, oxiri ham yo'q, zero, hamonki yo'qlik mavjud emas ekan, borliqni cheklashga qodir bo'lgan narsa ham

mavjud emas.

Gegelʼ «sof borliq» kategoriyasidan foydalanishning boshqacha usulini topgan. Uning ontologik kontseptsiyasida bu kategoriya Mutlaq gʻoya rivojlanish mantiqining tayanch nuqtasi hisoblanadi. «Sof borliq» va «sof yoʻqlik»ning ayniyligini qayd etgan holda, Hegelʼ bu qarama-qarshiliklar sintezidan iborat boʻlgan «shakllanish» tushunchasini kiritadi (zero shakllanish nimaningdir borligini anglatadi, chunki «shakllanmoqda», vujudga kelmoqda, lekin hali borliqqa ega emas, chunki «shakllanmagan», vujudga kelmagan). SHundan soʻng Hegelʼ shakllangan nimadir «shakllanish»ning natijasi boʻlishini qayd etadi. Bu natija, Hegelʼ fikriga koʻra, «mavjud borliq», yaʼni «sof borliq»dan farqli oʻlaroq, aniq sifatga ega boʻlgan borliqdir.

Albatta, Hegelning shakllanish gʻoyasi muayyan narsaning shunday bir holatiki, unda shakllanayotgan narsa bir vaqtning oʻzida ham mavjud boʻladi, ham mavjud boʻlmaydi, degan fikriga qoʻshilish mumkin emas. Ammo har qanday shakllanish – bu qandaydir predmetning «sof yoʻqlik»dan emas, balki ilgari mavjud boʻlgan boshqa predmetlardan vujudga kelishidir. Har qanday «mavjud borliq» «sof borliq»dan va «yoʻqlik»dan emas, balki boshqa bir «mavjud borliq»dan vujudga keladi. Hegelʼ fikriga zid oʻlaroq, «sof borliq»ning «sof yoʻqlik»ka oʻtishi tushunchalar oʻyinidan boshqa narsa boʻlmay, bundan amalda sifat jihatidan aniq biron-bir borliq vujudga kelmaydi (buni XIX asrdayoq L.Feyerbax va tushunchalar Hegelcha mantigʻining boshqa tanqidchilari qayd etgan). Ontologiyani «sof borliq» va «sof yoʻqlik» kategoriyalari yordamida tuzishga intilish XX asrning ayrim faylasuflari ijodida ham kuzatiladi (M.Xaydegger, Ye.Fink va b.). Ammo, fikrning mazmunini nima fikrlanayotganini koʻrsatmasdan yoritish mumkin boʻlmaganidek. borliq kategoriyasining mazmunini borliqqa nima ega ekanligini koʻrsatmasdan yoritish mumkin emas. Fikr hamisha nima haqdadir fikr boʻlganidek borliq har doim nimaningdir borligʻidir. «Sof borliq» ham xuddi «sof yoʻqlik» kabi mazmunsizdir (bunda Hegelʼ haq). «Sof borliq» tushunchasi quruq abstraktsiyadan boshqa narsa emas.

XX asrda borliqqa munosabat. XX asr borliqni tushunishni tarixiylik,

insonning mavjudligi, qadriyatlar va til bilan bog'lab, uning talqinini kengaytirdi. Neopozitivizm falsafiy yo'nalishi esa, avvalgi ontologiya falsafaning emas, balki ayrim fanlarning predmeti deb hisoblab, falsafadagi borliq muammosini soxta muammo sifatida talqin qildi.

Borliq mohiyatini tushunib yetishda eng yangi qarashning o'zagini insonning ijtimoiy ijodi tashkil etadi. Bunda borliq hayot faoliyati jarayoni sifatida tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining sur'atlari tobora jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda mazkur dunyoqarash ko'pincha texnokratik dunyoqarash deb ataladi.

XX asrda Borliq– dunyo miqyosidagi tartibsizlik, absurd va intiho asri - bunyod etgan yangi postmodernistik shaklini e'lon qilgan postmodern instinkt, boshboshdoqlik, va yurish-turishlarning rang-barangligi, spontanlik hamda tartibsizlik tomon yuz tutgan. San'at va borliq orasidagi masofa tobora qisqarib, mutlaqo yo'qolish darajasiga yaqinlashgan. Ko'chadagi narsalar badiiy asarlar ahamiyatini kasb etgan. Postmodern hayotdagi haqiqiy qarama-qarshiliklardan kelib chiqishga harakat qilib, borliqdan «nusxa» ko'chirgan va «o'z tartibi»ni taklif qilgan. Odatdagi narsalarning oddiy aloqalarini neytrallashtirib, ularni obrazli-badiiy dunyoqarash maqomiga da'vogar bo'lgan yangi ma'nolar tizimiga kiritishga intilish ijodning mohiyatiga aylangan.

Ammo tadqiqotlar postmodern butunlay marginal xususiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Postmodernistik eksperimentlar maydoni chegarasiz va nomuayyanligi, postmodern mahsuli mujmal «badiiy-nobadiiylik» maqomiga ega ekanligi ham buni tasdiqlaydi. Postmodernistik mo'ljallar an'anaviy madaniyatni hali siqib chiqargani yo'q, balki an'anaviy talqindagi ma'naviyat doirasida amal qilmoqda. Bu «tavakkalchilik» muhitida, mo'ljallarning beqarorligi holatida zamondoshimiz muntazam ravishda o'z yo'lini tanlash, o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi anglashga majbur bo'lmoqda.

XX asr oxirining ma'naviy muhitida, kiborg madaniyati, ya'ni giperestetika, elektron san'atni vujudga keltirayotgan texnika bosimini sezmaslik mumkin emas. Tadqiqotchilarning baholashlaricha, texnologik jamiyat mantig'i emotsiya funktsiyalarining o'ta qashshoqlashuvini va tafakkurning o'ta soddalashuvini

nazarda tutadi; elektron san'at postmodernistik estetikaning chegarasi bo'lib, primitivizmga asoslanadi. Inson va mashina o'rtasidagi farqni butunlay bartaraf etishni mo'ljallagan kiborg-postmodernizm alohida diqqatga sazovordir.

Noklassik borliq. Noklassik falsafa dunyoning aqlga muvofiqligi, shuningdek inson ongining mustaqilligiga shubha bildirdi. Pozitivistlar umuman ontologiyani yaratishdan bosh tortdilar. Irratsionalizm, marksizm va ekzistentsializm da ontologik kontsepsiyalar hayot, jamiyat va inson tushunchalarini rivojlantirildi, ularni borliqning noyob va o'ziga to'q usullari sifatida tavsiflandi.

Borliq va hayot: borliqning irratsionalistik kontsepsiyasi. Falsafiy irratsionalizm asoschisi A.SHopengauer olamning aqlga muvofiqligi haqidagi tezisga shubha ko'zi bilan qaraydi. Uning fikricha, borliqning o'zi emas, balki bizning u haqdagi tasavvurimiz aqlga muvofiqdir, zero tasavvur – bu inson aqlining mahsulidir. Ammo tasavvur – bu hodisa, mohiyat darajasida esa dunyoni aqliy idrok etish mumkin emas. SHopengauer o'zining «Dunyo intilish va tasavvur sifatida» deb nomlangan bosh falsafiy asarida dunyoning borlig'ini ikki tarkibiy qismga – «yashashga intilish sifatidagi dunyo» va «inson tasavvuri sifatidagi dunyo»ga ajratadi. Uning fikricha, yashashga intilish haqiqiy borliqdir. Yashashga intilish ko'r-ko'rona va noqilonadir, zero uning asosiy niyati – o'z-o'zini asrashdir. O'z-o'zini asrash instinkti – butun tiriklikning tabiiy xossasidir. Ammo SHopengauer romantiklarga ergashib, yashashga intilish dunyoning barcha narsalariga va umuman dunyoning o'ziga xosdir, deb hisoblaydi. Dunyo haqidagi bunday mifopoetik tasavvur hayotda yana ta'riflar va tushunchalar tilida ifodalab bo'lmaydigan o'ziga to'q tabiiy stixiyani ko'rish imkoniyatini beradi.

Fan dunyoni umumiy qonunlar va nazariyalar yordamida anglab yetishga harakat qiladi. Ammo hayot har doim betakror bo'lib, uni ta'riflar yordamida ifodalash mumkin emas. Uning hayot faoliyati mahsullaridagi moddiy ifodalarinigina o'rganish mumkin. Bu eng avvalo ijodga tegishli, kreativ faoliyatning barcha turlaridan intilishga eng yaqini esa musiqadir (intilishning birinchi moddiy ifodasi). So'zlar va obrazlar hayotga intilishning izlarini ma'lum darajada ko'zdan yashiradi.

SHopenhauerning izdoshi F.Nitsshe hayotga intilishning mohiyati hokimiyatga intilishda namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi. Ammo bu nuqtai nazar haqiqiy borliqning anglab yetish mumkin bo'lmagan hodisa sifatidagi talqiniga daxl etmaydi. Nitsshe insonda eng avvalo o'z hayoti uchun kurashishi lozim bo'lgan biologik mavjudotni ko'radi. Inson o'z hayot kuchlari va instinktlarini axloqiy taqiqlar va jamiyat me'yorlari hukmiga bo'ysundirish yo'li bilan kurashdan bo'yin tovlamasligi kerak. Axloq insonni o'rtacha andozalarga yaqinlashtiradi va uning qayta tug'ilishiga sabab bo'ladi: inson xavfsizlik hissini saqlash yo'lida to'laqonli, lekin xavfli hayotdan voz kechadi. Bunday qayta tug'ilishning yo'llaridan biri – Iso Masihning diniy axloqi, ikkinchi yo'l – Suqrotning ratsionalistik axloqi. Ikkala ta'limot ham narigi dunyo g'oyasiga asoslanadi, ularning ikkalasi ham real hayotning qimmatini kamsitishga qaratilgan.

Fridrix Nitsshe (1844-1900) – nemis faylasufi, irratsionalizm vakili, hayot falsafasi asoschisi. Asosiy asarlari: «Musika ruhidan fojining tug'ilishi», «Insoniy, o'ta insoniy», «Zardo'sht tavallosi», «Quvnoq fan», «Yaxshilik va yomonlikning narigi tomonida», «Hamma uchun va hech kim uchun», «Hokimiyatga intilish», «Antixrist» va b.

Borliqning ikki asosi: dionisiycha (hayotiy) asos va apolloncha (bir yoqlama-intellektual) asosni ajratgan va haqiqiy madaniyat bu asoslarni muvozanatga solishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan. Yevropa madaniyati mazkur idealni ro'yobga chiqara olmadi va inson borliq deganda stixiyali shakllanishni emas, balki tartibga solinganlikni tushunib, o'z mavjudligining asosiy negizlaridan uzoqlasha boshladi. Vaholanki, hayot abadiy harakat va shakllanishdan iboratdir.

Hayotning mazmun va mohiyati hokimiyatga intilishda namoyon bo'ladi. Bunday intilish butun tiriklikka xosdir. Unga intellektning hukmronligi, o'z yaqiniga muhabbatni targ'ib qiluvchi axloq va tenglikni e'lon qiluvchi sotsializm monelik qiladi. Bularning barchasi qullar axloqini tashkil etadi. To'ralar axloqi esa hayotning qimmati, odamlar o'rtasidagi tengsizlik hamda kuchning hukmronligiga asoslanishi lozim. Nitsshe «Xudo o'ldi» degan tezisni ilgari suradi. Ushbu tezis yangicha axloqni shakllantirish zarurligini anglatadi.

To'ralar axloqining sub'ekti sifatida o'ta qudratli inson amal qiladi. U oliy biologik tur hisoblanadi. Odam maymundan qanday tarqalgan bo'lsa, o'ta qudratli inson ham odamdan shunday tarqaladi. U tayyor tur sifatidagi inson tabiatiga xos bo'lgan jihatlarni o'zidan soqit etadi. O'ta qudratli inson hayotni kurash sifatida idrok etishga va o'zini tinimsiz o'zgartirish yo'lida harakat qilishga qodir.

O'ta qudratli inson g'oyasiga «abadiy qaytish» kontseptsiyasi qarshi turadi. Nitsshe fikriga ko'ra, voqealarning ehtimol tutilgan kombinatsiyalari soni cheklangan, vaqt esa cheksizdir, shu sababli barcha voqealar takrorlanishi lozim. Umuman olganda, Nitsshening falsafiy tizimi o'zining ziddiyatlarga to'laligi bilan ajralib turadi, shu tufayli ham u turlicha tushuniladi va talqin qilinadi.

Nitsshe falsafasi XX asr falsafasining turli yo'nalishlari: hayot falsafasi, pragmatizm va ekzistentsializmga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Borliq va jamiyat: borliqning tarixiy-materialistik kontseptsiyasi

K.Marks o'zining ijtimoiy borliq haqidagi ta'limotini tarixiy materializm deb nomlagan. Uning fikricha, ijtimoiy borliq individning borlig'iga nisbatan ham, ijtimoiy ongga nisbatan ham birlamchidir. SHunday qilib, u jamiyatga fizik borliqqa o'xshash borliq sifatida qaragan. Ayni shu sababli jamiyat ham tabiat qonunlariga o'xshash aniq va shubhasiz qonunlarga bo'ysunishiga uning ishonchi komil bo'lgan. Ijtimoiy borliq - bu moddiy borliq. U individlarning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati bilan belgilanadi. Ijtimoiy borliq qonunlari uning tarixiy rivojlanish jarayonida namoyon bo'ladi. Jamiyat tarixini Marks ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar: ibtidoiy jamoa, quldorlik, kapitalizm va kommunizmning tadrijiy va qonuniy ketma-ketligi sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, har bir tuzum ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini o'z ichiga olgan tegishli ishlab chiqarish usuli bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish kuchlari (bazis) – bu o'zini o'zi rivojlantirish va o'z-o'zidan murakkablashishga qodir bo'lgan o'ziga to'q borliq. Materialistik evolyutsionizm ta'limotlarida materiya, Spinozaning «yaratuvchi tabiati» kabi, mustaqil rivojlanish qobiliyatiga ega, moddiy ishlab chiqarish esa moddiy borliqning eng murakkab darajasi hisoblanadi. Bu yerda materiya, moddiy borliq, shu jumladan moddiy ishlab

chiqarish ijtimoiy organizmga o'xshatiladi va unga hayot alomatlari tatbiq etiladi.

Ishlab chiqarish munosabatlari (bazisning ustqurmasi) formal borliq sohasiga kiradi. Ammo shakl tadrijiy rivojlanishga qodir emas, u faqat o'zgarish jarayonida boshqa shakl bilan almashtirilishi mumkin. SHu sababli ishlab chiqarish munosabatlarning almashuvi «inqilobiy sakrashlar» tarzida kechadi. Bu sakrashlar ishlab chiqarish kuchlari bilan muvofiq kelishi ham (bu hol formatsion o'sish davrida kuzatiladi), ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin. So'nggi zikr etilgan holat ishlab chiqarish munosabatlarning yangi ishlab chiqarish kuchlariga muvofiq keluvchi yanada barkamolroq shakliga inqilobiy yo'l bilan o'tilishiga olib keladi. Bunda yangi ishlab chiqarish kuchlari eskilaridan mustaqil o'sib yetiladi. Masalan, feodal tuzumda kapitalistik ishlab chiqarish kuchlari mustaqil o'sib yetilgan va eski ishlab chiqarish munosabatlari bilan to'qnashib, burjua inqilobi jarayonida yangi – kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarga ega bo'lgan. Ular ishlab chiqarishning kapitalistik usuli va ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkdorlikning kapitalistik shakliga muvofiq keluvchi yangi qonunlar, yangi huquq, yangi axloq va yangicha dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

Borliq va inson: borliqning ekzistentsial-germenevtik kontseptsiyasi. Ekzistentsialistlar mushohada yuritish orqali anglab yetish mumkin bo'lgan mohiyat (essentsiya)ni amalda mavjudlik (ekzistentsiya)ga qarshi qo'yadilar. Ular borliqning mazmuni to'g'risidagi masalaga qaytish lozimligini uqtiradilar. Lo'nda qilib aytganda, borliqning oqilona tavsifi uning asl mazmunini yoritib berishga qodir emas. Bunday mazmun hayot tajribasida, ya'ni «shu yerda-borliq» yoki mavjudlik orqali namoyon bo'ladi. Germenevtika borliq sxemasi yoki formulasini aniqlashga emas, balki uning mazmuni tagiga yetishga qaratilgan. Falsafiy muammo sifatidagi borliqning mazmuni insonni o'z mavjudligining pirovardliligi va tasodifiyligini anglash natijasida yuz bergan shokdan xalos etishi lozim. Bir so'z bilan aytganda, bu yerda aristotelcha analitikaga xaydeggercha germenevtika qarshi qo'yiladi.

Borliq germenevtikasi oqilona-sxematik yoki metafizik bilimga ishonchsizlik ko'zi bilan qarashga asoslanadi. Falsafa tarixida germenevtikaning ayrim tarafdorlari: a) mistik; b) estetik; v) intuitiv; g) irratsional narsalar va hodisalarga

qarab mo'ljallanadilar. Dunyoni anglab yetish mazkur usulining aks sadolari Pifagor (osmon musiqasiga quloq solish), Platon (g'oyalar xususida mushohada yuritish), Tertullian (absurd orqali haqiqatning tagiga yetish), Paskal (aql haqiqatlariga yurak haqiqatini qarshi qo'yish), romantiklar, Kierkegor, Schopenhauer va Nietzsche metodida mavjud.

Borliq va mavjudlik. Borliq va mavjudlikni ontologik ajratish Xaydegger loyihasining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Bu loyihani ishlab chiqish bilan u asosan «Borliq va vaqt», «Fenomenologiyani asosiy muammolari» asarlarida shug'ullanadi. So'zning o'z ma'nosidagi borliq, albatta, mavjudlikning borlig'i, lekin borliq mavjudlikdan kelib chiqadigan yo'qlik emas, ya'ni u mavjudlik hisoblanmaydi. Bu yerda Xaydegger Kantning borliq predikat emas, degan fikriga qaytadi. Ammo bu holda borliq nima? Keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, mavjud narsalarning barchasi ayni bir borliq usuli – mavjudlik bilan tavsiflanadi. Shunga muvofiq tabiat va ruh (g'oya va narsa, res cogitans va res extensia) farqlanadi. Ammo bu farqlash borliqning usullari o'rtasidagi farqni ifodalashga qodir emas. U faqat mavjud narsaning mohiyatini belgilovchi unsurlar o'rtasidagi farqni aks ettiradi.

Xaydegger fikriga ko'ra, borliq usullarini ajratishning haqiqiy yo'li borliqning mohiyati (essentia) va usulining bir-biriga mansubligini mohiyat va usulning borliq g'oyasiga mansubligi nuqtai nazaridan tahlil qilishga asoslanadi. Nemis mutafakkiri borliqning olti usuli: ekzistentsiya, birgalikda mavjudlik, qo'l ostidalik, hozirlik, hayot va barqarorlikni farqlaydi. Bu usullarning barchasi bir-biridan shu darajada farq qiladiki, «borliq» tushunchasining yagonaligini shubha ostida qoldiradi. Bu yerda mavjudlik to'g'risidagi masala Xaydegger qarshisida eng muhim masalalardan biri sifatida ko'ndalang bo'ladi.

Mavjudlik tushunchasining tahlili uning «hozirlik», «dunyo» va «qo'l ostidalik» tushunchalari vositasida ifodalanuvchi fenomenlar bilan ontologik o'zaro aloqasini qayd etishdan boshlanadi. Bunda mavjudlikni borliq turlaridan biri sifatida tushunish mumkin emasligi, mavjudlik muammosini, «uning shartlari va chegarasini» atroflicha o'rganish zarurligi ta'kidlanadi.

Faylasuflar hatto mavjudlik to'g'risidagi masalani qo'yish usulida ham aniq bir to'xtamga kelganlari yo'q. Bu xususda Xaydegger mazkur sarlavha ostida mazmunan har xil bo'lgan masalalarni, chunonchi: «ongga nisbatan transtsendent» bo'lgan narsa mavjudmi, tashqi dunyoning mavjudligini isbotlash mumkinmi, mavjudlikni anglab yetish mumkinmi qabilidagi masalalarni va nihoyat, mavjudlikning mazmuni to'g'risidagi masalani aralashtirish odat tusini olganini ta'kidlaydi.

Yuqorida zikr etilgan har xil, lekin o'zaro bog'langan masalalar xaydeggercha talqinining xususiyati mavjudlik muammosini u uch qismga ajratishida oydinlashtiradi: a) borliq hamda «tashqi dunyo»ni isbot qilish mumkinligi muammosi sifatidagi mavjudlik; b) ontologik muammo sifatidagi mavjudlik; v) mavjudlik va tavajjuh.

Birinchi muammoni tahlil qilar ekan, Xaydegger tashqi dunyoning mavjudligi yoki uni isbotlash to'g'risidagi masala bir vaqtning o'zida ma'nosiz va ikki ma'noli ekanligini qayd etadi. Masalaning ma'nosizligi shu bilan izohlanadiki, mazkur masala dunyoda borliq sifatida mavjudlik bilan qo'yilgan. Masalaning ikki ma'noliligi, Xaydegger fikriga ko'ra, bir-biridan farq qiladigan ikki narsa: nimadadir borliq sifatidagi dunyo va ichki mavjudlik sifatidagi «dunyo»ning aralashuvi tufayli kelib chiqadi. Tashqi dunyoning mavjudligi to'g'risidagi masala bu yerda dunyo fenomeniga oydinlik kiritmasdan qo'yiladi. Buning oqibatida amalda isbotlanayotgan narsa yoki hodisaning isbotlash usuli va isbotlashning e'lon qilinayotgan maqsadi bilan aralashuvi yuz beradi.

SHunday qilib, Kant falsafadagi janjal deb nomlagan masala – tashqi dunyo mavjudligining dalil-isbotlari yo'qligi Xaydeggerga muammoni noto'g'ri qo'yish bo'lib tuyuladi. U bunday isbotlashni amalga oshirishni ko'zlagan shaxslarning shu yerda hozirligining o'ziniyoq mavjudlikning isboti deb hisoblaydi. Hatto dunyoning mavjudligiga ishonish lozimligini ta'kidlovchilar ham, Xaydegger fikriga ko'ra, adashadilar, zero ular bunday dalil-isbotlar idealda mavjud bo'lishi lozimligini tasdiqlaydilar.

Mur va Xaydegger nuqtai nazarlari o'rtasida muayyan o'xshashlik mavjud.

Ularning ikkalasi ham bu soxta muammoni o'zidan soqit etishga harakat qiladi. Bunda ular shu tariqa barcha antirealistlarni kuchli dalildan mahrum etishga umid qiladilar. Ular mazkur masalaning qo'yilishining o'ziyoq mantiqsiz ekanligini ta'kidlaydilar.

Ularning asosiy farqi shundaki, Xaydegger bahslashish uchun asoslar mavjud emas deb hisoblaydi. U realistlarning nuqtai nazarini ham, idealistlarning qarashlarini ham qattiq tanqid tig'i ostiga oladi. Realistlarning qarashlarida u «ontologik tushunarsizlik»ka, ya'ni mavjudlikni ontotik (borliqning tartibi orqali emas, balki mavjudlikning tartibi orqali) tushuntirish niyatiga e'tiborni qaratadi. Idealistlarni ular o'zlarining borliq haqidagi tasavvurlarini mavjudlik orqali tushuntirishga harakat qilganlari uchun ayblaydi. Idealistlar borliqni mavjudlik orqali tushuntirish mumkin emasligini anglamaydilar. Boz ustiga, idealistlar mavjudlikning ideal borlig'i haqidagi tasavvurdan kelib chiqadigan oqibatlarni, xususan ongning borlig'i haqidagi masalani e'tibordan soqit etadilar.

Bularning barchasi Xaydegger mavjudlik muammosini ontologik tahlil qilish zarur, degan xulosaga kelishiga sabab bo'ladi. U hatto buning uchun mavjudlikni anglab yetishning «poydevorlari va ufqlari»ni yorituvchi maxsus ekzistentsial-ontologik kontseptual bazani ta'riflaydi. Uning yordamida nemis mutafakkiri quyidagi diskursiv sxemani tuzadi. Mavjudlik dunyoda borlik demakdir, dunyoda borlik esa dunyo fenomenining o'ziga asoslanadi. Mazkur fenomen dunyoda-borliqning tarkibiga kiradi, dunyoda-borliq esa borliqning yaxlitligidan tavajjuh yordamida mustahkam o'rin oladi.

Keltirilgan sxema, Xaydegger ijodining boshqa namunalari kabi, u ilmiy muomalaga kiritgan atamalarning ma'nosi xususida bir qancha savollar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Masalan, «tavajjuh» o'zi nima? Yaqindagina falsafiy kategoriyaga aylantirilgan bu nometafizik so'z «mavjudlik», «ob'ektiv borliq» yoki «fizik borliq» tushunchalari qatorida mutlaqo noo'rindak bo'lib tuyuladi. Ammo Xaydegger tavajjuh fenomenini borliqning mazmunini anglab yetishga eltuvchi yo'llardan biriga aylantiradi. Xaydegger Yangi davrda faqat psixologik yoki hatto biologik jihatdan talqin qilingan narsalar va hodisalarni metafizik nuqtai nazardan talqin

qilishga uringanini eslasak, uning niyati oydinlashgandek bo'ladi. Bu yerda mavjudlikka eng avvalo qarshilik ko'rsatish, sub'ektning ichki intilishlari ro'yobga chiqishiga monelik qilishga qodir bo'lgan yuzaki fenomen sifatida yondashgan Dil'tey va SHe'larning ta'sirini ham e'tiborga olish lozim. Xaydegger mavjudlikning volyuntaristik kontseptsiyasi doirasini kengaytirishga va uni hozirlikning tahlili ruhida o'zgartirishga harakat qiladi. Darhaqiqat, intilish voqelik bilan o'zaro ta'sirga kirishish jarayonida qarshilikka duch keladi, lekin mavjudlik va hozirlikning munosabati qarshilik fenomeni bilangina cheklanmaydi, qarshilik ko'rsatish qobiliyati – mavjudlikning xususiyatlaridan biri. «Mavjudlikni anglash»ning o'zi ham dunyoda borlikning muayyan usulidir.

Xaydegger mavjudlik «narsaning sof mavjudligi» ma'nosida emas, balki borliq usuli sifatidagi mavjudlik ma'nosida tushuniladigan bo'lsa, mavjudlikning moduslari sifatida qo'l ostidalik va hozirlik amal qiladi, deb hisoblaydi. SHunday qilib, aynan tavajjuh fenomeni mavjudlikni kategoriya sifatida aniqlash omili hisoblanadi. Demak, borliq sifatidagi mavjudlik reallik yoki substantsiyalilik asosida anglab yetilishi mumkin emas, degan xulosaga keladi Xaydegger.

SHuni qayd etish lozimki, Xaydeggerning mavjudlik xususidagi mulohazalari mazkur muammoga doir falsafiy bahs-munozaralardan chetda turadi. Bu hol Xaydegger bahslashuvchi taraflarni yengishga muvaffaq bo'lgani bilan emas, balki uning falsafasi aksariyat masalalar va tushunchalar yuzasidan muloqot uchun zamin yaratmasligi bilan izohlanadi. Fundamental ontologiya yo to'laligicha qabul qilinadi, yo butunlay rad etiladi. Xaydeggerning noortodoksal izdoshlaridan biri J.Derrida uning ruh haqidagi mulohazalarini bir vaqtning o'zida ham aksiomatik, ham aksiologik, ham aksio-poetik deb tavsiflaydi². Xaydeggerning butun falsafasi haqida ham ayni shu gapni aytish mumkin.

Martin Xaydegger (1889-1976) – nemis faylasufi, ekzistentsializm asoschilaridan biri. Asosiy asarlari: «Borliq va zamon», «Metafizikaga kirish», «Platonning haqiqat haqidagi ta'limoti», «Qishloq ko'chasida», «Borliq va vaqt» va b.

² Қарағр: Derrida J. Of Spirit: Heidegger and the Question. The University of Chicagopress, 1989. – 14-6.

Xaydegger Gusserlning fenomenologik metodini o'zlashtiradi, lekin uni borliq muammolarining tahliliga tatbiq etadi. Hozirgi dunyoda inson borliq haqidagi tasavvurni deyarli yo'qotgan. Hozirgi hayot moddiy narsalarning abstrakt, mantiqiy tilida gapiradi, shu sababli haqiqiy borliqni faqat insonning mavjudligi (Dasein) orqali tasavvur qilish mumkin. Inson hayoti hayotning boshqa shakllaridan butunlay farq qiladi, chunki o'zini o'zi bilish va borliq haqida mulohaza yuritishga qodir. Inson haqiqiy yoki haqiqiy bo'lmagan mavjudlikni tanlashi mumkin.

«Borliq va vaqt» asarida Xaydegger insonning mavjudligini tahlil qiladi va unga borliqning o'zini tushunishga eltuvchi yo'l sifatida yondashadi. Mavjudlikning insoniy usuli biz o'z hayotimizni amalga oshiruvchi ko'p sonli yo'llarni anglatadi. Inson dunyoda mavjud bo'ladi, u bilan to'qnashadi va kundalik mavjudlik sharoitlariga moslashishi va unga ko'nikma hosil qilishi mumkin. Bunday inson o'z mohiyatidan uzoqlashgan va haqiqiy bo'lmagan hayot kechiruvchi «anonim mavjudot» hisoblanadi.

Inson borlig'ining asosiy tavsifi sifatida «tavajjuh» amal qiladi. Inson dunyoga tashlangan, binobarin, unda ishtirok etadi va manfaatdor hisoblanadi. U o'zi haqida va uning bu dunyodagi hayotini belgilovchi barcha narsalar haqida qayg'urishi (ular uchun mas'ul bo'lishi) lozim. Xaydegger fikriga ko'ra, odamzot jamoa hayotining «anonimligi» ortiga yashirinib, erkinlik va mas'uliyatni idrok etishdan doim o'zini olib qochadi. Tavajjuh bilan «bezovtalik» va «qo'rquv» uzviy bog'liq. Ular inson o'zini o'zi tanlashi mumkinligini tushunganida namoyon bo'ladi.

Insonning mavjudligi (Dasein)ning mohiyati sifatida ekzistentsiya – ochiqlik, o'zgacha narsalarga intilish amal qiladi. U yo'qlikka (o'limga) intiladi va o'zining betakrorligini dahshat orqali anglab yetadi. Inson aynan borliqning mantiqsizligidan dahshatga tushish orqali o'zining haqiqiy borlig'ini tushunib yetadi. Hamonki inson o'zini o'lim dahshati orqali anglab yetar ekan, muvaqqatlik inson mavjudligining bosh xossalardan biri hisoblanadi. Mavjudlikning muvaqqat tuzilishi o'zlikni anglash va harakatning bosh omilidir.

Xaydegger o'z ijodiy faoliyatining so'nggi bosqichida til hamda texnika ekspansiyasi natijasida hozirgi zamon inqirozi mavzulariga qo'l uradi. U texnikaga

yangi Yevropa tarixini harakatlantiruvchi kuch sifatida qaraydi. Texnika mavjudlikni unga o'z hukmini o'tkazish uchun predmetga aylantiradi. Bu oxir-oqibat shunga olib keladiki, insonning o'zi ham texnikaga qaram bo'lib qoladi, predmetga aylanadi.

Xaydeggerning falsafiy g'oyalari ko'pgina mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan. Bu mutafakkirlar orasida Xaydeggerning izdoshlari ham (Gadamer), uni tanqid qiluvchilar ham bor. Mavjudlik tahlili metafizikani borliqni uni moddiylashtirish, ko'lamlashtirish orqali anglab yetish sifatida rad etadi. Metafizik fikrlash uslubining tanqidi zamirida uni fikrlash erkinligidan voz kechish sifatida tasavvur qilish yotadi. Metafizik fikrlash uslubining tanqidchilari uni mazkur fikrlash uslubining zamirida borliqni anglab yetish, uning mazmun va mohiyatini tushunish mumkin emas, degan g'oya yotganligi uchun tanqid tig'i ostiga oladilar. Metafizika zamirida yotuvchi optik metafora bizni borliqqa yuzaki fenomen sifatida yondashishga majbur qiladi. Bunda borliq narsa sifatida tushuniladi, uni anglab yetish esa uning xossalari, muhim belgilari va shu kabilarni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Amalda borliq ko'lamli ob'ektga aylanadi. Ammo borliq narsa emas. Xaydegger ilmiy tadqiqotning odatdagi tartib-taomillariga qarshi chiqadi, u muayyan masalani qo'yishda uning mazmunini teran anglab yetish lozim, deb hisoblaydi. Muloqotni imitatsiya qilar ekan, tadqiqotchi o'z suhbatdoshi inson, boz ustiga bilimdon inson emasligini unutmasligi kerak. Javobni savol bergan odamning o'zi izlashi lozim.

Xaydegger vaqtni anglab yetish tajribasi yordamida borliqni anglab yetishni taklif qiladi. Bunda yuzaki tasavvur o'rniga ichki kechinma birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Birinchi holda inson, uning ongi so'zlaydi va amal qiladi. Ikkinchi holda esa – dunyoning o'zi so'zlaydi va amal qiladi, narsalarning o'zlari qarshimizda gavdalanadi. Inson ongi, insonning o'zi kabi, dunyoning teran qatlamlaridan o'rin olgan. Ammo ongda oqilona asosning rivojlanishi bilan u o'zi yaratgan stixiyaga qaram bo'lib qolgan. Agar inson boy berilgan dunyo bilan uyg'unlikni tiklay olsa, u yana borliq ovozini eshitadi. Bu ovozni «borliq uyi» bo'lgan til orqali eshitish mumkin.

M.Xaydegger «fundamental ontologiyasi»ning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda falsafa va fan bir-biriga qarshi qo'yiladi. Xaydegger o'zining borliq va mavjudlik haqidagi ta'limotida nafaqat hozirgi zamon tabiatshunosligi ma'lumotlariga tayanishga harakat qilmaydi, balki yangi Yevropa fani loyihasini bu narsalarni anglab yetishga ojiz deb hisoblaydi. U «nusxa ko'chiruvchi fikrlash uslubi»ning epistemologik imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni qattiq tanqid tig'i ostiga oladi, ilmiy faoliyatni borliqning asl haqiqatini aniqlash yo'lidagi izlanishlar bilan birga amalga oshirish mumkin emas, deb hisoblaydi.

Xaydegger falsafaning Platonga qadar bo'lgan holatiga qaytishga, falsafa kategoriyalari tizimini va umuman falsafiy mushohada yuritish tamoyillarini qaytadan va o'zgacha asoslarda shakllantirishga umid qiladi. Xaydegger odatdagi tilga, u orqali esa – arxaik tilga murojaat etgani ayni shu hol bilan izohlanadi. Xaydegger aynan arxaik tilda o'zga obrazlar va ma'nolarni aniqlashga va shu tariqa borliqni, mavjudlikni anglab yetishning yangicha yo'llarini topishga umid qiladi.

Borliqning mazmuni to'g'risidagi masala: borliq va vaqtning aloqasi. Borliqning mazmuni to'g'risidagi masala vaqtni anglab yetish muammosi bilan uzviy bog'liq. «Borliq tushunchasi eng mavhum tushuncha bo'lsa kerak», deb yozadi Xaydegger. Borliq tushunchasi Yevropa falsafasini yaratibgina qolmaydi, mazkur atamaning intellektual tarixi falsafa tarixi bilan tengdoshdir, u bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar mazmunining xususiyatlari falsafa va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar mohiyatini ko'p jihatdan belgilaydi. Faylasuflar o'z bilimining «mag'zi»ni «oddiy odamlar»ga odatda borliq haqidagi fikr yoki fikrlar majmui yordamida yetkazishga harakat qiladilar. Bunday fikrlardan Koinot tamoyillari va qonunlari, narsalar tabiati haqidagi, yaxshilik va yomonlik, maqsadlar va qadriyatlar, o'tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi ta'limotlar kelib chiqadi.

Ayni shu sababli faylasuflar borliqning xossalari va munosabatlari xususida bahslashadilar. Borliq birlamchi, borliq oldindan belgilanmagan, borliq yaratadi, borliq abadiy, mukammal va o'zgarmas, borliq yagona, qo'shaloq yoki ko'p sonli. Borliq nimaga qarshi turadi: yo'qlik, shakllanish va ongami? U moddiy yoki idealmi? Bir so'z bilan aytganda, borliq o'z-o'zidan ravshan tushunchadir. Faqat

borliqning xossalari va munosabatlari ko'rsatilgan borliq nazariyasini yaratish talab etiladi. Borliq haqida hamma narsani bilsak, dunyo, inson, o'tmish va kelajak haqida ham hamma narsadan xabar topamiz.

Borliqning mazmun va mohiyati nimada, degan savolga javob topish Xaydegger uchun juda muhimdir. «Borliq nima?», deb so'rasak, u mazkur «nima»ning mazmuni bizga ma'lum, deb hisoblaydi. Parmenid ta'biri bilan aytganda, borliq bor va bo'lmasligi mumkin emas. Demak, borliq bor va faqat uning qandayligini aniqlash talab etiladi. Xuddi shuningdek, «quyon nima», degan savol ham quyonning borligini nazarda tutadi va uning jinsini aytish, belgilarini sanab o'tish, balki u yashaydigan muhitni ko'rsatish va tavsiflash talab etiladi. Quyon – sut emizuvchi o'txo'r hayvon, kemiruvchilar oilasiga kiradi, uzun quloqlari bor va sh.k. «Quyon» so'zi bilan biz ko'rish, suratini chizish, tavsiflash mumkin bo'lgan predmetni ataymiz. Bu so'z bilan biz bitta predmetni emas, balki mazkur turga mansub bo'lgan ko'p sonli predmetlarni ataymiz. Ammo borliq quyon emas va umuman, u hech qanday narsa emas. Borliqni ko'rish ham, tavsiflash ham, suratini chizish ham mumkin emas. Xuddi sezgilar, fikrlar, tushunchalarni ko'rish, suratini chizish yoki tavsiflash mumkin bo'lmaganidek. Sezgilarni his etish, fikrlarni ta'riflash, tushunchalarning mazmuniga tavsif berish mumkin. Ammo borliq sanab o'tilgan fenomenlarning birortasiga mansub bo'lsa, u qanday qilib hamma narsaning avvalida turishi, hamma narsaning asosi bo'lishi mumkin.

Falsafa fikrlashning yangicha uslubini kashf etdi. Bu fikrlash uslubi yordamida biz aslida narsa bo'lmagan fenomenlarga ham narsa sifatida yondashishimiz mumkin. Masalan, narsalarning xossalari, narsalar o'rtasidagi munosabatlar. So'ngra fikrlar, sezgilar, so'zlar, nomlar, qilmishlar. Nihoyat, mazmunning o'zi. Mazmunni o'rganish bilan XX asrda pragmatistlar, fenomenologlar, neopozitivistlar shug'ullandilar. Natijada pragmatistlar semiotikani, fenomenologlar – germeneytikani, neopozitivistlar esa – tilning mantiqiy tahlili va harakatning lingvistik tahlilini yaratdilar. Ammo bu yondashuvlarning barchasi aslida nomoddiy moddiyLashtirishga tayanadi. So'zlar, fikrlar, sezgilar va qilmishlar tahlil predmetiga aylanishi uchun o'ziga xos narsalarga

aylantiriladi. Qadimgi tahlilning maxsus vositasi – mantiq ularni teng huquqli tushunchalar sifatida birlashtiradi, faqat «yakka – umumiy» va «abstrakt – konkret» yo'nalishlari bo'yichagina ularni ajratadi.

Oradan yuz yilliklar o'tdi va faylasuflar falsafiy tushunchalarning mazmunini go'yoki ularning moddiy tabiatiga hech kim shubha qilmagandek muhokama qila boshladilar. Platonning mazkur g'aroyib mohiyatlar mavjud bo'lgan alohida dunyo haqidagi fantastik ta'limotiga ehtiyoj qolmadi. Bu ta'limotsiz ham eng teran aql egalari zahirida borliqqa o'xshash «kuzatilmaydigan mohiyatlar» yotuvchi nazariy tizimlarni yaratish bilan shug'ullana boshladilar. Faylasuflar borliq nimaga o'xshashi va uning tabiati qandayligi xususida bahsga kirishdilar. Ayrimlar borliq moddiy va idealga bo'linadi, degan fikrni ilgari suradilar, ayrimlar uni faqat ideal, ma'naviy yoki ilohiy fenomen sifatida tasavvur qiladilar, yana bir guruh faylasuflar borliqning yagonaligi to'g'risidagi masalani kun tartibiga qo'yadilar. Xaydegger buni g'arb metafizikasi deb nomladi va unga Parmenid yashagan zamondan boshlab Kant va Gegel zamonigacha bo'lgan davrdagi barcha falsafiy ta'limotlarni kiritdi. Ulardan farqli o'laroq Xaydegger borliq haqida boshqa tilda so'zladi: u so'zning yoki harakatning mazmuni haqida qanday so'rasalar, borliqning mazmuni haqida ham shunday so'radi.

Xaydeggerning javobi – bu borliqning mazmuni nimada, degan savolga javob emas, balki savolning mazmuniga oydinlik kiritishdir. Borliq haqida shunday bir tilda gapira boshlashdiki, u mazmunning tagiga yetish imkoniyatini bermaydi, deb hisoblaydi Xaydegger va bu fikrda u yaratgan ta'limotning fenomenologik ildizlari ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi.

Borliq mohiyatini tushunib yetishda eng yangi qarashning o'zagini insonning ijtimoiy ijodi tashkil etadi. Bunda borliq hayot faoliyati jarayoni sifatida tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining sur'atlari tobora jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda mazkur dunyoqarash ko'pincha texnokratik dunyoqarash deb ataladi.

Virtual borliq texnologiyasi zahirida birinchi marta XX asr 60-yillarining o'rtalarida paydo bo'lgan kompyuterlar yordamida foydalanuvchi boshqara oladigan model dunyolar yaratish mumkin, degan g'oya yotadi. Virtual borliq

tizimlari ilmiy davralarda texnologiyalar ongda o'zgarish yasaydigan kelajakning qiyofasi xususida qizg'in bahsga sabab bo'layotir. Ammo virtual borliq tizimlarini ishlab chiqish va kiber maydonni yaratish inqilobiy - ijtimoiy natijaga olib keladi, degan fikrni virtual borliq texnologiyasining ilk yaratuvchilari ham, kiborg-postmodernizm nazariyachilari ham qo'llab-quvvatlamogda.

Kiborg madaniyati tarafdorlari fikriga ko'ra, bo'lajak axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson o'z qobiliyatini namoyon etishining yangi shakllariga imkon yaratadi, insonni uning kundalik hayotidagi moddiy kamchiliklardan xalos etuvchi yangi texnologik davrni belgilab beradi. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga intilish bizga rivojlangan jamiyatlarda tobora katta rol o'ynayotgan yangi tajribaning cheksiz imkoniyatlarini qo'lga kiritish imkonini beradi, degan umid bilan bog'liqdir. *Virtual borliq tizimlari bu tajribadan va insonning «yangi o'ziga to'qligi»dan foydalanish imkonini amalda ta'minlaydi.* Inson faqat o'z tasavvuri bilan cheklanadigan sun'iy tarzda yaratiluvchi virtual olamlar orasida yashay boshlaydi. Bunday dunyoni yaratish mumkinmi? Biz o'zimizda kiborglarni kashf etamizmi yoki faqat ongning kompyuterlar modellashtiruvchi muhit doirasidagi hozircha ifodalash mumkin bo'lmagan holatlarining tajribasini - buni kelajak ko'rsatadi.

Bu yaqinlashayotgan va kompyuter ekranlari yorug'i bilan o'ziga chorlayotgan holatlarni qanday baholash hamda tavsiflash mumkin? Hozirgi zamon odamining haqiqiy bo'lmagan, g'ayriinsoniy zombi holatidagi mavjudligi borliqni inkor etish demakdir. U shaklan boshqacha borliq, mazmunan esa yo'qlik sifatida amal qiladi. XX asr oxirida yo'qlikni oqlovchi falsafiy traktatlar paydo bo'lgani bejiz bo'lmasa kerak. Xususan, A.Chanishev «Yo'qlik haqida traktat» asarida yo'qlikning birlamchiligini quyidagi dalillar asosida isbotlashga harakat qilgan:

1. Vaqt dalili: hozirgi zamonning mavjudligi o'tmish va kelajakning, ya'ni allaqachon yo'q bo'lgan yoki hali yo'q narsalarning mavjudligini nazarda tutadi. Bu yo'qlikning vaqt modusidir.

2. Makon dalili: biron-bir narsaning muayyan joyda mavjudligi uning boshqa joyda mavjud emasligini nazarda tutadi. Bu borliqning makon modusidir.

3. Harakat dalili: harakatlanayotgan jism u mavjud bo'lmagan joyda mavjud va u mavjud bo'lgan joyda mavjud emas. Bu yo'qlikning harakat modusidir.

4. Yangining yuzaga kelishi bilan bog'liq dalil: yangi - bu uni vujudga keltirgan sabab va shart-sharoitda mavjud bo'lmagan narsadir. Lekin u mavjud bo'lmagan paytda qaerda bo'lgan? Yo'qlikda. Bu yo'qlikning emerjent modusidir.

5. qarama-qarshiliklar bilan bog'liq dalil: dunyolar va aksildunyolar, zarralar va aksilzarralar, musbat va manfiy sonlar, umuman, har qanday qarama-qarshilik yo'qlikda bir-birini tugatadi va undan xuddi koordinatalar tizimi noldan paydo bo'lganidek yuzaga keladi.

6. Tafovut dalili: amalda mavjud bo'lgan hamma narsa (boshqacha mavjudlik bo'lishi mumkin ham emas) nafaqat mavjud bo'lgan narsa, balki mavjud bo'lmagan narsa hamdir: $A \vee \text{bo'lmagani}$, $S \text{ bo'lmagani}$, $D \text{ bo'lmagani}$ uchun A dir.

7. Tasodif dalili: bo'lishi mumkin bo'lgan narsa tasodifdir, lekin u bo'lmasligi ham mumkin, binobarin, tasodifning mavjudligi yo'qlikning mavjudligini nazarda tutadi.

8. Substantsiya dalili: modomiki xossalar, aktsidentsiyalar mavjud ekan, ularning tashuvchisi - substantsiya ham bo'lishi lozim. Lekin u ko'rinmaydi, chunki narsalarda ularning xossalaridan boshqa hech narsa yo'q. Substantsiya ta'riflanib, shu orqali muayyan tus olgani zahoti xossaga aylanadi. Binobarin, ta'rifi mavjud bo'lmagan yo'qlikkina substantsiya bo'lishi mumkin.

9. Sub'ekt dalili: sub'ektning o'zida ko'zdan kechiruvchi hamma narsa ob'ektga aylanadi, demak, ikkitadan bittasi: yo sub'ekt umuman mavjud emas, yo sub'ekt - yo'qlik¹.

SHunday qilib, hozirgi zamon postmodern falsafasi mantiqan tugallangan shaklda borliqni ham, sub'ektni ham inkor etadi. Bu yagona urinish emas. SHu narsa e'tiborga molikki, frantsuz ateistik ekzistentsializmining asoschisi Jan Pol' Sartr (1905-1980) o'z asarini «Borliq va yo'qlik» deb nomlagan². J.Sartrda biron-bir narsani yo'qlik qobig'iga o'rash iborasiga duch kelish mumkin. J.Sartr ushbu holatga

¹ Чанышев А. Трактат о небытие.-М.: Мысль, 1995.-С.89

² Сартр Ж.Бытие и небытие.-М.: 2003.- 308 с.

ong borlig'i sifatida tushunilgan inson borlig'ining eng muhim xususiyati sifatida qaragan. U ko'rsatishga harakat qilgan insonning o'z borlig'ida borlig'i - bu azob-uqubat borlig'idir. Bunda o'z baxtsizligi chegarasidan chetga chiqish o'z borlig'i chegarasidan sakrab o'tishni anglatadi.

Borliqning intihosi - apokalipsis, isyon, nomuayyanlik va spontanlik - postmodernizmning eng yaxshi ko'rgan mavzularidir. Ular endi tushkunlikka tushgan, hayotdan umidini uzgan odamni anglatmaydi, balki borliq namoyon bo'lishining har qanday teran shakllari «ortida» turuvchi narsa - yo'qlik nomidan qabul qilinadi. SHu sababli vahiy ham yo'qlik qa'ridan kelgan vahiy, «noma'lum joy»dan va noma'lum manzilga (adresatga) yuborilgan noma sifatida qabul qilinadi va fikrlarga ochiq predmetsiz so'zlar girdobida aylanishga ruxsat etiladi. «Vaziyat aloqa qiluvchilarning cheksiz miqdori yuklangan, «dastlabki signal» (Xudo)ni farqlash va aniq manzilni aniqlash mumkin bo'lmagan cheksiz kompyuterni eslatadi». Yo'qlik da'vatini asos qilib olgan kiborg madaniyati hamda inson borlig'ining o'z qimmatini yo'qotishi vaqt oqimida ana shunday g'ayrioddiy tarzda mujassamlashadi va hozirgi postmodernga borliqni tushunishni anglatadi.

Xullas borliq haqidagi o'ta keng, falsafiy tasavvurlar dunyoning yaxlit tabiiy-ilmiy manzarasini yaratishga harakat qilayotgan hozirgi zamon fanining xulosalari va qoidalariga asoslanishi lozim. Ammo ayrim fanlardan iborat fan o'z holicha borliqning umumiy talqinini bermaydi, zero bu vazifa avvalo falsafiy darajada hal qilinadi. Falsafaning bu muhim roli, uning murakkab hodisalar, shu jumladan borliqni bilish borasidagi imkoniyatlari haqida atoqli rus olimi *V.I.Vernadskiy* shunday degan edi: «Men bilimning rivojlanishida falsafaning ahamiyatiga aksariyat naturalistlarga qaraganda boshqacharoq yondashaman va u bunda ulkan, samarali ahamiyat kasb etadi, deb hisoblayman. Menimcha, falsafa va fan ayni bir jarayonning tomonlari – muqarrar va ajralmas tomonlardir. Ular faqat bizning aqlimizda ajraladi. Agar ulardan biri to'xtab qolsa, boshqasining jonli o'sishi barham topgan bo'lar edi... Falsafa doim fan kurtaklarini o'stiradi, ba'zan hatto fanning rivojlanish sohalarini belgilaydi...»¹.

¹ Вернадский В.И. Философские мысли натуралиста. – М., 1988. –С. 412.

Ong inson miyasining ob'ektiv borliqni ideal obrazlarda aks ettirish va bu obrazlardan fikrlash jarayonida foydalanish qobiliyati sifatida amal qiladi.

Uni bevosita kuzatish mumkin emas. Ong faqat inson miyasi ishining natijasi, uning xossasi sifatida, shuningdek ong namoyon bo'lishining fikrlar, g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar, mo'ljallar va shu kabilar tarzida ifodalangan turli shakllari orqali tadqiq etilishi mumkin.

Individual ong borlig'ini odatdagi makon va vaqt koordinatalarida tavsiflash mumkin emas. U nafaqat doim «shu yerda va hozir» mavjud bo'ladi, balki go'yoki makondan tashqarida yotadi, chunki biron-bir hajm yoki miqdoriy o'lchanadigan chiziqli ko'rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin emas. Vaqtda u (dalil sifatida, hodisa sifatida), har qanday narsaning borlig'i kabi, faqat hozirgi zamonda mavjud bo'ladi, zero u o'tmishda yo'q bo'lgan, kelajakda esa hali mavjud emas. Biroq, moddiy narsalar borlig'idan farqli o'laroq, ong bir qancha o'ziga xos xususiyatlar, chunonchi: vaqt shkalasi bo'ylab o'tmishga ham, kelajakka ham bir lahzada ko'chish, ilgari mavjud bo'lgan narsalar, yuz bergan voqealarni xayolda aks ettirish, paydo bo'lishi, yuz berishi mumkin bo'lgan narsalar va voqealarni tasavvurda gavdalantirish qobiliyatiga egadir. Ammo o'tmish yoki kelajakning ideal obrazlari hisoblangan ongni uning haqiqiy borlig'ida o'z ekranida tasvirlarni almashtiruvchi aylanuvchan kaleydoskop bilangina taqqoslash mumkin.

Ayrim kishilar borlig'i haqida so'z yuritganda, shuni ta'kidlash lozimki, u barcha jonli organizmlarda bo'lganidek funksionalgina emas, balki o'z shakllanish jarayonida muayyan bosqichlardan o'tadi, bunda tana bilan bir qatorda ruh ham rivojlanadi. Garchi bu ikki jarayon dialektik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ulardan har birining rivojlanishi o'z yo'lidan boradi va asosan turli qonunlarga bo'ysunadi. Ayrim kishilar bir-biriga o'xshamasligi va ularning cheksiz darajada rang-barangligi shu hol bilan belgilanadi. Ular o'z shakllanish jarayonining ayni bir bosqichlari - inson, individ, shaxsni har biri o'zicha bosib o'tadi.

SHaxs – insonning uni qurshagan boshqa odamlar tomonidan qanday idrok etilishi, tavsiflanishi va baholanishini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa. SHaxs faqat jamiyatda, o'ziga o'xshash odamlar bilan muloqot qilish, o'tgan

avlodlar to'plagan tajriba va bilimlarni, o'ziga qadar yaratilgan qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish orqali shakllanishi mumkin. SHuning uchun ham shaxs bo'lish – ijtimoiy «qiyofa»ga ega bo'lish demakdir. Bularning barchasi ijtimoiy borliqning turli holatlari va jarayonlarini tavsiflaydi. Ularni to'la yoritish ijtimoiy falsafa muammolarining butun majmuini tahlil qilishni taqozo etadi.

Inson borlig'ida ongning tabiati. Ong muammosini yechishga nisbatan yangicha yondashuvlar hozirgi zamon falsafasining irratsionalistik oqimlariga (lot. Irra Ongning tabiati.) mansub. Ong muammosi o'ta murakkab muammolardan biri bo'lib, falsafada doim qizg'in bahs va munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Bu bahs va munozaralar hozir ham tugagani yo'q.

Ongning tabiati shunday: u hissiy idrok etiladigan ob'ektiv borliqni tushunish va aks ettirish uchun biz yuqorida foydalangan aksariyat ko'rsatkichlar va tavsiflarga mos kelmaydi. Ongni o'lchash, biron-bir tarzda miqdoriy ifodalash, sezish yoki kuzatish mumkin emas, zero uning massasi ham, energiyasi ham yo'q, shuningdek u moddiy ob'ektlar kabi muayyan shakl-shamoyilga ham ega emas.

Ong shak-shubhasiz mavjud, ammo u mavhum bo'lib, balki bilvosita – odamlar tili va muayyan faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Binobarin, inson borlig'ining bu elementlarini tahlil qilmasdan ongning mohiyatini aniqlash mumkin emas. Mazkur tahlil ongning biologik jihatini ham o'z ichiga oladi, zero uning mavjudligi inson bosh miyasi faoliyati bilan uzviy bog'liq. SHu sababli ongning tabiati nafaqat falsafada, balki fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, kibernetika, informatika va boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlarda ham o'rganiladi.

Ayni vaqtda mazkur muammo o'ta murakkabligi tufayli uning falsafiy talqini ayrim fanlar uchun muhim metodologik rol o'ynaydi. Ularning natijalari esa, o'z navbatida, ongning tabiati xususidagi falsafiy mulohazalar uchun asos bo'ladi. Ongning tabiati masalasining qo'yilishi va unga berilgan tegishli javob, odatda, barcha keyingi falsafiy, chunonchi: ontologik, gnoseologik, ijtimoiy va boshqa mavzulardagi mulohazalarning yo'nalishini belgilaydi.

Ong va jonning tenglashtirilishi. Atrof muhitda, o'z ichki dunyosida yuz berayotgan o'zgarishlarga odamlar qadim zamonlardayoq e'tibor berganlar. Bu jon

va ruh haqidagi mulohazalar paydo bo'lishiga olib kelgan. SHu tariqa bashariyat tarixida animizm - odamlar, hayvonlar hayoti, narsalar va hodisalarga jon va ruhlar ta'sir ko'rsatishiga bo'lgan e'tiqod paydo bo'ldi, shu asnoda shakllangan dunyo haqidagi tasavvurlar keyinchalik u yoki bu tarzda turli dinlar negizini tashkil etdi.

Jon haqidagi ilk falsafiy tasavvurlar odatda muayyan birinchi asoslar (havo, olov, atomlar harakati va sh.k.) bilan bog'langan va shaxssiz bo'lgan, ya'ni inson tabiatining betakrorligi, uning individualligi bilan tenglashtirilmagan. Suqrot dan oldingi falsafa to'raligicha shunday xususiyatga ega bo'lib, bu yerda ideallik tushunchasini deyarli uchratmaymiz. Masalan, olovni oqil va olijanob, suvni – tuban asos deb hisoblagan Geraklit jon (psixeya) olov yoki suvdan iborat bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Olov ko'proq bo'lgan «quruq» jonni - eng oqil va maqbul deb hisoblaydi. Jon namlangach, o'z kuchini yo'qotadi, ho'llangach esa – halok bo'ladi. SHu sababli jon olovi kuchliroq yonishi uchun faol ma'naviy va aqliy hayot kechirishga harakat qilish lozim. O'z navbatida ayrim kishilarning jonlari butun dunyoning birinchi sababi hisoblanadigan va uni boshqaradigan dunyoviy aql olovi – «logos» bilan bog'liq.

Suqrot va Platon moddiy va ideal hodisalarni farqlagan. SHuningdek, Platon Yevropa falsafiy an'anasida ideal asosni qayd etibgina qolmasdan, balki undan moddiy asosni ham keltirib chiqargan birinchi faylasuf hisoblanadi. Ayrim inson ongi esa, Platon fikriga ko'ra, uning joni bilan bevosita bog'lanadi. Bu o'lmas jon u yoki bu tanaga, tana tug'ilgunga qadar o'z «zindoni»ga tushgandek kirib joylashadi va u o'lganidan keyin esa boqiy g'oyalar dunyosida mushohada yuritadi va shu tariqa ularni o'rganib yashaydi. Platon ruhiy hodisalarni tuyg'ular dunyosi (sezish va idrok etish) va intellektga ajratadi. Intellektda u aql va idrokni farqlaydi. Bunda sof g'oyalar bilan ish ko'ruvchi aql fikrlashning formal usullari bilan bog'liq (masalan, matematikada) idrokka qaraganda yuksakroq hodisadir. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, keyinchalik falsafada ideal narsalar va hodisalarni tushunishga nisbatan ko'p sonli har xil yondashuvlar paydo bo'ldi, ammo ularning barchasi ideallikni moddiylik va ko'lamlilikka qarshi qo'yadi.

Aristotelning «Jon haqida» risolasini qadimgi yunon faylasuflarining ong

haqidagi falsafiy mulohazalarining muayyan yakuni deb hisoblash mumkin. Bu yerda jon tananing mohiyati, uning uyushtiruvchi tamoyili sanalsa-da, lekin aql ichki faolligining in'ikosiga emas, balki kosmos hayotining umumiy qonunlariga bo'ysunadi.

O'rta asrlar Yevropa falsafasi «din cho'risi»ga aylanib, ong haqidagi masalaga butunlay o'zgacha nuqtai nazar bilan yondashdi – uni abadiy mavjud bo'lgan dunyoni, shu jumladan inson va uning jonini yo'qlikdan yaratgan Xudoning yagona dunyoviy asos sifatidagi talqini bilan bog'ladi. Bu ta'limotga binoan inson aqli ilohiy aqlning bir zarrasi sifatida muayyan darajada o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, ongning bu faoliyati Tangrini bilish va u bilan muloqot qilishga qaratilgandir. Ongning mazkur ob'ektiv-idealistik talqini bilan bir qatorda o'rta asrlarda ongni «fikrlovchi materiya»dan keltirib chiqargan materialistik an'anada ham uzilish yuz bergani yo'q. Bunday qarashlarga (yoki ularga moyillikka) arab tilida ijod qilgan mutafakkirlar Ibn Sino, Ibn Rushd) ijodiga arab falsafasi o'z ta'sirini ko'rsatgan yevropalik ayrim faylasuflar Duns Skot, brabanlik Sigerning asarlarida duch kelish mumkin.

Ong haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi. Yangi davrda ong haqidagi tasavvurlar ancha kengaydi. R.Dekart (1596-1650) ongni tafakkur bilan tenglashtirib, uni umumiyroq tusdagi «ruhiyat» tushunchasidan ajratdi va ongni mustaqil, erkin fikrlovchi substantsiya deb hisoblab, yonma-yon joylashgan boshqa – ko'lamli, fikrlamaydigan, moddiy substantsiyaga qarshi qo'ydi. Dualizm deb nomlangan mazkur falsafiy yondashuv keyinchalik ongning tabiatini tushunishga nisbatan ikki qarama-qarshi yondashuv yuzaga kelishiga zamin hozirladi. SHulardan biri ruhiyni jismoniyga (Gobs); ma'naviyni – moddiyga bog'lash bilan tavsiflanadi. Ikkinchi yondashuv sub'ektiv (Berkli, Yum, Fixte, Max va boshqalar) va ob'ektiv (Platon, Foma Akvinskiy, Gegelb) idealizm bilan bog'liq bo'lib, moddiy va jismoniy narsalar va hodisalarni ikkilamchi, ideal, ma'naviy, ruhiy narsalar va hodisalar mahsuli deb tushunishi bilan ajralib turadi.

Ikkala yondashuv ham nemis klassik falsafasida faol rivojlantirildi. Masalan, Gegelb individual ongga butun rivojlanish negizi sanalgan mutlaq g'oyaning

pirovard shakllaridan biri sifatida yondashdi. Bu yerda ong tarixan belgilangan faol asos sifatida tushuniladi. Mazkur asosda uning tuzilishi darajalari, xususan, hissiy, mantiqiy, individual va ijtimoiy darajalar farqlanadi.

Byuxner, Foxt, Moleshott kabi faylasuflar onga «vulgar materializm» nuqtai nazaridan yondashadi. Bu yondashuvga ko'ra ong sof moddiy jarayon sifatida talqin qilinadi, uning mazmuni esa inson yeydigan oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi bilan bog'lanar edi. Ular jigardan safro ajralganidek, aqldan fikr ajraladi, deb hisoblagan.

Tabiatshunoslikning rivojlanishi, ayniqsa neyrofiziologiya, biologiya, eksperimental psixologiya sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar so'nggi yillarda bizning ong tabiati haqidagi tasavvurlarimizni sezilarli darajada kengaytirdi. SHunga qaramay, sun'iy intellekt yaratish borasidagi ishlar, «fikrlovchi mashinalar»ning paydo bo'lishi va «axborot portlashi» va kompyuter inqilobining boshqa natijalari, xususan shaxmat o'yinida hatto jahon chempionlarini ham yutishga qodir superkompyuterlarning yaratilishi inson ongining mohiyati va imkoniyatlari haqidagi masala yangidan qo'yilishiga sabab bo'ldi. SHunday qilib, avvalgi savollarga javob olish barobarida yangi muammolar ham paydo bo'ldi. Biroq ular ong muammosini yechishga nisbatan har xil, ba'zan bir-birini istisno etuvchi nuqtai nazarlar va falsafiy yondashuvlar sonini aslo kamaytirgani yo'q.

Ongsizlik. Ongsizlikni (ong osti) tushunish yanada ko'proq qiyinchilik tug'diradi. Uning mavjudligi avstriyalik mashhur psixiatr Z.Freyd (1856-1939) tomonidan XX asr boshida aniqlagan.

Har xil tushlar, gallyutsinatsiyalar, xayoldan ketmaydigan g'oyalar, intuitsiya va shu kabilar ongsizlikning namoyon bo'lish shakllariga misol bo'lishi mumkin. Ular odamlar ruhiyati va xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi, lekin ayni vaqtda bu jarayonlarni boshqarish nuqtai nazaridan ularga bo'ysunmaydi. SHu sababli **ongsizlik ongning muayyan lahzada ong bilan boshqarishga qodir bo'lmagan parchasi**, deyish mumkin³.

³ Каранг: Шрейдер Ю.А. Загадочная притягательность философии (субъективные заметки) // Вопросы философии. 1996. №7. – С.168.

Olimlar insonda onglilik va ongsizlikning o'zaro nisbati to'g'risida so'z yuritar ekanlar, ba'zan ularni okeandagi muztoqqa o'xshatadilar. Bu muztog'ning suv ustidagi ko'zga ko'rinadigan qismi ongga qiyoslanadi, suv ostidagi ko'rinmaydigan qismi esa ongsizlikka o'xshatiladiki, uning miqyosi, shakli, tuzilishi va mazmuni haqida biz bilvosita belgilarga ko'ra faqat taxmin qilishimiz mumkin.

Ijtimoiy ong borlig'i. Ijtimoiy borliqning o'ziga xos xususiyatlariga nazar tashlasak, u borliqning biz yuqorida ko'rib chiqqan boshqa barcha shakllaridan butunlay farq qilishini ko'ramiz. Yaxlit holda olingan ijtimoiy «organizm» hayvonlar podasidan butunlay farq qiladi. Jamiyatning bu o'ziga xos, betakror xususiyati falsafada «ijtimoiy ong», «jamo'a aqli», «ob'ektivlashgan ma'naviyat» va hokazolar deb ataladi. U har xil shakllarda namoyon bo'ladi.

Bu fikrni isbotlash uchun muloqot, kommunikatsiya, odamlarni tarbiyalash va ularning ijtimoiylashuvi vositasi sanalgan tilni ko'rib chiqamiz. Tilning ayrim kishilar ongi, g'oyalari, fikrlari bilan uzviy bog'liqligi aniq, ammo hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan til ijtimoiy tabiatga ega ekanligi ham shubhasizdir. Xuddi shuningdek til - inson nutqi odamlar jamiyatida paydo bo'lgani va faqat shu yerda mavjud bo'lishi mumkin. Uning tashqi og'zaki, ovoz ko'rinishi, mazmuni, teranligi, kengligi, boyligi ko'plab avlodlarning ko'p asrlik o'zaro bog'lanishi va o'zaro kamol topishi mahsulidir. Bunda ayrim inson u yoki bu tilni faqat muloqot jarayonida o'zlashtiradi. Ayni holda umuman til haqida so'z yuritilmoqdaki, u tabiiy ham, sun'iy ham bo'lishi mumkin.

Endi individual va jamoa (ijtimoiy) ma'naviyatining ideallar, me'yorlar, qadriyatlar va tasavvurlarda aks etuvchi o'xshash jihatlari va farqlariga to'xtalamiz. Individual ma'naviy borlig'dan farqli o'laroq, ijtimoiy ma'naviy borlig' haqida uning fan, san'at, din, axloq va umuman madaniyat tarzidagi ko'rinishlariga qarab hukm chiqarishimiz mumkin. Xususan, u yoki bu ilmiy g'oyalarning paydo bo'lishi doim muayyan olimlar bilan bog'liq, ammo fan ijtimoiy hodisa sifatida muayyan shaxslar bilan bog'lanmaydi, zero u ayrim olimlar ilgari surgan nazariy qoidalar majmuidan yuqoriroq darajada turadi. Bosma, audiovizual va boshqa axborot manbalari, tegishli asbob-uskunalar va shu kabilarsiz fanni tasavvur qilish mumkin

emas. U yaxlit hodisa sifatida mustaqil borliqqa ega. Bugungi kunda, kompyuter texnologiyalari inqilobi davrida fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylandi.

San'at sohasi haqida ham shunday deyish mumkin. Qo'shiqlar, raqslar va musiqa o'z muayyan ijrochilariga ega bo'lgan holda, o'zining odatlar, rasm-rusumlar va ideallar ko'rinishidagi nisbatan mustaqil hayoti bilan yashaydi va shu tariqa ijtimoiy makon va vaqtda harakatlanib saqlanishi, takomillashishi va ko'payishi mumkin.

Ijtimoiy ongning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u, individual ongdan farqli o'laroq, o'z «tanasi»ni «tark eta» olmaydi, xuddi shuningdek u o'z «tanasi»dan, ya'ni jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lishi ham mumkin emas. SHu sababli ijtimoiy ong asrlar mobaynida abadiy mavjud bo'lgan, yo'q qilib bo'lmaydigan narsa sifatida qaralgan, uning borlig'i esa butun insoniyat borlig'i yo'q bo'lishi bilan barham topishi mumkin, deb hisoblangan.

Ammo XX asrning o'rtalarida odamlar o'z-o'zini qirg'in qilish vositasi – yadro qurolini yaratdilar va shu paytdan e'tiboran insoniyat o'zining «umrboqiyli»ni yo'qotdi va endilikda u, yashab qolishga harakat qiluvchi ayrim jonli organizm kabi, ijtimoiy hayotni o'z-o'zini qirg'in qilishdan asrab, o'z ijtimoiy borlig'ini saqlash haqida qayg'urishi lozim. SHu bois quyida ongning funktsiyasini o'rganamiz.

Ong falsafiy muammo sifatida. Ratsionalizmdan farqli o'laroq irratsionalizm (irrationalis – nooqilona, ongsiz) borliqni oqilona anglash imkoniyatini cheklaydi, ba'zan esa butunlay inkor etadi. Xususan, neofreydizmning atoqli namoyandalaridan biri K.G.Yung (1875-1961) ongni ilmiy vositalar bilan bilish mumkin emas, deb hisoblagan va unga ta'rif berishga urinishlardan butunlay voz kechib, uni rasmlar va metaforalar yordamida tavsiflash bilangina kifoyalanishni taklif qilgan. Ongni tushunish irratsionalizm ekzistentsializm va neopozitivizm kabi falsafiy oqimlarga ham xosdir.

Irratsionalizmga zid o'laroq, ongni tushunishga nisbatan materialistik yondashuv ongning paydo bo'lishini materiyaning o'zi bilan tushuntirishga intilish,

ayni vaqtda uning tabiat va vaqtdan tashqarida hamda nomoddiy kelib chiqishini inkor etish bilan tavsiflanadi. Bunday qarashlarni asoslash uchun ilmiy va amaliy yutuqlardan doim keng foydalanilgan. Mazkur yo'nalish turli davrlarda sezuvchi, fikrlovchi materiyaning farqi va o'ziga xos xususiyatlari nimada?, degan mushkul savollarga javob izlagan.

Mazkur muammoni to'la va uzil-kesil tushunganlikni da'vo qilmasdan, shuni qayd etish mumkinki, hozirgi zamon fani va *o'zini bevosita yoki bilvosita namoyon etuvchi ong inson miyasining ish jarayoni hisoblanadi, uning funktsiyasi sifatida amal qiladi va undan ayri holda namoyon bo'lmaydi*, deb aytish imkonini beradi.

Hozirgi zamon fani inson miyasida yuz milliarddan ortiq asab hujayralari uzluksiz ishlashini, ularning har biri o'z navbatida boshqa o'n ming hujayra bilan axborot va signallar almashishini aniqlagan. Inson miyasi, garchi uning massasi tana massasining atigi ikki-uch foizini tashkil etsa-da, organizm ovqatdan oladigan butun energiya yigirma foiziga yaqinrog'ini iste'mol qiladi.

Mazkur o'ta murakkab biologik «komp'yuter» ishini tadqiq etish mumkin bo'lib, bu bilan maxsus fanlar shug'ullanadi, ammo falsafa bunday tadqiqotlarni e'tiborga olib, o'z oldiga birinchi navbatda ongning tabiati qanday, degan savolga uning vujudga kelishi va genezisini o'rganish yo'li bilan javob berish vazifasini qo'yadi. Bunda falsafa inson miyasining funktsiyasi sanalgan ongni o'rganish bilangina cheklanmaydi, balki masalani kengroq qo'yadi: ongning boshqa shakllari, xususan o'zga moddiy tuzilmalardan paydo bo'lgan ong shakllari mavjud bo'lishi mumkinmi?, degan savolga javob izlaydi. SHuningdek, falsafa ongning materiyadan oldin paydo bo'lgan yoki u bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan mohiyat hisoblanishini nazarda tutadigan ta'limotlarni ham istisno etmaydi.

SHunga qaramay bugungi kun nuqtai nazaridan inson aqli tushunishga qodir bo'lgan borliqqa tayanadigan falsafiy g'oyalar ishonchliroq xususiyat kasb etadi. SHu ma'noda ong haqida hozircha faqat inson miyasi faoliyati munosabati bilan aniq so'z yuritish mumkin.

Yangi tabiiy-ilmiy ma'lumotlar olinishi ongning tabiatini tushunishga nisbatan materialistik yondashuvlar mavqeini kuchaytirmoqda. Ammo, kezi

kelganda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bu o'ta murakkab masala xususida falsafaning materialistik yo'nalishi vakillari o'rtasida ham yagona fikr mavjud emas. Masalan, XX asrning 50-yillari oxirida AQSH va Avstraliyada ilmiy materializm vujudga keldi. U «vulgar materializm» an'anasini davom ettirib, mohiyat e'tibori bilan ma'naviy hodisalarni miyaning fizik holatlari bilan tenglashtirdi (R.Rorti, G.Feygl, D.Armstron va boshqalar). 70-yillarda AQSH va Kanadada yana bir falsafiy yo'nalish – «emerjentistik materializm» shakllandi (ingl. emerge – yuzaga chiqish, paydo bo'lish, yuzaga kelish). Uning vakillari – M.Bunge, J.Margolis va boshqalar individul ruhiyat va ongning evolyutsion kelib chiqishi g'oyasini himoya qilib, ruhiy hodisalarni jismoniy hodisalarga bog'lashga qarshi chiqdilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ongning materialistik kontseptsiyasi hozircha eng mukammal va hozirgi zamon tabiatshunosligi talablariga ko'proq darajada javob beradigan falsafiy kontseptsiya bo'lib qolmoqda. Ayni shu sababli unga quyida mufassalroq to'xtalamiz.

Ogning materialistik kontseptsiyasi. Materialistlar ongning paydo bo'lishini faqat notirik materiyadan tabiiy yo'l bilan vujudga kelgan tirik materiyaning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sifatida tushuntirishga harakat qildilar va ong tabiatining talqiniga «in'ikos» tushunchasini kiritadilar. Uni materiyaning umumiy xossasi deb hisoblab, ongni in'ikosning oliy tipi deb tavsiflaydilar va ongning genezisiga tabiiy-tarixiy nuqtai nazardan yondashib, uning paydo bo'lishini mehnat va til bilan bog'laydi.

Bu nazariya ob'ektiv dunyoning barcha ob'ektlari, jarayonlari va hodisalari muttasil o'zgarishda bo'lishi, shuningdek bir-biri bilan universal o'zaro bog'lanish qilishi va o'zaro ta'sirga kirishishini e'tirof etadi.

Bunday o'zaro ta'sirlar natijasida ayrim jismlar va hodisalar boshqa jismlar va hodisalarga ta'sir ko'rsatib, ularda tegishli o'zgarishlar yasash va ularni muayyan tarzda o'zida gavdalantirish orqali ularda go'yoki o'z «izi»ni qoldiradi.

In'ikos - narsa va hodisalarning o'zaro ta'sirlashuvi asosida hosil bo'ladigan hodisa, holat, jarayon va o'zgarishlarni ifodalaydi⁴.

⁴ Қаранг: Фалсафа қомусий луғат.Назаров Қ таҳрири остида – Т.: Шарқ, 2004. –Б.172.

Tirik tabiatda in'ikos nisbatan sodda shakllari va passiv xususiyati bilan tavsiflanadi. Ya'ni, sirtidan ta'sirlanish natijasida narsalar va hodisalar o'z mexanik, fizik yoki kimyoviy xususiyatlarini o'zgartiradi, lekin mazkur o'zaro ta'sirga javoban hech qanday faollik ko'rsatmaydi. Bu yerda qumdagi oyoq izlari yoki qadimgi organizmlar va o'simliklarning tog' jinslaridagi izlari, fotosuratlar, ko'zgudagi aks va shu kabilar misol bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Hayot paydo bo'lgan paytdan e'tiboran in'ikosning butunlay boshqacha (biologik) shakli – ta'sirlanuvchanlik barcha jonli narsalarning atrof muhit ta'siriga munosabat bildirish qobiliyati sifatida vujudga keldi. Bu qobiliyat faqat sirtidan ta'sirlarga nisbatan namoyon bo'ladi. Jonli organizmlar evolyutsiyasining yuqoriroq darajasida (hayvonot dunyosi – fauna vujudga kelishi bilan) ta'sirlanish qobiliyati butunlay boshqa xossa – sezuvchanchanlikka o'tadi. Bu endi in'ikosning ruhiy shakli bo'lib, u organizmlarda nerv sistemasi va ruhiyatning elementar shakllari paydo bo'lishi natijasida vujudga keladi. Sezuvchanlik organizmlarning narsalarning ayrim xossalari sezgilar tarzida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi.

Sezgilar esa, o'z navbatida, yuksak darajada uyushgan hayvonlarda, masalan umurtqali hayvonlarda in'ikosning yanada murakkabroq shakllari, xususan idrok etish va tasavvur qilish qobiliyatlari paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi. Bu in'ikosning ob'ektiv dunyo narsalari va hodisalari miyada ularning ideal nusxalari ko'rinishida aks etadigan darajasidir. Bu yerda «aqli» hayvonlar miyasi imkoniyatlarining chegarasi namoyon bo'ladi. Garchi ular o'zini qurshagan dunyoning ideal obrazlarini tasavvur qilib, shu obrazlarga ko'ra, masalan, o'z egalarini tanisalar-da, ularning miyasi ideal obrazlar bilan fikrlash amallari tarzidagi maxsus ishni bajarishga qodir emas. Bu vazifani hal qilishga yuqoriroq darajadagi miya qodir bo'lib, unga faqat insongina egadir.

SHunday qilib, biologik in'ikos sezish, idrok etish va tasavvur qilish kabi hissiy shakllarda amalga oshiriladi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bu yerda fikrlash jarayonida namoyon bo'ladigan ong mavjud emas. Ong borliqni aks ettirishning yuqoriroq darajasi bo'lib, faqat ijtimoiy sohada mavjud bo'lishi mumkin

va inson miyasida avvalo abstrakt fikrlashning tushunish, mulohaza va mushohada yuritish kabi ideal shakllarida amalga oshiriladi. Inson ideal obrazlarni o'z ongida umumlashtirib, shu tariqa ob'ektiv borliqni tushunchalarda (kategoriyalarda) aks ettiradi. Ularning o'rtasida mantiqiy bog'lanish o'rnatib, turli narsalar, hodisalar va shu kabilarning mohiyatini to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettirish orqali ular haqida u yoki bu xulosaga keladi. Mushohada yuritib inson narsalar va hodisalarni biladi va shu tariqa borliqni ongning muhim xususiyati sanalgan abstrakt fikrlash orqali aks ettiradi.

In'kosning oliy shakli sifatida ongning paydo bo'lishi «aqli odam» (homo sapiens)ning shakllanish jarayoni bilan bog'lanadi va avvalo mehnat faoliyati bilan belgilanadi. Mehnat qilish qobiliyati ruhiyatning rivojlanishida ulkan sakrash bo'ldi. Maymun anatomiyasi va fiziologiyasidagi evolyutsiya inson paydo bo'lishiga zamin hozirlagan bo'lsa, tabiati sof ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan mehnat mazkur jarayonning eng muhim omiliga aylandi.

Til va ong. Ong nafaqat insonning mehnat faoliyati, balki odamlar o'zaro bog'lanishi va muloqotining universal vositasi – til bilan ham uzviy bog'liqdir. Aniq, tushunarli nutqning paydo bo'lishi, nafaqat ijtimoiy munosabatlar, balki insonning o'zi, uning ongi rivojlanishining butunlay yangi va qudratli vositasiga aylandi, chunki biologik omil (irsiyat)dan tashqari odamlarda til yordamida yanada qudratliroq omil – tajriba va ijtimoiy muhim axborot berishning ijtimoiy usuli paydo bo'ldi. Bu turli avlodlar va tarixiy davrlarning bilimlari, an'analari, madaniyatlarining vorisiyligini ta'minladi, so'nggi zikr etilgan hol esa, o'z navbatida, tilning yanada rivojlanishi va takomillashuviga turtki berdi va zamin hozirladi.

SHunday qilib, mehnat, ong va til bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'landiki, ulardan har birining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini bir-biridan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Bunda *til insonning fikrlash faoliyati amalga oshuvchi muhim shakl hisoblanadi, mehnat esa, o'z navbatida, tilni rivojlantiradi va boyitadi.*

Xullas, individning ongi ijtimoiy belgilangandir, ya'ni u faqat jamiyatda

shakllanadi va undan tashqarida paydo bo'lishi mumkin emas. U nafaqat kelib chiqishiga ko'ra, balki borliq usuli jihatidan ham ijtimoiy hodisa hisoblanadi, chunki odamlarning xulq-atvori, harakatlarida namoyon bo'ladi, ularning faoliyat yo'nalishini belgilaydi.

Fikrlovchi odamning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'z ongi yordamida o'zini, o'zi yashayotgan muhitni tahlil qilib, o'z «Meni» haqida tasavvur hosil qiladi va o'zini bu borliqdan ajratib, shu tariqa o'zligini shakllantiradi. Emotsiyalarga boy bo'lgan va qadriyatlarga qarab mo'ljalluvchi inson ongi faol asos sifatida amal qiladi, chunki u borliqning passiv in'ikosi emas, balki fikrlash faoliyatining izchil, nazorat qilinadigan va boshqariladigan jarayoni hisoblanadi. SHu ma'noda u ijodiy faoliyat sifatida ham namoyon bo'ladi, zero u nafaqat borliqni aks ettiradi, balki uni o'zgartirib, borliqning yangi shakllarini yaratadi.

Bu yerda har qanday ijodkor faoliyatining negizi, shuningdek inson yaratgan va yaratayotgan «ikkilamchi» tabiatning paydo bo'lish asoslari mujassamlashadi. Aynan inson ongining faol va ijodiy xususiyati uni sun'iy intellekt manbalari – «aqli», «fikrlovchi» mashinalar bilan bir qatarga qo'yish imkonini bermaydi. Garchi ular axborotga ishlov berish borasida insondan ancha ustun va hatto ularning ishida «ijod» unsurlari ham namoyon bo'lsa-da, lekin ular mashinalar bo'lib qoladi. Ularning ishi ma'naviyatdan mahrum va umuman olganda odamlarning ongli faoliyati bilan tenglasha olmaydi. Bu faoliyat oldindan belgilangan har qanday dasturdan boyroq, zero madaniy jarayondan uning faol asosi sifatida o'rin olgan va asosan madaniyat bilan belgilanadi.

Hozirgi zamon falsafasi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari

Hozirgi zamon falsafasi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari: Neotomizm, pragmatizm, ekzistentsializm, maxizm, pozitivizm, neopozitivizm oqimlarida o'z aksini topdi.

Diniy falsafadagi evolyutsiya asosan neotomizm, pozitivizm va neopozitivizmlar oqimlarida o'z ifodasini topdi. Diniy falsafadagi evolyutsiyaga asosan o'sha antik davrdan to XX asrga mavjud bo'lgan diniy-falsafiy bilim sabab bo'ldi, chunki O'rta asr falsafasining markazida xudoni turishi, nemis klassik

falsafiy fikrlari idealistik xarakterga egaligi va XX asrda kelib neokantchilik, neogegelchilik, neotomizm oqimlarini vujudga kelishi bu diniy falsafada evolyutsiyani vujudga kelganligidan dalolat beradi.

Neotomizm. Neotomizm XX asr o`rtalarida nomarkscha falsafa olamida katta ta`sir kuchiga ega bo`lgan falsafiy ta`limotdir. Neotomizm XXIII asr frantsuz dindor faylasufi Foma Akvinskiyning (1225-1274) falsafiy-diniy ta`limotini XX asr voqeligida tiklashga urinuvchi falsafadir.

Fan va dinni birlashtirish, ilmiy yutuqlardan xudo qudratining abadiy va umumiyligini isbotlash uchun foydalanishga urinish-neotomizm falsafasi uchun tipik hodisadir.

Neotomistlar ilmiy bilishning chegarasi bor, deb atashadi, Ularning fikricha, ilmiy bilishning predmet va hodisalar olamidir, ilmiy bilishning vazifasi xudoni majudligini asoslab berishdan iborat, deb hisoblaydilar. Neotomistlar fikriga muvofiq, inson aqliy bilishning manbai-tafakurdir. Olamdagi barcha mavjudotlar yaratuvchisi xudo bo`lganidek, tafakkurni ham xudo yaratgan.

Pragmatizm. XX asrda eng ko`p tarqalgan falsafiy ta`limotlardan biri pragmatizmdir. Uni ta`limotlarini Amerikalik faylasuflar Pirs(1839-1914) va Jemslardir. Pragmatizm XIX asrning 70 yillarida vujudga keldi. Pragmatizm grecha- pragma degan so`zdan olingan bo`lib –harakat degani. Pragmatizm harakat falsafasi demakdir. Pragmatizm tarafdorlari klassik falsafasini hayotdan ajralib qolganligi uchun qattiq tanqid qiladilar, undagi fikrlarning to`g`ri abstrakt turmushdan ajralib qolgan g`oyalar deb tushuntirdilar. Pragmatizmning tushuntirishicha dunyo o`z-o`zidan mavjud emas, u insondan tashqarida yashamaydi, olamdagi barcha hodisalar, voqealar insonga keltirgan foydasi bilan o`lchanishi lozim. «Foyda» barcha qarashlarning asosi bo`lmog`i lozim deb tushuntiradi. Foyda esa barcha narsalarning asosi. Pragmatizm falsafasiga muvofiq olamdagi hodisa va voqealar insonda foyda keltirgani uchun sub`ekt manfaatidan tashqarida bo`lmasligi kerak. Pragmatizm ob`ektiv olamning inson tajribasiga bog`lab qo`yadi. Shaxs praktikasi bilan jamiyat praktikasi orasidagi chegara qo`yadi.

SHozirgi zamon falsafasining eng muhim xususiyati fan-texnikaning jadallik bilan rivojlanib borganligi bilan ajralib turadi. Bu esa insonning turmush tarzining barcha sohasida kirib bordi. Bunday holat esa falsafaga o'z o'rnini topdi. Bir gruppа faylasuflar ilmiy-texnikani turmushga ko'proq ishtirok etishining Stseintizm deb atalsa ya'ni Stseintizmning eng ko'p tarqalgan oqimi texnitsizm bo'lsa, unga qarshi Antistseintizmning eng ko'p tarqalgan oqimi Antitehnitsizmdir. Stseintizmning tushuntirishicha asosan texnika xukmron bo'lishi kerak. Turmushni barcha sferalariga professional kompanetli kishi hukmron bo'lishi lozim degan g'oyani ilgari so'rgan bo'lsalar, Antistseintizm esa bu g'oyaga qarshi, fan va texnikani yutuqlarini haddan ortiq ilohiylashtirish, uni ulug'lash, haddan ortiq foydalanish insoniyat boshiga dahshatli falokotlarni olib kelishi mumkin. Stseintizm g'oyalarini targ'ibot qilishda Z.Dyurkgeym, M.Veberlar, U.Rostau, D.Bellardir. Antistseintizmning Uells, Fran, Sipkler, Lokdonlardir.

Ekzistentsializm. XX asrda eng ko'p tarqalgan falsafiy ta'limotlardan biri- Ekzistentsializmdir. Ekzistentsializm falsafasini buyuk namoyondalari, daniyalik olim Kerkegor, Germaniyali faylasuflar Shopengaur, F.Nitsshe, Shpengler, Rossiyalik faylasuf Berdyaev, Shestovlar asarlarida o'z ifodasini topgan.

Ekzistentsializm falsafasi olamni bilishda eng avvalo inson borlig'ini bilmoq zarur degan fikrni ilgari suradi. Ekzistentsializm –lot. so'zdan olingan bo'lib «mavjudlik», «mavjud bo'lmoq» ya'ni «insonni mavjudligi» degan ma'noni bildiradi.Ekzistentsializm falsafiy ta'limotining o'zagini «mavjudlik» yoki «mav-jud bo'lmoq» kategoriyasi tashkil etadi.

«Ekzistentsiya» deganda ekzistentsialist faylasuflar kishilarni har lahzada xayot va o'lim bo'sag'asida kechadigan ichki kechinmalari yoki «borliqda mavjudligi» jarayonini tushunishadi.Ekzistentsialistlar fikricha kishi o'zini «ekzistentsiya-sini» (mavjudligini) chuqur ma'naviy ziddiyat parokandalik holatidagina anglay oladi.

Ekzistentsializm falsafasi olg'a surgan asosiy kontseptual g'oyalardan

biri-inson borlig`ini bilish g`oyasidir. Boshqacha aytganimizda ekzistentsializm falsafasi, olamning haqiqiy manzarasini bilmoq uchun eng avvalo, inson borlig`ini bilmoq darkor degan g`oyani olg`a so`radi. Bunday g`oyani birinchilardan bo`lib nemis ekzistentsializm asoschisi Martin Xaydeger «borliq va zamon» asarida olg`a so`rgan. Ekzistentsializm falsafasining yana bir eng muhim g`oyalaridan biri inson olamdagi tirik mavjudotlar ichida o`ta noyob ekanligini ta`kidlaydi. Ekzistentsializm XX asrdagi eng muhim g`oyalaridan biri-hayot va mamot g`oyasidir.

Maxizm. Maxizm sub`ektiv idealizmining tipik ko`rinishidir. Maxizm falsafasi XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida tabiatshunoslik ilmida sodir bo`lgan ulkan ilmiy kashfiyotlarni yangicha ilmiy tafakkur tahlili qiyinchiliklaridan sub`ektiv idealizmni yanada oqlash ilmiy asosga ega ekanligini isbotlash uchun harakat qildi. Maxizm falsafasi Rossiyada ham qator tabiatshunos olimlar tomonidan xayrihohlik bilan kutib olindi.

Pozitivizm. Pozitivizmning asl ma`nosi va da`vosi materializmdan ham, idealizmdan ham farq qiluvchi, hatto ulardan ustun bo`lgan “uchunchi” falsafiy oqimni yaratish edi. “Pozitivizm” inglizcha “positive” ya`ni “ijobiy” degan ma`noni beradi. Bunday da`vo yuqorida biz o`rgangan maxizm falsafasi uchun ham xos bo`lgan. Shuning uchun ham maxizm aslida pozitivizmning bir ko`rinishi desak bo`ladi. Chunki ular shakllan turlicha bo`lishsada, mazmunan bir-biriga o`xshash ta`limotdir.

Neopozitivizm. Neopozitivizm, ya`ni yangicha pozitivizm XX asr nomarkscha falsafasining burjua mamlakatlarida eng ko`p tarqalgan va ilmiy-ma`naviy muhitda katta ta`sir kuchiga va mavqeiga ega bo`lgan falsafiy oqimi bo`lib, u pozitivizmning tarixan uchunchi ko`rinishidir. Neopozitivizm falsafasi asosan uchunchi ko`rinishda namoyon bo`ladi. Birinchi ko`rinishi- «Mantiqiy pozitivizm» nomi bilan mashhur bo`lib, «Vena tugaragi»ning ilk shakllanishi davrlari bilan bog`liqdir. «mantiqiy pozitivizm»ning ma`nosi shundaki, neopozitivistlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllana boshlagan yangi fan sohalari-matematik mantiq, semiotika va boshqa formal fan sohalariga ortiqcha

baho berishadi.

Neopozitivizmning ikkinchi tarixiy ko`rinishi “Lingvistik tahlil” falsafasi nomi bilan mashhurdir. Agar “ mantiqiy pozitivizm”da neopozitivistlar asosiy e`tiborini simvol va belgilarni mantiqiy ziddiyatlaridan xalos etishni, ilmiy bilishning matematik mantiq va matematika printsiplari kabi ixcham va aniq atamalarga ko`chirishga da`vat etishgan bo`lsa, “lingvistik tahlil” falsafasida esa ular ilmiy “til”ni kundalik turmush “tili” darajasiga yaqinlashtirishni asosiy maqsad qilib qo`yishdi.

Neopozitivizmning yana bir ko`rinishi konventsionalizm va fizikalizmdir. Konventsionalizmning ma`nosi shundan iboratki unda guyoki ilmiy tadqiqot uchun qo`llaniladigan atamalar “konventsiya” (ya`ni kelishuv, shartlashuv) yordamida fanda butkul “erkin” qabul qilinadi, degan tezis asosiy printsiplari qilib olindi.

Xullas, biz yuqorida sanab o`tgan asosiy yo`nalishlar hozirgi zamon falsafasi taraqqiyotiga o`z hissalarini qushib keldilar.

Mustahkamlash uchun savollar

- 1. XX asr falsafasining xarakterli xususiyatlari nimalarda ko`rinadi?*
- 2. Ekzistentsial falsafaning mohiyati nimadan iborat?*
- 3. Neopozitivizmning asosiy xususiyatlari qanday?*
- 4. Strukturalizmning mohiyati nima?*
- 5. Germeneytika nima?*
- 6. Stsientizm va antistsientizm nima?*

Asosiy adabiyotlar:

- 1. Skirbekk G., Gilye N. Falsafa tarixi. Toshkent, 2002, 17-168-betlar.*
- 2. Falsafa. Q. Nazarov tahriri ostida. Toshkent, 2000, 59-80-betlar.*
- 3. Filosofiya. Pod red. V.P. Koxanovskogo.- Rostovna-Donu, 1999, s. 37-47.*
- 4. Falsafa. E. Yusupov tahriri ostida. Tosh-kent, 1999, 47-63-betlar.*

5. *Osnovo` filosofii. Pod. red. M.Axmedovoy i V. Xana. Toshkent, 1998, s.32-65.*
6. *Rahimov I. Falsafa. Qisqacha konspekt. Toshkent, 1998, 9-23-betlar.*
7. *Spirkin A.G. Filosofiya. Moskva, 1998, s. 18-81.*
8. *Filosofiya. Pod. red. V. D. Gubina, T. Yu. Sidorinoy, V. P. Filatova. Moskva, 1996, s. 6-53.*
9. *Choriyev A.Ch. Inson falsafasi. Inson to`g`risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. Birinchi kitob. Toshkent, 1998, 7-29-betlar.*
10. *To`lenov J.T., G`ofurov Z.G`. Falsafa. Tosh-kent, 1997, 34-48-betlar.*
11. *Nemirovskaya L. Z. Filosofiya. Moskva, 1996, s. 19-98.*
12. *Radugin A. A. Filosofiya. Kurs lektsiy. Moskva, 1996, s. 36-68.*

O`zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. M. Xayrullayev tahriri ostida. Toshkent, 1995, 5-8-betlar.

Qushimcha adabiyotlar:

1. Основы философии. Т. Мехнат 2004 y. 7-17 betlar.
 2. www.bilim.uz.
 3. www.philosophy.ru.
 4. www.filosofiya.ru.
 5. www.philosophy.nsc.ru.
 6. <http://philosophy.albertina.ru>.
 7. www.philosophy.com.
 8. www.gov.uz - Xukumat sayti
 9. www.press-service.uz - Prezident sayti
 10. www.edu.uz - Vazirlik sayti (ruyxatdan utish)
 11. www.ziyo.edu.uz - Vazirlik sayti
 12. www.performance.edu.uz - Vazirlik sayti
 13. www.tseu.fan.uz - TDIU sayti
 14. www.tseu.uz - TDIU sayti
- www.teuphil.narod.ru - Falsafa kafedrasi sayti

3-mavzu: Sistema, element, struktura va funktsiya falsafiy tushunchalar sifatida

Ma'ruza rejasi:

- 1.Falsafada asosiy tushuncha – kategoriya muammosi**
- 2. Yakkalik, xususiylik va umumiylik**
- 3. Sistema, element struktura.**

Kategoriya tushunchasi va tasnifi. Kategoriya nima? Bu savolga javob berish uchun biz qanday fikrlashimiz va o'z fikrlarimizni boshqa odamlarga qanday yetkazishimizni ko'rib chiqamiz. Biz tushunchalar, mulohazalar va mushohadalar ko'rinishida fikrlaymiz. Fikrlash jarayonining asosiy materiali tushunchalar bo'lib, predmetlar o'z umumiy va muhim belgilarida ular orqali fikrlanadi. Tushunchalar yordamida biz voqea va hodisalar ma'nosini anglaymiz, ularning o'zimiz uchun ahamiyatini aniqlaymiz. Tushuncha va tushunish o'zakdosh so'zlardir, shu sababli bizning dunyoni tushunishimiz, dunyoga ongli munosabatimiz inson ixtiyorida mavjud bo'lgan tushunchalar apparati bilan belgilanadi. Biz o'z fikrlarimizni so'zlar yordamida ifodalaymiz. So'z – fikr va dunyo o'rtasidagi vositachi. U fikrlash omili, fikrni ifodalash, uni boshqalarga yetkazish vositasi hisoblanadi. So'z boyligimiz qancha katta bo'lsa, bizning dunyoni anglash borasidagi imkoniyatlarimiz shuncha keng bo'ladi. Ob'ektiv borliqni aniqroq va teranroq aks ettirish uchun inson fikrlash mantiqiy vositalarining muayyan majmuini, tushunchalarning muayyan doirasini yaratadi. Tushuncha – bu shunday bir fikrki, unda narsaning takrorlanuvchi xossalari, aloqalari va tomonlari aks etadi. Tilda tushuncha so'z bilan ifodalanadi. Masalan, «talaba», «universitet», «auditoriya» so'zlari ma'lum darajada umumiy, abstraktdir. Ammo shunday tushunchalar ham borki, ularda shunchaki umumiy emas, balki o'ta umumiy narsalar va hodisalar qayd etiladi. Bunday tushunchalar juda yuqori darajadagi mavhumlashtirish (muayyandan uzoqlashish) mahsuli hisoblanadi.

Mana bunday mavhumlashtirishning taxminiy yo'li: «bu atirgul» («bu» so'zi bilan aniq belgilangan); «atirgul» (bu yerda «bu» ishorasi

mavhumlashtirilgan); «atirgul» soʻzi «bu atirgul» iborasidagidan umumiyroq narsani qayd etadi. SHundan soʻng bu iboraga «gul» soʻzini qoʻshamiz va u amalda mavjud barcha gullarni qamrab oladi. SHunday qilib biz gullarning muayyan rang-barangligidan fikran uzoqlashamiz, chunki eʼtibor barcha gullarda mavjud boʻlgan umumiy jihatga qaratiladi. «Oʻsimlik» soʻzi butun oʻsimliklar dunyosini oʻz ichiga oladi va yanada kengroq abstraktsiya hisoblanadi. Mavhumlashtirish (muayyandan uzoqlashish) yoʻlida harakatni davom ettiramiz. Bu yoʻlda «tirik» tushunchasi yanada umumiyroq boʻladi, chunki oʻsimliklar dunyosinigina emas, balki hayvonot dunyosini ham oʻz ichiga oladi. «Tiriklik» tushunchasi mavhumlashtirishning yanada yuqoriroq darajasida turadi. Bunday tushunchalar kategoriyalar (yunon. – asos, umumiy baho) deb ataladi.

Fikr bizning dunyo bilan oʻzaro aloqa qilish tajribamizni u yoki bu darajada umumlashtiradi. Dunyo oʻz xossalari, narsalari va munosabatlarining rang-barangligi jihatidan cheksiz darajada boydir. Bizning soʻz boyligimiz oʻzimiz yashayotgan dunyodan qashshoqroqdir. Fanda yangi kashf etilgan hodisalarni ifodalash uchun mos keladigan atamani topish zaruriyati tez-tez yuzaga kelishi tasodifiy hol emas. Bizning dunyo haqidagi tasavvurlarimizni ifodalovchi soʻzlarning maʼno boyligi qancha aniq boʻlsa, tafakkurimiz shuncha teranroq boʻladi, bizning tushunchalar apparatimiz qancha keng boʻlsa, fikrlash qobiliyatimiz shuncha komilroq boʻladi.

Har qanday tushuncha muayyan narsalar va hodisalarning jamuljam ifodasi hisoblanadi. Ammo uning hajmi, yaʼni unda fikrlangan narsalar va hodisalar miqdori har xil boʻladi. Masalan, har qanday xalqning tarixan vujudga kelgan tilida odamlar kundalik hayoti va faoliyatining tajribasi qayd etiladigan va anglab yetiladigan tushunchalar mavjuddir. Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi tabiiy til soʻz boyligining kengayishi va boyishiga turtki beradi. Fan va falsafaning rivojlanishi alohida maqomga ega boʻlgan va bilish jarayonida maxsus funktsiyalarni bajaradigan tushunchalar shakllanishiga olib keldi. Bu tushunchalar kategoriyalar deb nomlandi. Kategoriya (yunon. kategoria – taʼrif, mulohaza) – borliq hodisalari va unda hukm suruvchi munosabatlarning muhim, tipik mazmunini oʻzida aks

ettiradigan o'ta keng tushuncha. SHunday qilib, tabiiy til tushunchalari fan va falsafa kategoriyalari bilan tinimsiz boyib boradi. Kategoriyalarni tasniflash, borliqning turli shakllari haqidagi falsafiy tasavvurlarga muvofiq amalga oshiriladi. Odatda fan kategoriyalar va, falsafa kategoriyalar farqlanadi.

Fan kategoriyalari tabiiy til tushunchalaridan ancha farq qiladigan so'zlar bilan ifodalanadi. Aksariyat hollarda ular qadimgi yunon yoki klassik lotin tilidan o'zlashtiriladi, ba'zan ular mazkur hodisani kashf etgan olimning ismi bilan ataladi. Ilgari ma'lum bo'lmagan hodisani ifodalash uchun sun'iy tarzda yaratilgan so'zlar – neologizmlar ham ancha ko'p uchraydi. Tabiiy tildan farqli o'laroq, fan tushunchalari va kategoriyalari atamalar (terminlar) hisoblanadi, ya'ni erkin talqinga yo'l qo'ymaydigan aniq belgilangan hajm va mazmunga ega bo'ladi.

Har qanday fan borliqning muayyan tomonlarini o'rganar ekan, albatta o'z kategoriyalar apparatini shakllantiradi. Matematika «son», «differentsial», «integral» kabi kategoriyalar bilan bog'liq. Biologiyada «tur», «irsiyat», «o'zgaruvchanlik» kabi kategoriyalar mavjud. Ammo, muayyan fanlarning kategoriyalari ma'lum darajada umumiy bo'lsa-da, borliqning ayrim sohalaridagina qo'llaniladi va mazkur sohalarga xos bo'lgan aloqalar va munosabatlarni aks ettiradi

Xususiy ilmiy kategoriyalar alohida olingan xususiy ilmiy anlarda qo'llaniladigan, mohiyat nuqtai nazaridan boshqa fanlarda qo'llanilishi mumkin bo'lmagan kategoriyalardir. Masalan, fizika, kimyo geologiya, geografiya fanlari kategoriyalari xususiy xarakterga ega

Falsafiy kategoriyalar fan kategoriyalaridan butunlay farq qiladi. Falsafiy kategoriyalarning muhim xususiyati, ular o'ta keng tushunchalar ekanligidir. Ayni shu sababli falsafiy kategoriyalar hech qachon hajman cheklangan tabiiy til tushunchalari darajasida soddalashtirilishi mumkin emas. Tushunchalar sifatida kategoriyalar fikrlashning zaruriy shakllari hisoblanadi. O'ta keng tushunchalar sifatida ular universal qo'llanish va butun olamni tavsiflashga da'vogar bo'lishi mumkin. SHu boisdan falsafiy kategoriyalar dunyoning manzarasini yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladiki, bu, umuman olganda, falsafaning bosh vazifasi hisoblanadi. Har qanday tushunchalar kabi, kategoriyalar instrumental funktsiyani

bajaradi, fikrlash omili va vositasi sifatida amal qiladi. SHuningdek falsafiy kategoriyalar insonning turli hodisalarni bilish va o'zlashtirish usuli sifatida ham instrumental funktsiyani bajaradi. Falsafiy kategoriyalar ilmiy bilishning muayyan metodologiyasini, umuman borliqni, ayniqsa inson borlig'ini tushunish me'yorlarini yaratish orqali normativ funktsiyani ham bajaradi. Kategoriyalarning ahamiyati va universalligi shu bilan belgilanadiki, bilish natijalari muqarrar tarzda kategoriyalarda qayd etiladi, kategoriyalar shakl-shamoyilini kasb etadi. Ular fan tarkibining zaruriy qismi hisoblanadi. Zero fan ob'ekti faqat kategoriyalar yordamida fikrlanishi va tushunilishi mumkin.

Falsafaning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonida falsafiy bilish predmetining o'ziga xosligini va falsafiy tafakkur xususiyatlarini aks ettiruvchi kategoriyalar tizimi mavjud. Ularni mazmunan talqin qilish dunyoqarashning shakllanish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, fan, falsafa va umuman ma'naviy madaniyatning rivojlanishiga qarab o'zgarib boradi. Falsafiy kategoriyalar tarkibi ham kengayadi. Fanning aksariyat kategoriyalari falsafiy maqom kasb etadi. Ilgari mavjud bo'lmagan yangi jarayonlar va hodisalar vujudga kelishi bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish tegishli tarzda falsafiy idrok etiladiki, bu falsafaning tushunchalar apparatini yanada boyitadi. Falsafiy tushunchalar va kategoriyalar bilan ish ko'rish mahoratini o'zlashtirish talabaning falsafiy madaniyatini, umuman fikrlash madaniyatini shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Falsafiy kategoriyalar – borliqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo'llaniladigan o'ta keng tushunchalar majmuidir. Falsafiy kategoriyalar tizimida shartli ravishda uch muhim guruhni farqlash mumkin.

1. Falsafiy kategoriyalarning birinchi va eng muhim guruhi – har qanday falsafiy muammolarni tahlil qilishda qo'llaniladigan umumiy kategoriyalar. Bular borliq kategoriyalaridir (falsafiy adabiyotlarda bu kategoriyalarni dialektika kategoriyalari deb nomlash odat tusini olgan).

2. Ikkinchi guruhni falsafaning turli bo'limlariga tegishli bo'lgan maxsus kategoriyalar tashkil etadi. Masalan, ontologiya borliq va yo'qlik, substantsiya,

dunyoning birligi, materiya, ong, makon, vaqt, harakat kabi kategoriyalar mazmunini aniqlaydi va muayyan tarzda talqin qiladi. Naturfalsafa, gnoseologiya, antropologiya, aksiologiya, ijtimoiy falsafa, globallashuv falsafasi ham o'z kategoriyalar apparatiga egadir.

3. Uchinchi guruhni maxsus falsafiy fanlar: mantiq, axloq (etika), estetika kategoriyalari tashkil etadi. Masalan, axloq fanida falsafiy bilimning ayni shu sohasi va falsafaning axloq bilan turdosh bo'limlari – antropologiya, ijtimoiy falsafa, aksiologiyaga xos bo'lgan kategoriyalar tizimi (yaxshilik va yomonlik, sha'n va qadr-qimmat, hayot ma'nosi, baxt va boshqalar) vujudga kelgan. Tushunchalar, mulohazalar, mushohadalar, dalillash va hokazolar mantiq kategoriyalari hisoblanadi. Estetikada go'zallik va xunuklik, fojeaviylik va kulgililik, ulug'vorlik va tubanlik kabi kategoriyalar qo'llaniladi. Biz esa falsafaning umumiy kategoriyalarini ko'rib chiqamiz.

Falsafa kategoriyalari muayyan fanlarning kategoriyalaridan ancha farq qiladi. Bu farq shundan iboratki, dialektika kategoriyalari ob'ektiv dunyo hodisalari turkumlarining muhim xossalari va aloqalarinigina emas, balki barcha moddiy jarayonlarga xos bo'lgan eng umumiy xossalar va aloqalarni aks ettiradi. SHunday qilib, dialektika kategoriyalari ob'ektiv dunyoni ideal aks ettirishning o'ta keng shakllari bo'lib, ular voqelikni bilish va ma'naviy-amaliy o'zgartirishning asosiy printsiplari bo'lib xizmat qiladi.

Dialektika kategoriyalarini ikki turga ajratish mumkin: substantcion kategoriyalar va munosabatdosh kategoriyalar. Substantsion kategoriyalar – bu boshqa kategoriyalardan qat'iy nazar, alohida-alohida qo'llaniladigan kategoriyalar. Bunday kategoriyalar qatoriga «borliq», «materiya», «harakat», «rivojlanish», «makon», «vaqt», «ziddiyat» va hokazolar kiradi. Ular ob'ektiv voqelikning muayyan umumiy xossalarini qayd etadi, lekin bu kategoriyalarning boshqa kategoriyalar bilan aloqalari haqida bevosita tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Munosabatdosh kategoriyalarga kelsak, ular biri ikkinchisi bilan uyg'un bog'liq bo'lib, bilish jarayonida biri ikkinchisini nazarda tutadi; ularning biri haqida tasavvur hosil qilganda boshqasini hisobga olmaslik mumkin emas. Bunday

kategoriyalar qatoriga quyidagilar kiradi: yakkalik va umumiylik; hodisa va mohiyat; shakl va mazmun; qism va butun; sabab va oqibat; tasodif va zaruriyat; imkoniyat va voqelik.

Bu kategoriyalarni batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Yakkalik, xususiylik va umumiylik Bu falsafiy kategoriyalar borliq narsalari va hodisalarining dialektik birligini va ularning o'rtasidagi tafovutni aks ettiradi. Kundalik hayotda biz «yakka», «xususiy», «umumiy» tushunchalarini ko'p ishlatamiz va ularning mazmuni bizga ba'zan oydek ravshan bo'lib tuyuladi. Ammo mazkur tushunchalar bilan ifodalanadigan predmet yoki predmetlar turkumini topishga harakat qilganimiz zahoti katta qiyinchiliklarga duch kelamiz. Masalan unga ikkita bolaning suhbatini asos bo'lishi mumkin:

- Umringda hech qushni ko'rganmisan?

- Ha, ko'rganman. Mana u (kanareykaga ishora qiladi).

- E, bu qush emas, kanareyka-ku. Kanareykani ham sen hech qachon ko'rmagansan. Sen faqat bitta kanareykani, bizning kanareykamizni ko'rgansan.

Sog'lom fikr kanareykada qushni ko'rgan bola u hech qachon qushni ko'rmaganini aytayotgan boladan ko'proq haq ekanligidan dalolat beradi. Ammo umuman qush, meva, daraxtini ko'rganini kim uzil-kesil qayd eta oladi? Biz bu qush, bu daraxt, bu mevani o'z tajribamizda ko'rganimiz hech qanday shubha uyg'otmaydi. Umumiy tushunchalar amalda ob'ektiv mazmunga ega yoki ega emasligi falsafa tarixida qizg'in munozaralarga sabab bo'lgan. Umumiy tushunchalar tabiati masalasi atrofida bahs O'rta asrlardan beri davom etib keladi. Umumiy tushunchalar amalda mavjudmi? Nima haqiqiy borliq hisoblanadi – yakkalikmi yoki umumiylikmi? Umumiylik va yakkalik munosabati hodisalar xossalarining emas, balki hodisalarning munosabati sifatida qaraladigan darsliklarga hozir ham duch kelish mumkin. Xo'sh, bugungi kunda falsafada mazkur masala qanday yechilmoqda?

Ayrimlik. Yakkalik, xususiylik va umumiylik kategoriyalari borliq narsalari va hodisalarining nisbatan mustaqilligi, ularning rang-barangligi va birligi in'ikosi hisoblanadi. Ayrimlik tushunchasi zikr etilgan kategoriyalar mazmunini ochib

beruvchi asosiy tushunchadir. Ayrimlik – «narsa» tushunchasining sinonimi, ya'ni borliqning nisbatan mustaqil, sifat jihatidan muayyan parchasi. U xossalar to'plamiga ega.

Yakkalik, umumiylik, xususiylik. Ayrim narsaning muayyan turkumga mansub barcha narsalar bilan o'xshashligini belgilovchi xossalar umumiylik kategoriyasi bilan ifodalanadi. Yakkalik – faqat mazkur ob'ektga xos bo'lgan xossalarni ifodalovchi kategoriya. Yakkalik ayrim narsalar nisbatan mustaqil mavjudligini ham, mazkur narsaning bu nisbatan mustaqilligi, diskretligi, alohidaligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan individual betakror belgilarni ham qayd etadi.

Umumiylik yakka narsaning mohiyatini aks ettiradi. Umumiylikni faqat mohiyatni aniqlash orqali ochib berish mumkin. Yakkaliksiz umumiylik sezgilar darajasida idrok etiladigan belgilardan, ayrimlikning betakror individualligi, boyligidan mahrum bo'lgan abstraktsiya bo'lib qoladi. Yakkalik va umumiylikning keltiriladigan ta'riflari ularni ayni bir ayrim ob'ektning tomonlari sifatida tavsiflaydi. Masalan, hayot bugungi kunda oqsilli jismlar va nuklein kislotalarning mavjudlik shakli sifatida tavsiflanadi. Irsiyat va o'zgaruvchanlik – butun tiriklikning umumiy xossalari. Ammo oqsilning kimyoviy tarkibi va ayniqsa tuzilishi har bir organizmda individual darajada betakrordir. Bu bir jonzotni boshqa jonzotdan farqlash imkonini beruvchi birdan-bir xossadir. Mantiqda yakkalik va umumiylik – tushunchalar tavsifidir. Umumiylik tushunchasida ikki va undan ortiq predmet, yakkalik tushunchasida esa – bitta predmet tushuniladi. Grammatik jihatdan umumiylik turdosh ot bilan, yakkalik esa – atoqli ot bilan ifodalanadi. Falsafada yakkalik va umumiylik borliq hodisalarining o'xshashligi va farqlarini belgilovchi xossalardir.

O'rta asrlar falsafasida umumiy tushunchalar tabiati haqidagi masala atrofida bahs uning ishtirokchilari realistlar va nominalistlarga bo'linishiga olib keldi. Realistlar umumiylikni yakkalikdan ajratib, umumiylikni mustaqil holda mavjud hodisa sifatida, narsalar paydo bo'lgunga qadar – narsalarning (Xudo aqlidagi) ilk timsoli sifatida, narsalarda – Xudoning ro'yobga chiqarilgan g'oyasi

sifatida talqin qilganlar. SHunday qilib, realistlar fikricha umumiylik narsalarga qadar, narsalarda va narsalardan keyin narsaning muayyan g'oyasi sifatida mavjud bo'ladi. Nominalistlar esa, aksincha, faqat yakka narsalar amalda mavjud, umumiy tushunchalar esa, ayrim narsalarning nomlari, xolos, deb hisoblaganlar. Mazkur tasavvurlar aks sadosiga bugungi kunda ham, masalan, umumiylik ob'ektlar to'plami bilan, yakkaalik esa – bitta predmet bilan tenglashtirilgan holda duch kelish mumkin. Amalda umumiylik va yakkaalik kategoriyalari ob'ektlarni emas, balki ularning xususiylik tomonlari sifatida birgalikda mavjud bo'lgan xossalarini aks ettiradi. Umumiylik va yakkaalikning birligi o'ziga xosdir, chunki ularning har bir ob'ektdagi ko'rinishi, uyg'unligi, birining ikkinchisidan ustunligi betakrordir. SHu sababli har bir ayrim hodisa, narsa – xususiydir.

Xususan, «yakkaalik» kategoriyasi narsada, hodisada faqat shu narsaga, hodisaga xos bo'lgan jihatni aks ettiradi. «Umumiylik» - bu narsalar va hodisalar o'rtasida muayyan sifat jihati doirasida amalda mavjud bo'lgan ayniylkdir. Yakkaalik ham, umumiylik ham mustaqil mavjud bo'lmaydi. Ayrim narsalar, hodisalar, jarayonlar mustaqil mavjud bo'ladi. Umumiylik ham, yakkaalik ham faqat ayrim narsa yoki hodisadagina mavjuddir. Har qanday ayrim narsa yoki hodisa qarama-qarshiliklar birligi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida u ham yakkaalik, ham umumiylikdir. Har qanday umumiylik ayrim narsa, hodisaning tarkibiy qismi, elementi hisoblanadi, chunki u ayrim narsa yoki hodisani to'liq emas, balki bir yoqlama – narsalarda mavjud ayniy jihatlarni aks ettiradi. Yakkaalik o'z mohiyatiga ko'ra mavhum hisoblangan umumiylikdan boyroqdir. Ammo umumiylik narsaning mazmuni, mohiyatini chuqurroq yoritadi.

Xususiylik. «Xususiylik» yakkaalik va umumiylik o'rtasidagi oraliq kategoriya hisoblanadi. Xususiylik – yakka nisbatan umumiy bo'lgan va umumiyga nisbatan yakka bo'lgan narsa yoki hodisa. Masalan: modda (qonun moddasi) – yakka; qonun – xususiy; huquq - umumiy. «qonun» tushunchasi «modda» tushunchasiga nisbatan umumiydir. O'z navbatida «qonun» tushunchasi «huquq» tushunchasiga nisbatan yakkaalikni aks ettiradi.

Yakkaalik, xususiylik va umumiylik kategoriyalari bilish jarayonida uning

tayanch nuqtalari, bilimsizlikdan bilim sari bosqich rolini o'ynaydi.

Sistema, element struktura. Butun va qism kategoriyalarini sistema, struktura, element kategoriyalari to'ldiradi va rivojlantiradi.

Sistema (tizim) tushunchasi qadimgi yunon falsafasida sistema (tizim) tushunchasi borliqning tartibliligi va yaxlitligi sifatida tavsiflangan. Hozirgi talqinda sistema muayyan yaxlitlikni tashkil etuvchi qonuniy munosabatlar va aloqalarda bo'lgan elementlarning organik to'plami sifatida tavsiflanadi. Sistema (yunon. systema – birlashtirish, yaratish) – bir-birining o'rtasida qonuniy bog'lanish yoki o'zaro aloqa mavjud bo'lgan muayyan elementlar yig'indisi. Har qanday sistemaning strukturasi avvalo uning tarkibiy elementlariga bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, elementlarning xossalari ham ko'p jihatdan o'zlari hosil qilgan sistemaning strukturasi bilan belgilanadi. Sistema va element tushunchalari butun va qism kategoriyalariga yaqin turadi. Ammo ular ayniy tushunchalar emas. Xususan, qism bo'linadi, element – sistemaning boshqa qismlarga ajralmaydigan komponenti hisoblanadi. SHuningdek sistema butun bilan ham solishtirilishi mumkin va xuddi butun kabi, qismlarning aloqadorligi, tartibliligi va uyushqoqligi bilan tavsiflanadi. Ammo butunni o'rganishda uning o'ziga xos xususiyatini, sifat jihatidan muayyanligini aniqlash vazifasi birinchi o'ringa chiqadi. Sistemali yondashuv sistemalarning sifat jihatidan o'ziga xosligidan qat'iy nazar, ular xulq-atvorining umumiy tamoyillari va qonunlarini aniqlashni nazarda tutadi. Ayni shu sababli sistemalar juda keng miqyosda qo'llaniladi. Ammo har qanday ob'ektni o'rganishga nisbatan sistemali yondashuv doim ham samarali emas. Biron-bir ro'zg'or buyumi (qoshiq yoki choynak, yozuv daftari va sh.k.)ni sistemali o'rganishning hojati yo'q. Ba'zan shunday bir «tadqiqotlar» uchraydiki, ularda sistemalar nazariyasi atamalari ishlatilgan bo'lsa-da, ularni yaratgan soxta olimlar tavsiflanayotgan ob'ekt talqiniga biron-bir yangi narsa kiritmaydi. Hozirgi zamon fanida sistemali yondashuvning ikki yo'li qo'llaniladi: birinchi – sistemalar tushunchasini muayyan tarzda formallashtirish va ularning fan tilida tavsiflanadigan umumiy belgilarini aniqlash; ikkinchi – muayyan sistemalarning tipologik tahlilidan foydalanish kabilardir

Element –(lot. elementum – birlamchi modda) – butunning nisbatan

bo'linmas qismi. Qism tushunchasi o'z hajmiga ko'ra «element» tushunchasidan kengroq, chunki bu har qanday qism emas, balki nisbatan bo'linmas qism. Bunda «qism» butun tushunchasi bilan, «element» esa – struktura tushunchasi bilan munosabatga kirishadi

Element narsaning boshqa bo'linmaydigan zarrasini anglatuvchi kategoriya. Xususan, modda atomlardan tashkil topadi va atomlar moddaning elementlari hisoblanadi. Ammo bizga ma'lumki, atom parchalanadi. Nima uchun biz elementar zarralarni moddaning elementlari deb hisoblamaymiz? SHuning uchunki, elementar zarralar moddaning emas, balki turli-tuman maydonlarning elementlari hisoblanadi.

Struktura – (lot. struktura – tuzilish, joylashuv, tartib) – narsalar va hodisalarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi qonuniy aloqa usuli. Struktura sistemaning tuzilishi va ichki shakli, mazkur sistema elementlari o'rtasidagi barqaror o'zaro aloqalarning birligi.

Sistemalarning o'ziga xos xususiyatlari. Sistemalarning muhim umumiy xususiyatlari sistemali yondashuvning bir qancha tamoyillarini ta'riflash imkonini beradi. Birinchi – yaxlitlik tamoyili. Har qanday sistema ko'p sonli elementlardan tashkil topadi, lekin ularning yig'indisiga bog'liq emas. Ikkinchi tamoyil – sistemali tuzilishining ierarxiyaviyligi: sistemaning har bir elementi murakkab tuzilishga ega bo'lib, nisbatan mustaqil sistema sifatida qaraladi. Ayni vaqtda o'rganilayotgan sistema murakkabroq sistema tarkibiga uning elementlaridan biri sifatida kiradi. Uchinchi tamoyil – sistemani tashkil etuvchi elementlar bir-biri bilan muayyan munosabatlarga kirishadi. Ularning orasida eng muhimlari sistema tashkil etuvchi, sistemaning yaxlitligini ta'minlovchi elementlardir. Sistemani o'rganish strukturaviy va funktsional yondashuvlardan foydalanishni nazarda tutadi. Strukturaviy yondashuv sistemani uning tuzilishi va shakli nuqtai nazaridan o'rganish imkonini beradi. Funktsional yondashuv esa, sistemaning xulq-atvori va boshqa sistemalar bilan o'zaro aloqalarini tadqiq etish uchun imkoniyat yaratadi. Sistemalarning o'zaro aloqasi kauzal, aniq belgilangan va statistik, ya'ni ehtimol tutilgan bo'lishi mumkin. Sistemaning muhitdagi xulq-atvori aktiv va reaktiv bo'lishi mumkin. Sistemaning aktiv xulq-atvori maqsadlar nuqtai nazaridan

tavsiflanishi mumkin.

Sistemalarning tiplari. Sistemalarning umumiy belgilari bilan bir qatorda, muayyan tiplari faqat o'zigagina xos bo'lgan tipologik belgilarga egadir. Masalan, belgilar sistemalarini o'rganish bilan ilmiy bilimning alohida sohasi – semiotika shug'ullanadi. U bizning til haqidagi, madaniyat turli tillarining o'xshash jihatlari va farqlari haqidagi tasavvurlarimizni sezilarli darajada boyitadi. Kibernetika boshqaruvchi sistemalar xulq-atvorini o'rganadiki, bu oqilona asoslangan boshqaruv sistemalarini yaratish imkonini beradi. O'yinlar nazariyasi bizning konfliktlashayotgan sistemalar haqidagi tasavvurimizni ancha kengaytiradi, sinergetika esa o'ta murakkab sistemalar xulq-atvorining qonuniyatlarini aniqlaydi. SHunday qilib, sistema, struktura va element kategoriyalari fan va falsafani yanada boyitib, muhim metodologik vazifani bajaradi.

Elementlari va strukturasining xususiyatiga ko'ra sistemalarning har xil turlari farqlanadi. Ob'ektiv borliqda mavjud bo'lgan moddiy sistemalarni va ob'ektiv borliqning inson ongidagi in'ikosi hisoblangan ideal sistemalarni farqlash ayniqsa keng tarqalgan. Elementlari va aloqalarining soniga ko'ra sodda va murakkab sistemalar farqlanadi.

4-mavzu: Hozirgi zamon falsafasida ilmiy bilish va metod muammosi

Reja:

- 1. Hozirgi zamon falsafasi: vorislik va yangilanish.*
- 2. Hozirgi zamon falsafasi gnoseologik muammolar.*
- 3. XX asr falsafasida metod va metodologiya muammolari*

Ma'lumki, hamma zamonlarda ham falsafa o'z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo'llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og'ir yo'qotishlar davri ham bo'ldi. Bu esa falsafiy fikrning taraqqiyotida o'z aksini topdi,

uning turli yo'nalish va oqimlari shug'ullangan muammolarning salmog'i, maqsad-muddaosini aniq belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xilma — xil oqim va yo'nalishlar mavjud. O'z navbatida bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo'lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi. Hozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminsoniylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyg'unligi, demokratik erkinliklar, inson qadri, biror ta'limotni mutlaqlashtirmaslikdir. Bag'rikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy ta'limotlar rang-barangligini ta'minlaydi. An'anaviy falsafada, turli g'oyaviy tizimlarga bo'linishiga qaramay, muhim muammolarni hal etishda ma'lum bir umumiylik mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning ko'p xilligi va o'ziga xosligi, turli-tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yo'nalish sifatida shakllanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. An'anaviy falsafada aql — inson mohiyatining belgilovchisi, deb talqin etilgan bo'lsa, endi ratsionalizmga qarshi insonning mavjudligi (ekzistentsializm) muammolari, hamda uning noratsional mohiyati ilgari surila boshladi. Ya'ni ilgari ma'rifatparvarlik g'oyasi ustuvor bo'lsa, endilikda ko'proq inson huquqlariga e'tibor kuchayib ketdi. Falsafa guyoki, mavhumlikdan aniqlik tomon bordi, umumiy emas, aniq-ravshan masalalarni hal qilish boshlandi. An'anaviy falsafada hodisalar mexanika qonunlari asosida tushuntirishga harakat qilingan bo'lsa, endi bunday tahlil doirasidan chetda qolgan muammolar o'rganila boshlandi. Bugungi kunga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda lardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida, nomlariga «neo», ya'ni yangi, zamonaviylashgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Fanning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilash va unga nisbatan munosabatga qarab, zamonaviy falsafiy ta'limotlarni asosan ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Ulardan biri — stsientizm (lot scientia — fan) ya'ni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Stsientizm g'oyalari, neopozitivizm, texnologik determinizm kabi ta'limotlarning asosini

tashkil etadi. Ikkinchisi — antistsientizm, ya'ni fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Bunday dunyoqarash ekzistentsializm, frankfurt ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim Klubining bir qator tarmoqlarini, ba'zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi. Antistsientizm ilm-fan taraqqiyotining natijalarini nazorat ostiga olish, bu masalada jamiyat hayotini xavf ostiga qo'ymaslik talabi bilan bog'liqdir. Antistsientizmning ayrim o'ta ashaddiy namoyandalari fan-texnika taraqqiyotini tamoman to'xtatib qo'yish g'oyasini ham ilgari suradilar. Umuman olganda, XX asr falsafasida bir-biriga muqobil bo'lgan yo'nalishlar ratsionalizm va irratsionalizm, antropologizm va naturalizm, stsientizm va antistsientizm, materializm va idealizm o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida ko'pchilik nemis olimi Artur Shopengauer (1788 — 1860) qarashlarini tilga oladi. Shopengauer olamdagi barcha mavjud narsalarni irodaning namoyon bo'lishi, irodani esa ongsiz ko'r-ko'rona intilish tarzida tushunadi. Maxluqotlarning instinktlari, xatti-harakatlari — irodaning namoyon bo'lishidir. Inson faoliyati ham aqldan begona bo'lgan irodaning natijasidir. Shuning uchun inson mohiyati irrotsional asosga ega. Aql esa tasodifiydir. Inson hayoti doimo aylanib turgan iroda g'ildiragiga bog'liqdir. Shopengauer ta'limotini davom ettirgan nemis faylasufi Fridrix Nitsshe (1844-1900) fikricha, «borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo'lgan irodadir.» Nitsshe inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlikni birlashib ketganini asoslab berishga harakat qildi. Uning diyorimizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardushtiylik ta'limotini o'rganib yaratgan «Zardusht tavallosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. U o'z ortidan irodasiz kishilar ommasini etaklashga qodir bo'lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdori bo'lgan. Nitsshening tsivilizatsiya va madaniyatning so'nishi va barham topishi to'g'risidagi g'oyasiga asoslanib, 1918 yilda G. Shpengler «Evropaning so'nishi» degan asarini yozadi. O'tgan asr oxiri olimlari ijtimoiy inqiroz va ma'naviy turg'unlikdan chiqishning yo'lini G'arbda klassik falsafiy merosga murojaat etishda va uni qayta tiklashda ko'rdilar. Shu zaylda «Orqaga Kantga» shiori ostida neokantchilik, «Orqaga Hegelga» shiori ostida esa

neohegelchilik paydo bo'ldi. Shu bilan birga, falsafaning klassik ildizlarini saqlab qolishni diniy oqim bo'lgan neotomizm ham yoqlab chiqdi. Neatomizm shu bugunga qadar ham o'z mavqeini yuqotmagan bo'lib, katolik cherkovi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bunda ayniqsa Rim papasi rahbarlik qiladigan Vatikanning faoliyati muhim o'rin tutadi. Neotomizm — XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo'lib, u o'rta asrlardagi (XIII asr) Foma Akvinskiyning

ta'limotini qaytadan tikladi. U (neo — yangi, tomizm — «foma», transkripsiyada «toma» bo'lib o'zgargan) Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta'limoti demakdir. Bu ta'limotga ko'ra, ilm va e'tiqod o'rtasida to'la muvofiqlik, uyg'unlik bor. Ular bir-birini to'ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan berilgan xaqiqat. Neotomizm vakillari fikricha, ilm etmagan joyda e'tiqod qo'llanishi kerak. Lekin bu e'tiqod ko'r-ko'rona, shunchaki ishonch bo'lmay, balki mantiqan teran anglangan e'tiqod bo'lishi kerak. Xudoning mavjudligini falsafa turli mantiqiy usullar orqali isbot qilishi lozim. Shunday qilib, falsafaning vazifasi dinga xizmat qilishdan iboratdir. Neotomistlar dunyoni, jamiyatni xudo yaratgan, jamiyat taraqqiyoti xudoning rejasi asosida boradi, deydilar. Diniy teologiya oqimi bo'lganligidan neotomizm albatta, ilohiy qadriyatlarni ustuvor qo'yadi. Ammo u din va uning jamiyatdagi o'rniga, o'zining nomi kelib chiqishiga sabab bo'lgan, Foma Akvinskiy zamonidan farqli yondoshadi. Fomadan keyingi davr Evropada xristianlikning sofliğini saqlash g'oyasi, asta-sekin mutlaqlashib, o'rta asr aqidaparastligining ma'lum ko'rinishlaridan biri-inkvizitsiyaga olib kelgan edi. Bu esa hurfikrlilik, ilm-fandagi yangilikka qarshi kurashga aylanib ketgan edi. Lekin inson huquqlari, fikr erkinligi demokratiya belgisiga aylangan XX asrda bunday o'taketgan aqidaparstlikka o'rin yo'q. Neotomizm hozirgi tsivilizatsiyali dunyoda tsivilizatsiyalashgan ta'limot sifatida maydonga chiqmoqda. O'z navbatida bu demokratiya ustivor bo'lgan hayot tarziga muayyan darajada mos keladi. Neokantchilik XIX asr o'rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan edi. Uning vakillari I. Kant o'z davrida qo'ygan ilmiy bilishning umumiyliги va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta'limotga ko'ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning

hayoti o'zi uchun eng oliy maqsaddir. Shunday ekan, inson hayotidan kimdir o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin mavjudot deganda, Kant izdoshlari o'zi xohlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamotchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan, unga zid ish qilmaydigan, ammo o'z haq-huquqlarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar. XX asrga kelib, fan va texnika taraqqiyoti bilan ilmiy tafakkur va til muammolarini falsafiy tahlil qilishga qiziqish nihoyatda ortdi. Bu yo'nalishda ishlayotgan eng yirik oqimlarga neopozitivizm, strukturalizm va germeneytika kabi falsafiy qarash namoyondalari misol bo'ladi. Neopozitivizm oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo — yangi; pozitiv — ijobiy degan ma'noni anglatadi. Neopozitivizm G'arbda XIX asrning 20 — yillarida paydo bo'lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa — ob'ektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak. Kont falsafaning o'zi mustaqil ravishda ob'ektiv dunyo to'g'risida hech qanday aniq bilimlar berishi mumkin emas, u shu paytgacha yig'ilgan bilimlarni formal logika qonunlari asosida tahlil etishi va qayta baholashi, uni «absolyut g'oya, ruh» to'g'risidagi ortiqcha fikrlardan tozalashi kerak va yangi falsafani yaratishi kerak, deb ta'lim bergan. Neopozitivistlar verifikatsiya printsipini ilgari suradilar (lot. Veritas — xaqiqat.) ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimlarning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu printsip keyinchalik inkor etildi. Shundan so'ng postpozitivizm (ya'ni keyingi pozitivizm) vakili K. Popper falsifikatsiyalash metodini ilgari surdi.

Bunga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning xaqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning xaqiqiyligini mantiqiy — lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60 — 70 yillariga kelib, neopozitivizmning mavqei kamayib, asosiy o'ringa strukturalizm va

germenevtika chiqdi. Strukturalizm (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasini bilish uning ob'ektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar. Masalan Levi-Stross mifologik tafakkurni tahlil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar yaratgan afsonalarning umumiy strukturaga ega ekanligini isbot qildi. Uning fikricha, bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to'la muvofiq keladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta'limotga ko'ra shunday printsipga, umumiy mantiqqa ega. Germenevtika — qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun erga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalari asosiy diqqatini qaratadi. Jamiyat, bu ta'limotga ko'ra, kishilar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Shuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma'nosini, mohiyatini kishilar o'rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat. Bu oqim vaqillari Shleyermaxer va Diltey fikricha, biror bir tarixiy manbaning to'g'ri tahlil etilishi tadqiqotchining davr xususiyatlarini to'la his etishi, tushunishi bilan bog'liq. Hozirgi davrda bu ta'limotning ko'plab tarafdorlari mavjud. XX asrning 30 — yillariga kelib «ekzistentsial falsafa» rivojlandi. Ekzistentsiya — tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. Ekzistentsializm nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi. Bu muammolarning talqini, ayniqsa, ijodkor ziyolilar o'rtasida ommaviy tus oldi. Shuning uchun ekzistentsial falsafa bu davrda eng keng tarqalgan oqim bo'lib qoldi. Ekzistentsializm vakillari asosan ikki yo'nalishga bo'linadilar. Biri — dunyoviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (Yaspers, Marsel) bo'lib bunday bo'linish nisbiydir. Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining yaratish jarayonini o'zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o'z mohiyatini o'zi erkin belgilaydi, uning kim bo'lib etishishi faqat uning o'ziga bog'liq. Shu ma'noda, inson doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan loyihaga o'xshatiladi. Erkinlik insonning o'zi tomonidan

yaratiladigan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi. Insonga berilgan imkoniyatlarni tanlash nihoyatda mas'uliyatlidir, chunki bunda inson o'zi, boshqalarni hamda uni o'rab turgan olamni ham qayta yaratadi. Diniy ekzistentsializm vakillari Yaspers va Marsel fikricha, inson o'z erkin faoliyati davomida xudoga qarab unga etishish uchun, kamolot tomon harakat qiladi. Haqiqiy erkinlik insonga tahlikali onlarda, tashvishda, yolg'izlikda namoyon bo'ladi. «ahlika, mas'uliyat sof erkinlikning o'zidir, faqat shunday sharoitda inson o'zini to'laligicha anglaydi. Hayot va o'lim, qo'rqinch, dahshat tushunchalari bu ta'limotning markaziy tushunchalaridir. Ekzistentsialistlar fikricha, olam ma'nosiz va uni bilib bo'lmasligi abadiy, inson umri o'tkinchi bo'lganligi uchun ham dahshatlidir. Yangi zamon falsafasining yana bir oqimi pragmatizm AQShda keng tarqalgan. Umuman olganda, «pragmatizm» foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foydaga» tushunchasi «tajriba», «haqiqat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi. Pragmatizm ta'limotining yirik namoyandalari Ch. Pirs, U. Djems, J. Dyui va boshqalardir. Ularning ta'limotida olamning o'zgaruvchanligi o'z ifodasini topgan. Ular tajribani turli tasodif va kutilmagan vaziyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ongimizdan tezkor qarorlarni qabul qilishni talab etuvchi hodisalar majmui sifatida ta'riflaydilar. Insonning xatosiz faoliyat ko'rsatishi uchun uning xatti-harakatlarini boshqarib turuvchi vosita — intellektdir. J. Dyui fikricha, intellekt insonni o'rab turgan olamdan nusxa oladi, hamda unga muhitga moslashishga yordam beradi. Pragmatizm falsafasining maqsadi insonga olamda o'z o'rnini topishga yordam berishdan iborat. Dyui tajriba natijasining «foydali» tomoniga e'tiborini qaratadi. Djems fikricha, haqiqat foydali bo'lgan narsa yoki hodisadir. Pragmatizm AQSh ijtimoiy-madaniy hayotining qadriyatlarini ifoda etib, u erdagi ishbilarmonlar, menedjerlar, siyosatchilar va davlat arboblari o'rtasida keng tarqalgan. Amerikaliklar bu ta'limotning nazariyotchilarini halqning dunyoqarashi o'zgarishida, hozirgi amerikacha hayot tamoyillarini keng ommaga singdirishda katta xizmat qilgan faylasuflar sifatida qadrlaydilar. Masalan, J. Dyui «Amerikaning Arastusi» deya hurmat bilan tilga oladilar. Jamiyat taraqqiyotiga oid g'oyalar tahlili falsafada antik davrlardan, Suqrot

va Aflotun zamonlaridan boshlab shakllana boshlagan. Bu g'oyalarning rivojida XVII-XVIII asrlarda yashagan italiyalik faylasuf Dj. Viko, XVIII asrda yashagan I.G. Gerder va ayniqsa, nemis falsafasining yirik namoyondasi Xegel katta hissa qo'shganlar. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi ta'limotlar orasida tadrijiy taraqqiyot va inqilobiy sakrashlar yo'lidan borishni ilgari suradigan ta'limotlar talaygina. Ko'pchilik tadrijiy yo'lni ma'qul ko'radi va biz yuqorida tilga olgan faylasuflarning aksariyati ana shunday qarash tarafdori. Afsuski, boshqacha qaraydigan ta'limotlar ham bor.

XX asrga kelib jamiyat tarixiy taraqqiyotiga oid ta'limotlarni umumlashtirish natijasida ijtimoiy taraqqiyotning plyuralistik modeli, «lokal madaniyatlar» hamda «tsivilizatsiyalarning xilma-xilligi» kontseptsiyalari shakllandi. Ularga ko'ra, jamiyat tarixi — o'ziga xos madaniyatlarning birligi emas, xilma-xilligidan iborat. Shu ma'noda u organik tabiatdagi hayot shakllarining rang-barangligiga qiyoslanadi. Demak, tabiat qanday xilma-xillikning birligi bo'lsa, jamiyat ham ana shunday rang-baranglikning uyg'unligidir. Jamiyatda ham hamma va har bir narsaning o'z o'рни bor. Bu g'oyalar nemis faylasufi va sotsiologi O. Shpengler (1880-1936) va ingliztarixchisi A. Toynbi (1889-1975) ta'limotlarida har tomonlama asoslab berishga harakat qilindi. O. Shpengler o'zining «Evropaning so'nishi» nomli asarida tarixni bir — biridan mustasno bo'lgan madaniyatlar majmuidan iborat, deb hisoblaydi hamda mukammal rivojlangan 8 xil madaniyatni ko'rsatadi. Bular: arab, hind, vavilon, xitoy, yunon-rim, vizantiya-arab madaniyatlari, mayya va russ-sibir madaniyatlaridir. Madaniyatlar o'ziga xos diniy asosga ega bo'lib, ularning har biri qat'iy biologik maromga (ritmga) bo'ysunadi. Va quyidagi asosiy davrlarni bosib o'tadi: tug'ilish va bolalik, yoshlik va kamolot, qarilik va so'nish. Buning asosida madaniyatlar rivojining ikki bosqichi mavjud, deb ko'rsatiladi. Birinchi bosqich — madaniyat ravnaqi (sof madaniyat) va ikkinchisi — uning tanazzuli («tsivilizatsiya»). O. Shpengler evropotsentrizmga, ya'ni barcha madaniyatlarni evropalashtirish g'oyasiga qarshi chiqdi. Har bir madaniyatning o'ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanish g'oyasini mutlaqlashtirdi. Ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ham mavjudligiga kam e'tibor qaratdi. Yana bir olim

A. Toynbi esa o'zining 12 jildlik «Tarixni o'rganish» asarida madaniyatlarning lokal rivojlanish g'oyasini davom ettirdi. Biroq uning ta'limoti Shpengler kontseptsiyasidan o'zining ikki jihati bilan farqlanadi. Birinchidan, insonda o'z hayotini erkin belgilash imkoniyati mavjudligini, tarixiy taraqqiyot zaruriyat va erkinlikning o'zaro birligidan iborat ekanligini nazarda tutsa, ikkinchidan, tarixiy taraqqiyotning davriy modeli dunyoviy dinlar (buddizm, xristianlik, islom) ning barcha xalqlarni yakinashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil g'oyasi bilan boyitilgan. Toynbi G'arb xristian tsivilizatsiyasining tanazzulga qarab borayotganligini ko'rsatib, uning oldini olish yo'lini ma'naviy birlikda, jahon xalqlarining yagona dinni qabul qilishlarida, deb hisoblaydi. Umuman olganda, hozirgi paytda jamiyat taraqqiyotining tsivilizatsion kontseptsiyasi ko'pchilik faylasuflar tomonidan tan olinmoqda. Xususan, industrial va postindustrial jamiyat g'oyalari, ayniqsa, ommaviylashib bormoqda. Unga ko'ra, jamiyat taraqqiyotining bosh mezon — sanoatning rivojlanish darajasidir. Shunday qilib, XX asrga kelib rang-barang falsafiy ta'limotlar shakllandi. Ularning barchasini mazkur mavzuda ko'rib chiqish imkoniyati bo'lmasa-da, yuqorida bayon etilgan ma'lumotlardan falsafiy plyuralizm haqida, falsafa zamon va makon bilan bog'liq murakkab fan ekanligi to'g'risida muayyan xulosaga kelish mumkin. Bu sohadagi bilimlarimiz, o'z navbatida bizning milliy g'oya va mafkuramizni shakllantirishga, ma'naviyatimizning boyib, mustahkamlanib borishiga, intellektual kamolotimizga xizmat qiladi.

Ilmiy bilimning o'ziga xos xususiyatlari. Inson rang-barang bilimlarga ega va ularning hammasi ham ilmiy emas. Masalan, kundalik hayotda zarur bo'lgan (ovqat tayyorlash, ro'zg'or yuritish, maishiy elektr asboblarni ishlatish, shahar transportidan foydalanish, do'konlar joylashgan yerlarni, tanish-bilishlarning telefon raqamlarini bilish va hokazolar bilan bog'liq) ko'p sonli bilimlar ilmiy bilim sohasiga kirmaydi. Xo'sh, ilmiy bilimning boshqa turdagi bilimlardan farqi nimada? Uning muhim o'ziga xos belgilari quyidagilardir.

Ilmiy bilimda mavjud barcha qoidalar va xulosalarning oqilonaligi. Fan – inson aqlining mahsuli. Ayni shu sababli ilmiy bilimda inson tushunmaydigan, tushuntirib

bo'lmaydigan, faqat e'tiqod, emotsiyalar, instinkt va hokazolarga tayanadigan asossiz fikrlar va g'oyalar bo'lishi mumkin emas.

Ob'ektivlik, hamma uchun muhimlik, shaxssizlik: ilmiy bilimda ob'ektiv haqiqat shaxsiy simpatiya va antipatiyalar, e'tiqodlar va aqidalardan mumkin qadar tozalangan holda ifodalanishi lozim.

Tajribada ko'rish va tekshirish mumkinligi: har qanday tadqiqotchi biron-bir ilmiy natija olingan sharoitlarni yaratib, uning haqiqiyligiga ishonch hosil qilish yoki, agar u o'z tasdig'ini topmasa, uni rad etishga qodir bo'lishi lozim.

Mantiqiy izchillik, aniqlik va bir ma'nolilik. Bu bilim olingan sharoitlarni aniq qayd etish, o'rganilayotgan parametrlarning aniq miqdoriy qiymatlarini aniqlash, muayyan terminlar, belgilar va ularni ishlatish qoidalarini o'z ichiga olgan maxsus tildan foydalanish yo'li bilan ta'minlanadi.

Ilmiy bilim turli elementlarining mantiqiy bog'lanishi. Ayni shu bog'lanish mavjudligi tufayli u ayrim ma'lumotlar yig'indisi emas, balki mantiqiy izchil tizim hisoblanadi. O'zaro aloqadorlik va yagonalik ayrim fanlar doirasida emas, balki ularning o'rtasida ham mavjud.

Ilmiy bilimning yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlari uning ishonchlilik darajasini oshiradi. U boshqa har qanday bilimdan ishonchliroq hisoblanadi. Umuman olganda, ilmiy bilimning sanab o'tilgan xususiyatlari haqiqiy va ishonchli bilimning belgilaridir.

Yuqorida ko'rsatilgan belgilarga fanlar doirasida olinadigan bilimlarning hammasi ham ega bo'lavermaydi. Ammo bu belgilar ilmiylik ideallarini, ya'ni ilmiy bilim qanday bo'lishi lozimligini tavsiflaydi. Fanda xatolar va yanglishishlar bo'lishi mumkin, lekin olimlar ayni shu ideallarga qarab mo'ljal olgan holda ularni tuzatishga harakat qiladilar.

Har qanday haqiqiy bilim ham ilmiy bo'lavermaydi. Agar u yuqorida ko'rsatilgan belgilarga ega bo'lmasa, hatto u haqiqiy bo'lgan taqdirda ham ilmiy deb hisoblanishi mumkin emas.

Ilmiy bilimning turlari. Har qanday fan o'z predmet sohasiga – o'zi o'rganadigan ob'ektlar doirasiga ega bo'ladi. Bir qarashda ilmiy bilimning mazmuni

fan mazkur ob'ektlarni o'rganish jarayonida oluvchi bilimlar bilangina cheklanadigandek bo'lib tuyulishi mumkin. Ammo bu yanglish taassurot. Ob'ektlar haqida qandaydir ma'lumotlar olish uchun tadqiqot doirasida yechilishi lozim bo'lgan muammolarni belgilash va ularni yechish metodlarini topish talab etiladi. Fan doirasida o'rganiladigan ob'ektlar haqidagi bilim yoki predmetli bilim oqilona qo'yilgan ilmiy muammolarni yechishga nisbatan samarali metodlarni qo'llash natijasi sifatida paydo bo'ladi.

SHunday qilib, ilmiy bilimning uch asosiy turi mavjud. Bular:1) muammolar haqidagi bilim;

2) metodlar haqidagi bilim;

3) ob'ektlar haqidagi bilim yoki predmetli bilim.

Muammolar. *Muammo – bu yechilishi lozim bo'lgan masala yoki vazifa.* Muammoni qo'yish hali anglab yetilmagan narsa yoki hodisaning mavjudligini anglatadi. Ayni vaqtda bu narsa yoki hodisa muayyan tarzda tavsiflangan, ajratilgan, ya'ni u haqda muayyan boshlang'ich bilim mavjud bo'lishi lozim. SHunday qilib, muammoni bilish – bu alohida turdagi bilim: u «bilmaslik haqidagi bilim»dir.

Amaliyotda (ishlab chiqarish, ijtimoiy, tibbiy amaliyot va hokazolarda) va fanning o'zida yuzaga keluvchi muammoli vaziyatlar ilmiy muammolarning manbai hisoblanadi. *Ilmiy muammoni qo'yish muammoli vaziyat tahliliga tayanadi, lekin bunday tahlilning o'zi bilangina belgilanmaydi.* Muammoli vaziyatga tushib qolgach, muammoni qo'ya bilish lozim. Muammo nafaqat aniqlanishi, balki ilmiy ta'riflanishi ham lozim. Buning uchun uni sub'ektiv, individual, ruhiy jihatlardan mumkin qadar tozalash va fan tilida ifodalash zarur.

Ilmiy tadqiqotlarning muayyan muammolari amaliyot va fanning rivojlanish tendentsiyalarini teran tushunishni talab etadi. Bu ulkan ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy tadqiqotlarning **dasturlarini** belgilaydi.

Katta va muhim muammolarning qo'yilishi fan tarmoqlarining rivojlanishini bir necha yillarga va hatto o'n yilliklarga belgilab berishi mumkin. Bunga mashhur «Gilbert muammolari» - D.Gilbert 1900 yil matematiklarning Parijdagi xalqaro kongressida so'zlagan ma'ruzasida ta'riflab bergan va XX asr mobaynida

matematikaning rivojlanish jarayonini belgilagan 23 muammo misol bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Olim muammoni baholashi va u shug'ullanishga arziydimi, degan savolga javob berishi juda muhimdir. Predmetli bilimdan farqli o'laroq, muammolar haqiqiy ham, soxta ham bo'lishi mumkin emas. Ammo ularni boshqa mezonlar – muhimlik, dolzarblik, yechish mumkinligi (tadqiqotchilarni odatda muammoni mazkur vositalar bilan va mazkur muddatda yechish mumkin yoki mumkin emasligi to'g'risidagi masala juda qiziqtiradi) nuqtai nazaridan baholaydilar. Muammoni qo'yish – har qanday ilmiy tadqiqotning dastlabki bosqichi. Ammo muammo qo'yilganidan so'ng uni yechish metodlarini topish talab etiladi. **Metodlar.** *Ilmiy metod harakatlarning shunday bir usuliki, uning yordamida ma'lum turdagi ilmiy vazifalar yechiladi.* Metod haqidagi bilim maxsus yo'riqnomalar, qo'llanmalar va metodikalarda ifodalanadi. Ularda harakatlarni bajarish qoidalari ta'riflanadi, shuningdek metodni qo'llash shartlari va maqsadlari, uning imkoniyatlari, metod yordamida erishiladigan natijalar xususiyati va hokazolar tavsiflanadi.

Metodni u haqdagi bilim bilan ayniylashtirish mumkin emas. Bir tomondan, metodni uni tavsiflovchi qoidalar va yo'riqnomalarni bilmay turib ham o'zlashtirish mumkin. Bunday bilim verballashtirilmagan, noaniq xususiyat kasb etadi, u faoliyatdan ajratilmaydi, balki unga kiritiladi va unda «ishlaydi». Boshqa tomondan, metodik qo'llanmalar va yo'riqnomalar matnini a'lo darajada bilish ham ularda tavsiflangan metodni o'zlashtirganlikni anglatmaydi. Masalan, tibbiyotchi-talaba tashxis qo'yish metodikasini miridan-sirigacha bilishi mumkin, lekin tegishli o'rganish va mashqlarsiz u tashxis qo'yish mahoratini lozim darajada o'zlashtirishi amri mahol bo'lsa kerak. Amalda ko'rsatish va shaxsiy tajriba o'rnini hech qanday og'zaki yo'l-yo'riqlar bosa olmaydi. Ayni shu sababli olimning shogirdlari va hamkasblari bilan bevosita aloqalari ulkan rol o'ynaydi: ular biron-bir yo'riqnomada qayd etilmagan narsalar bilan o'rtoqlashish imkoniyatini beradi.

Mazkur metod yordamida yechish mumkin bo'lgan vazifalar turi uning qo'llanish sohasini tashkil etadi. Har qanday turdagi vazifalarni yechish imkoniyatini beradigan universal metod fanda mavjud emas. Har qanday metod

o'zining muayyan qo'llanish sohasiga ega bo'ladi.

Har bir fan doirasida uning tadqiqot ob'ektlariga moslashtirilgan maxsus metodlar ishlab chiqiladi (masalan, fizikada – ko'lamlarni tahlil qilish metodi, biologiyada - qushlarni halqalash metodi, psixologiyada – testlash metodi, sotsiologiyada – anketa so'rovi metodi, tilshunoslikda – tillarni qiyosiy tahlil qilish metodi va h.k.).

SHu bilan bir vaqtda hozirgi zamon fanida metodlarni bir fandan boshqa fanga ko'chirish ulkan ahamiyatga egadir (masalan, fizik metodlardan kimyoda (spektroskopik metod), biologiya va tibbiyotda (rentgenoskopiya metodlari), tarixda (radioaktiv tahlil metodi) foydalanish, matematik metodlarni tabiatshunoslikda va ijtimoiy fanlarda qo'llash).

Maxsus metodlar bilan bir qatorda ko'pgina yoki hatto barcha fanlarda qo'llaniladigan umumiy metodlar ham bor. Ular **umumilmiy metodlar** deb ataladi. Ularga oqilona fikrlashning barcha metodlari – tahlil, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish, induksiya, deduksiya va boshqalar, shuningdek kuzatish, eksperiment, modellashtirish, ideallashtirish kabi metodlar kiradi.

Muammolar kabi, metodlarni ham haqiqiylik yoki soxtalik nuqtai nazaridan baholash mumkin emas. Metod yaxshi yoki yomon bo'lishi, muayyan muammoni yechish imkoniyatini berishi yoki bermasligi mumkin, lekin barcha hollarda u haqiqiy ham, soxta ham emas. Ba'zan biron-bir metodni «haqiqiy» deb nomlashlari mumkin, lekin bu faqat mazkur metod haqiqatning tagiga yetishni ta'minlashini, ya'ni muayyan muammoni yechishning «yaxshi», samarali vositasi hisoblanishini anglatadi. Xuddi shuningdek, biron-bir metodga nisbatan ishlatilgan «soxtalik» tushunchasi ham faqat metod mazkur muammoni yechishga yaroqli emasligi, ya'ni «yomon», samarasiz ekanligini anglatishi mumkin.

Ilmiy metodlarni baholash u yoki bu turdagi vazifalarni yechishga ular qay darajada moslashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Metodlar quyidagi xususiyatlariga qarab baholanadi: **umumiyligi**, ya'ni qo'llanish sohasining kengligiga qarab; **unumliligi**, ya'ni informativligi, ishonchliligi va aniqligiga qarab; **oqilonaligi**, ya'ni «aqlga muvofiqligi», soddaligi, tushunish va o'zlashtirish uchun qulayligiga qarab.

Umumiylik va unumlilik jamuljam holda metodning qudratini, unumlilik va ratsionallik esa – uning samaradorligini belgilaydi.

Ammo metodni mazkur mezonlarga muvofiq baholashning o'zi biron-bir muammoni yechish metodini tanlab olish uchun kifoya qilmaydi. Ilmiy bilish amaliyotida metodlarni baholash, odatda, pragmatik xususiyat kasb etadi: konkret vazifani yechish bilan band bo'lgan tadqiqotchini metodning «mutlaq» qimmati emas, balki uning **mazkur konkret tadqiqot uchun «nisbiy» qimmati** qiziqtiradi. Metodlarning bu «nisbiy», pragmatik qimmati ularning umumiylik darajasi bilan emas, balki mazkur tadqiqot uchun ularning **yaroqliligi** bilan; ularning unumliligi bilan emas, balki **maqsadga muvofiqligi** (ya'ni ular mazkur tadqiqot maqsadlariga qay darajada muvofiq kelishi) bilan; ularning oqilonaligi bilan emas, balki ularni **bajarish mumkinligi** bilan (bu mazkur tadqiqotning konkret sharoitlarida metod talab qiluvchi barcha taomillarni bajarish imkoniyati qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi) belgilanadi.

Har qanday ilmiy bilimlarni yechishga yaroqli bo'lgan qandaydir «eng yaxshi» metod mavjud emas. Biron-ta ham metod tabiatning har qanday sirining tagiga yetishga o'z-o'zidan yo'l ochuvchi universal vosita bo'lib xizmat qilolmaydi. Fanda mavjud bo'lgan ko'p sonli rang-barang metodlar orasidan olim o'z tadqiqotining predmeti, maqsadlari va shartlariga ayniqsa muvofiq keladigan metodlarni tanlab oladi. Tadqiqotni rejalashtirish paytida odatda barcha yaroqli metodlar orasidan eng maqsadga muvofiqlari, ularning orasidan esa – bajarish uchun ayniqsa qulay bo'lgan metodlar tanlab olinadi. Ammo ish baholash va tanlashdangina iborat bo'lmaydi: metodlarni mazkur tadqiqotga moslashtirish bo'yicha maxsus ishni bajarishga ham to'g'ri keladi. Bunday moslashtirish metodlarning yaroqliligi, maqsadga muvofiqligi va bajarish imkoniyatini sezilarli darajada oshirishga qodir.

Ammo ba'zan fan ma'lum metodlarning birortasi bilan ham yechib bo'lmaydigan muammolarga duch keladi. Bunday muammolarni yechuvchi fan bunyodkorlari «qoidalarga zid» ish ko'rishlariga to'g'ri keladi; aniqroq aytganda, ularning tadqiqotchilik harakatlari avvaliga ularning o'zlari ham yaxshi anglamaydigan qoidalar bilan tartibga solinadi. Bunda ular muammoni yechishlariga

imkoniyat beruvchi metodlar mutlaqo yangi ilmiy metodlar hisoblanadi. *Yangi ilmiy metodni topish ijodiy faoliyat natijasidir. Bunday faoliyat uchun oldindan ma'lum bo'lgan biron-bir metodika mavjud emas.* Ammo yangi metod topilib, unga tavsif berilganidan so'ng, uning yordamida ilgari ko'p kuch talab etgan yoki umuman yechish mumkin bo'lmagan vazifalarni ancha kam mehnat bilan yechish imkoniyati paydo bo'ladi. Lo'nda qilib aytganda, ilmiy faoliyat metodlarining ishlab chiqilishi inson aqlining ijodiy kuchlarini «tejaydi» va ularni tayyor metodlar hali mavjud bo'lmagan muammolarni yechishga yo'naltirish imkoniyatini beradi.

Metodlar haqidagi bilim o'z-o'zicha fan doirasida o'rganilayotgan narsalar va hodisalarga doir savollarga javob bermasa-da, u ilmiy bilishda ulkan rol o'ynaydi. Yangi metodning kashf etilishi, odatda, biron-bir konkret savolga javob topilishi yoki biron-bir yangi faktning aniqlanishiga qaraganda ulkanroq ahamiyat kasb etadi. Zero yangi metod bir qancha konkret masalalarni yechish va ko'p sonli yangi faktlarni aniqlashga yo'l ochadi.

Ob'ektlar. *Muammoni qo'yib, uni yechishning samarali metodlarini ishga solgach, olim o'zini qiziqtirgan ob'ektlar haqida bilim oladi.* Turli xil ob'ektlar, chunonchi: real; abstrakt; ideal ob'ektlar mazkur bilimning predmeti bo'lishi mumkin.

Real ob'ekt – bu muayyan joyda va muayyan vaqtda kuzatilayotgan ayrim, alohida hodisa (narsa, jarayon, voqea). Amalda, tajribada biz ayrim konkret ob'ektlarni bevosita kuzatishimiz mumkin. Ammo fan odatda ayrim ob'ektni bilish bilangina cheklanmaydi. Ayrim narsa yoki hodisani o'rganish natijasida olingan bilimni u boshqa o'xshash narsalar yoki hodisalarga ham tatbiq etishga harakat qiladi. Bunga bilish predmetini **umumlashtirib talqin qilish** yordamida erishiladi. Buning mohiyati shundaki, tajribada ko'rilgan ayrim predmet muayyan turdagi predmetlarning «odatdagi nusxasi» sifatida qaraladi va unda bu turdagi predmetlarning barchasi uchun umumiy bo'lgan xossalargina e'tiborga olinadi. Umumlashtirib talqin qilish metodi yordamida tadqiqotchi o'zi o'rganayotgan real ob'ektni **abstrakt** ob'ekt sifatida tasavvur qiladi.

Abstrakt ob'ekt – bu real ob'ektning umumlashtirilgan obrazi. U mazkur

turdagi barcha ob'ektlarga teng darajada xos bo'lgan belgilarnigina o'zida ifodalaydi. Bu abstrakt ob'ektga olim tajribada ko'rilgan ayrim real ob'ektni o'rganish chog'ida olingan bilimni ham kiritadi. Masalan, Franklin jismlarni elektrlashtirish bo'yicha eksperimentlarning birida choynakdan foydalangan; ammo bu choynakda (ayrim real ob'ektda) u temir jismning «odatdagi nusxasi»nigina ko'rgan va eksperimentni mazkur choynakni o'rganish sifatida emas, balki elektrlashtirilgan temir jismni (abstrakt ob'ektni) o'rganish sifatida talqin qilgan. Bunday umumlashtirib talqin qilish ilmiy bilishga xosdir. Abstrakt ob'ekt muayyan turdagi barcha real ob'ektlarning «vakili» hisoblanadi, bu ob'ektlarning har biri esa abstrakt ob'ektning «ayrim ko'rinishi», uning ifodasi sifatida amal qiladi. Ammo fan tajribada ko'rilgan hodisalarning umumiy, bir xil jihatlarinigina emas, balki mazkur hodisalarning mohiyatini, ya'ni ularning kuzatilayotgan xossalarini belgilovchi «kuzatilmaydigan», ichki, fundamental xossalarini ham ajratishga harakat qiladi. Bunday xossalarni bilishda **ideallashtirish** – **ideal** ob'ektlarni modellashtirish muhim rol o'ynaydi (ular ideallashtirilgan ob'ektlar, konstruktlar, xayoliy yoki nazariy modellar deb ham ataladi). Ideal ob'ektlarga geometrik nuqta, ideal gaz, mutlaqo qora jism, organizmlarning to'liq genetik ayniyati, adolat ideali va shu kabilar misol bo'lishi mumkin. Bunday ob'ektlarning barchasi ular ob'ektiv voqelikda emas, balki xayoldagina mavjud bo'lishi mumkinligi bilan ajralib turadi. Ideallashtirish taomili real ob'ektlarga xos bo'lgan biron-bir parametrni xayolan ko'paytirish yoki kamaytirishdan va uning cheksiz katta yoki nolga teng bo'lgan qiymatiga chegaraviy o'tishdan iboratdir. Masalan, mexanikada «nuqta massasi» ideal ob'ekti moddiy jism hajmini nolga keltirish yo'li bilan olinadi. Mazkur taomil natijasida ideallashtirilgan ob'ekt, abstrakt ob'ektdan farqli o'laroq, **xayoliy** xossalar (nolga teng bo'lgan hajm) kasb etadi. Vaholanki, bunday xossalarga real ob'ektlarning birortasi ham ega emas, chunki hajmdan mahrum bo'lgan moddiy jismlar tabiatda yo'q. Ammo ideallashtirilgan ob'ekt voqelik hodisalariga xos bo'lgan ko'p sonli noaniq belgilardan «tozalanadi» va aniq qayd etilgan belgilar to'plami bilangina tavsiflanadi (nuqta massasi faqat massa qiymati va makon-vaqt koordinatalari bilan tavsiflanadi). Bu ob'ektda yuz beruvchi barcha jarayonlarni

xayolan boshqarish imkoniyatini beradi.

Ideal ob'ekt – real ob'ektlarning muayyan xossalarni ideallashtirish yo'li bilan yaratiladigan xayolot mahsuli. Ideallashtirish shunday bir usulki, uning yordamida tadqiqotchi o'rganilayotgan hodisalarning mohiyatini mavhumlashtiruvchi omillarni bartaraf etadi. Mazkur usul yordamida u real voqelikda amalga oshirish mumkin bo'lmagan ishni o'z xayolida bajarish – hodisadan mohiyatni ajratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Fanda bir ideallashtirish asosida boshqa ideallashtirishlar amalga oshiriladi. Natijada ideal ob'ektlarning ko'p darajali ierarxiyasi vujudga keladi. Real ob'ektlarning soddalashtirilgan, sxematik obrazlari sanalgan ideal ob'ektlar ularni nazariy o'rganish vositalari bo'lib xizmat qiladi. SHunday qilib, predmetli bilish – bu real, abstrakt va ideal ob'ektlar haqidagi bilimdir. Tadqiqot ob'ektlari, muammolari va metodlari o'rtasida yaqin aloqa mavjud. U eng avvalo ilmiy bilimlar qanday olinishi bilan belgilanadi. SHu nuqtai nazardan ilmiy bilishning tahlili ilmiy tadqiqotlarning ikki turini va tegishli ravishda ilmiy bilimlarning ikki tipi yoki darajasi – **empirik va nazariy tadqiqotlarni** farqlash zarurligini ko'rsatadi.

Empirik tadqiqot. *Empirik bilim tajribada, tadqiqotchi o'z ongidan tashqarida mavjud bo'lgan ob'ektlar bilan bevosita yoki bilvosita (asboblarni orqali) aloqaga kirishishi natijasida olinadi.* Mazkur bilim **real** ob'ektni o'rganish jarayonida yuzaga keladi, lekin **abstrakt** ob'ekt haqidagi bilim sifatida talqin qilinadi. Bu empirik bilimga umumiy tus beradi va uni mazkur abstrakt ob'ektning «ayrim ko'rinishlari» hisoblangan barcha real ob'ektlarga tatbiq etish imkoniyatini beradi. SHunday qilib, empirik darajada bilish konkret real ob'ektdan abstrakt ob'ekt sari harakatlanish va undan yana real ob'ektlarga o'tishni nazarda tutadi.

Empirik bilishda bosh vazifa **ilmiy dalillarni** olishdir. SHu maqsadda fan empirik tadqiqotning rang-barang metodlari: geologik namunalar yig'ish, arxeologik qazish ishlari olib borish, tarixiy hujjatlarni o'rganish, sotsiologik so'rovlar, anketa so'rovi va hokazolardan foydalanadi. Asosiy empirik metodlar kuzatish va eksperiment hisoblanadi.

Ilmiy kuzatish – bu hodisalarni izchil o'rganish uchun maxsus tashkil etilgan

tadqiqot. Ilmiy kuzatishlarni o'tkazish tegishli tayyorgarlikni (kuzatilishi lozim bo'lgan hodisalar haqida boshlang'ich axborot yig'ish, asboblari va boshqa apparaturani tanlash va jamlash, kuzatishlar joyiga ekspeditsiya tashkil etish va hokazolarni) talab etadi. Ilmiy kuzatishga qo'yiladigan bosh talab – olinadigan ma'lumotlarning ob'ektivligi va aniqligi. Kuzatish shunday o'tkazilishi lozimki, kuzatuvchining aralashuvi o'rganilayotgan hodisalar manzarasiga putur yetkazmasin. Ammo, bir tomondan, o'rganilayotgan ob'ektga tadqiqotchining ta'siri, boshqa tomondan esa – mazkur ta'sir natijasida ob'ektda yuz bergan o'zgarishlar qayd etilsa, bunday aralashuv bilishning samarali vositasiga aylanishi ham mumkin. Bunday vaziyatda amalga oshirilayotgan kuzatish empirik bilishning boshqa, murakkabroq metodi – eksperimentning tarkibiy elementiga aylanadi.

Eksperiment – bu o'rganilayotgan ob'ekt haqida axborot olish maqsadida unga izchil ta'sir ko'rsatishdir. Eksperimentda bilish faoliyati amaliy faoliyat bilan birikadi. Unda faoliyatning bir qancha moddiy vositalari: o'rganilayotgan hodisalarni yuzaga keltiruvchi va ularning o'zgarishini belgilovchi qurilmalar; ajratuvchi moslamalar; qayd etish, o'lchash uchun mo'ljallangan apparatura va hokazolardan foydalaniladi. Eksperiment o'tkazuvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab o'lchash, tekshirish (biron-bir gipotezani tasdiqlash yoki rad etish uchun), izlanuv (yangi hodisalarni aniqlashga qaratilgan), nazorat (apparatura ishini yoki boshqa eksperimentlarning natijalarini nazorat qilish uchun mo'ljallangan) eksperimentlari farqlanadi. Kuzatishlar va eksperimentlar, shuningdek boshqa empirik metodlarni qo'llash natijasida ilmiy dalillar aniqlanishi lozim. *Ammo biron-bir bitta kuzatish yoki eksperimentda olingan ma'lumotlar o'z-o'zicha hali fan faktlari hisoblanmaydi.*

Tadqiqotchining beparvoligi yoki asboblarning nosozligi tufayli yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar va tasodiflarning ta'sirini mumkin qadar kamaytirish uchun kuzatishlar va eksperimentlar ko'p karra takrorlanadi va ularning natijalari matematik (statistik) ishlovdan o'tkaziladi. SHundan keyingina ular ishonchli ilmiy faktlarga aylanadi.

Ilmiy dalilning mazmuni, odatda, kuzatish yoki eksperiment ma'lumotlarini

qayd etish bilangina belgilanmaydi. Fan faktlari mazkur ma'lumotlarni mantiqiy **anglab yetish** va ularni muayyan nazariy asoslarga muvofiq **talqin qilishga** asoslangan bilimni o'zida ifodalaydi. Har qanday ilmiy eksperiment boshlang'ich nazariy farazlardan kelib chiqadi va ularni bilmay turib eksperiment natijalarini tushunish mumkin emas. Nimani fakt deb hisoblash lozimligi doim ham aniq va ravshan bo'lavermaydi: bu empirik ma'lumotlar qaysi nazariyaga muvofiq talqin qilinayotgan bo'lsa, shu nazariyaga bog'liq bo'lishi mumkin. **Empirik dalillar «nazariy asos»ga ega bo'ladi.** Ammo empirik tadqiqot ayrim empirik faktlarni qayd etishdangina iborat bo'lmaydi. Ayrim dalil – ob-havoni belgilamaydigan «qaldirg'och», xolos. Tadqiqotchi muayyan faktlar to'plamini yig'ishi va ularning o'rtasidagi aloqalarni aniqlashi lozim. Olimlar faktlarni yig'ish va ularni tizimga solish, tasniflash va umumlashtirish yo'li bilan faktlar o'rtasidagi bog'lanishlar – **empirik qonunlar** yoki **qonuniyatlarni** (ularni fenomenologik qonunlar deb ham ataydilar) aniqlaydilar. Hodisalarning muayyan sohasiga tegishli bo'lgan empirik qonunlar yig'indisini ba'zan ayni shu hodisalarning **fenomenlogik nazariyasi** deb ataydilar. Ammo bunday nazariya ilmiy bilimni tashkil etishning alohida, oliy shakli sifatidagi nazariya hisoblanmaydi. U hodisalarning empirik tavsifidan nariga o'tmaydi va **ularning mohiyatini tushuntirmaydi.** Aniqlangan empirik faktlar va qonuniyatlarni tushuntirish ilmiy bilishning yanada yuqoriroq, nazariy darajasiga o'tishni talab etadi. **Nazariy tadqiqot.** *Empirik bilimdan farqli o'laroq, nazariy bilim voqelikning o'rganilayotgan ob'ektlari bilan aloqaga kirishmasdan, mulohaza yuritish yo'li bilan olinadi.* Nazariyachi ob'ektlarning o'zi bilan emas, balki ularning xayoliy obrazlari bilan ishlaydi. Uning faoliyat moddiy qurollari – asboblari yoki sinov stendlari emas, balki oddiy qog'oz va qalamdir (bugungi kunda ularning qatoriga kompyuter ham qo'shildi). Nazariy tadqiqot uchun qimmatbaho va murakkab eksperiment asbob-uskunalari talab etilmagani bois, u empirik tadqiqotdan ancha arzonroq tushadi. Nazariy tadqiqotlarni rivojlantirish xarajatlari empirik tadqiqotlarni rivojlantirish xarajatlaridan ikki-uch baravar kamroq ekanligi ta'kidlanadi. Nazariy bilishning alohida belgisi empirik darajada kuzatiladigan ob'ektlarning mohiyatini yorituvchi ideal ob'ektlarni yaratish hisoblanadi.

Nazariy bilish jarayonida ideal ob'ektlar turli yo'llar bilan birlashtiriladi va ulardan o'rganilayotgan hodisalarning **xayoliy modellarini** o'zida ifodalovchi xayoliy konstruktsiyalar yaratiladi. Empirik dalillar va qonuniyatlarni tushuntirishga qaratilgan nazariy tadqiqotni rivojlantirishning ikki yo'li bor⁵.

Birinchi yo'l – nofundamental nazariy tadqiqot. Bunda empirik faktlar va qonuniyatlarni tushuntirish fanda mavjud nazariyalar yordamida amalga oshiriladi. Bu nazariyalarni yanada rivojlantirishni, ularga yangi g'oyalarni kiritishni, ularning predmet sohasini kengaytirishni talab qilishi mumkin. Ammo bu yo'ldagi izlanishlar samara bermasa, *ikkinchi yo'l – fundamental nazariy tadqiqot yo'liga* kirishga to'g'ri keladi. U butunlay yangi ilmiy nazariyani ishlab chiqish bilan bog'liq.

Butunlay yangi nazariy bilim empirik dalillarni induktiv umumlashtirish yo'li bilan ham, eski nazariy bilimdan deduktiv xulosa chiqarish yo'li bilan ham olinishi mumkin emas. Eynshteyn ta'biri bilan aytganda, yangi nazariyaning boshlang'ich g'oyalari, tushunchalari, printsiplari «ixtiro», «faraz» mahsullari hisoblanadi. Ular «aqlning erkin mahsullari» sifatida yaratiladi. «Tajribada nazariyani tekshirish mumkin, lekin tajribadan nazariyaga eltuvchi yo'l yo'q»; yangi nazariyaning asosiy qonunlariga «mantiqiy yo'l emas, balki tajribaning mohiyatini teran anglashga asoslangan intuitsiya eltadi»⁶. Yangi nazariya sari ilk qadamlar o'rganilayotgan hodisalarning yangi nazariy modellarini yaratish yo'lidagi izlanishlar bilan bog'liq. Nazariy modelni yaratish tasavvurning erkin o'yini asosida, **mushohada yuritish** yo'li bilan amalga oshiriladi. Olim bunday modellarning turli variantlarini o'ylab topadi, ixtiro qiladi va ularning orasidan empirik ma'lumotlarni tushuntirish uchun o'ziga ayniqsa maqbul bo'lib tuyulganlarini tanlab oladi.

Bu yerda rang-barang **fikriy eksperimentlar** muhim rol o'ynaydi. *Fikriy eksperiment metodi* – nazariy tadqiqotning eng muhim metodlaridan biri. *Fikriy eksperimentning real eksperimentga o'xshash jihati shu bilan belgilanadiki, bu yerda ham ob'ektga ko'rsatilayotgan ta'sirlar bilan ularning natijasida mazkur ob'ektlarda yuz berayotgan o'zgarishlar o'rtasidagi o'zaro aloqa o'rganiladi.*

⁵ Батавсилро=аранг: Бранский В.П. Философия физики XX в. – СПб., 2003.

⁶ Эйнштейн А. Собрание научных трудов. Т. 4. – М., 1967. – 183, 291, 40-б.

Ammo, real eksperimentdan farqli o'laroq, fikriy eksperimentda real ob'ekt emas, balki ideal ob'ekt, ya'ni nazariy model o'rganiladi. Unga ta'sirlar ham, uni o'zgartirishlar ham amalda emas, balki tasavvurda amalga oshiriladi.

Fikriy eksperimentlarda nazariy modellarni o'rganish ayni shu modellarning xossalari aks ettiruvchi tushunchalar va tamoyillarni ta'riflash imkoniyatini beradi. Mushohada yuritish yo'li bilan topilgan tushunchalar va tamoyillar yangi nazariyaning poydevorini tashkil etadi. Ammo bu poydevorda nazariya binosini barpo etish uchun tasavvur o'yini va xayolot parvozi hukm suradigan mulohazalar dunyosidan tasavvur, intuitsiya va xayoliy eksperimentlarning natijalari tekshiriladigan va asoslanadigan «izchil mantiq» va «aniq faktlar» dunyosiga qaytish talab etiladi. Nazariyaning asosiy tushunchalari va tamoyillaridan turli-tuman oqibatlar mantiqiy keltirib chiqarilishi, tushunchalar, mulohazalar va aqliy xulosalar tizimi yaratilishi lozim. Ularning yordamida hodisalarning nazariy modellari ishlab chiqiladi, o'rganiladi va so'ngra voqelikni bilish jarayonida qo'llaniladi. Ayni shu tizim nazariyaning mazmunini belgilaydi. Unda ta'riflanadigan fikrlar – nazariy qonunlar ma'lum dalillar va qonuniyatlarni tushuntirishi hamda yangi dalillar va qonuniyatlarni bashorat qilishi lozim.

Nazariya – muayyan hodisalar haqidagi bilimlarning mantiqiy tartibga solingan tizimi. Ushbu tizimda hodisalarning xayoliy modellari yaratiladi hamda kuzatilayotgan dalillar va qonuniyatlarni tushuntiruvchi va bashorat qiluvchi qonunlar ta'riflanadi.

Nazariy tushuntirishlar va bashoratlarni tajriba bilan solishtirish asosida nazariyani yanada rivojlantirish, uning mazmuniga aniqlik kiritish va uni o'zgartirish (yoki, uning fikrlari tajribada ko'rilgan ma'lumotlarga muvofiq kelmagan holda, undan voz kechish) amalga oshiriladi⁷.

SHuni e'tiborga olish lozimki, nazariya voqelikni bilvosita aks ettiradi: xayoliy modellar nazariy va voqelik o'rtasida oraliq bo'g'in sifatida amal qiladi. Modellar voqelik bilan muvofiq kelgani bois, nazariya ham voqelikni aks ettiradi. Ammo model doim voqelikni soddalashtirish, sxemashtirish, ideallashtirishga

⁷ +аранг: Степин В.С. Теоретическое знание. Структура, историческая эволюция. – М., 2000.

asoslanadi, shu bois nazariya ham doim voqelikni faqat soddalashtirilgan, sxemalashtirilgan va ideallashtirilgan ko'rinishda aks ettiradi. Empirik yo'l bilan topilgan qonuniyatlar va bog'lanishlardan farqli o'laroq, nazariy qonunlar ideal ob'ektlarning xossalarini tavsiflaydi. Nazariy qonunlarni real ob'ektlarga tatbiq etish uchun mazkur ob'ektlarning tegishli nazariy modellarini tuzish talab etiladi.

Nazariyaning mazmunini mantiqiy tavsiflash va tizimlashtirish turli fanlarda turlicha amalga oshiriladi. Matematikada Yevklid davridan boshlab nazariyalarni yaratishning **aksiomatik metodi** rivojlanib keladi. Ushbu metod isbot qilish talab etilmaydigan aksiomalarni nazariyaning boshlang'ich qoidalari sifatida olishni, nazariyaning qolgan barcha qoidalarini aksiomalardan deduktiv xulosa metodiga muvofiq keltirib chiqarishni, nazariya tilida mavjud barcha atamalarni ta'riflashni aksiomalarda amal qiluvchi ta'riflanmaydigan terminlar orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu metod nazariyaga mantiqiy izchil, aniq va muayyan tus beradi. Nazariyani formallashtirish yo'li bilan uning yanada izchillashuviga erishish mumkin.

Formallashtirish nazariyani alohida tilda, ya'ni qat'iy qayd etilgan sintaksisli tilda bayon etishni nazarda tutadi. Bu til boshlang'ich simvollar to'plamidan, shuningdek ulardan til ifodalari (formulalar) yasash qoidalari va bir formuladan boshqa formulaga o'tish qoidalaridan tarkib topadi.

Formallashtirilgan tilda bayon etilgan nazariya formallashtirilgan tizimga aylanadi. Bunday tizimda atamalarning mazmunini tushunishga asoslangan mazmunli mulohazalar belgili formal amallar bilan berilgan qoidalarga muvofiq almashtiriladi. Bu mulohaza yuritish jarayonlarini aniq belgilangan algoritmlar ko'rinishiga keltirish, ularni dasturlashtirish hamda bu algoritmlar bilan ishlashni kompyuterga «topshirish» imkoniyatini beradi. Formallashtirilgan nazariyani muayyan ob'ektlar tavsifiga tatbiq etish uchun uning **semantikasini** (uning til ifodalari mazmunini, uni topish qoidalarini) aniqlash talab etiladi. *Formallashtirilgan nazariyani semantika qoidalariga muvofiq talqin qilish uni muayyan predmetli sohaning mazmunli nazariyasiga aylantiradi.*

Aksiomatik metod tabiiy fanlar (mexanika, optika, termodinamika va

boshqalar)da ham ma'lum darajada qo'llanilgan. Ammo uni tabiatshunoslikda qo'llash imkoniyatlari cheklangan, chunki tabiiy-ilmiy nazariyalar mazmuni tajribada olingan ma'lumotlar bilan asoslanishi lozim, tajriba ma'lumotlari esa oldindan qabul qilingan aksiomatikaga muvofiq bo'lishi shart emas.

Tajribaga asoslangan fanlarga nazariyalarni tuzishning metodi ko'proq mos keladi. *Gipotetik-deduktiv aksiomatik metoddan farqi shundaki, nazariyaning boshlang'ich qoidalari aksiomalar sifatida emas, balki gipotezalar sifatida ta'riflanadi.* Nazariyani ishlab chiqish jarayonida ularga yangi gipotezalar va ularni to'ldiruvchi yangi tushunchalar kiritilishi mumkin. Natijada nazariyada umumiylik darajasi har xil bo'lgan gipotezalarning ierarxiyaviy tizimi hosil bo'ladi. Ulardan deduktiv yo'l bilan tajribada tekshirilishi lozim bo'lgan xulosalar chiqariladi. Bu xulosalar tajribada qancha ko'p o'z tasdig'ini topsa, ularning zahirida yotuvchi gipotezalar, binobarin, butun nazariya shuncha ishonchli hisoblanadi. Nazariyani gipotetik-deduktiv usulda tuzishda u empirik yo'l bilan tekshiriladigan oqibatlarni keltirib chiqarish imkoniyatini beruvchi gipotezalar tizimi sifatida ta'riflanadi. Ilmiy gipotezalar va nazariyalar bir qancha metodologik talablarni qanoatlantirishi lozim. Mazkur talablarga rioya etish nazariyalarning haqiqiylikni ta'minlamasa-da, lekin, hech bo'lmasa, ularga fanda mavjud bo'lish huquqini beradi. Bunday muhim talablar qatoriga quyidagilar kiradi: mantiqiy ziddiyatlardan xolilik;

- amalda tekshirish mumkinligi;
- falsifikatsiya qilish mumkinligi;
- bashorat qiluvchi kuchga egalik;
- mumkin qadar soddalik; vorisiylik.

Har qanday matematik nazariya (geometriya, arifmetika va boshqalar)ning o'zi deduktiv yo'l bilan yaratilgan mantiqiy tizim bo'lgani bois, u *deduktiv xulosalar chiqarish uchun tayyor vosita* hisoblanadi. Ammo bu vositani tabiat va jamiyat haqidagi fanlarda samarali qo'llash uchun har bir konkret holda matematik nazariya tushunchalari va mazkur fanlarda o'rganilayotgan ob'ektlar o'rtasidagi **muvofiqlikni** aniqlash talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu ob'ektlar tavsifi matematik tilga o'tkazilishi lozim.

Umuman olganda matematik metodlar har qanday fanda qo'llanilishi mumkin. Ammo ulardan foydalanish darajasi va ularning ahamiyati turli fanlarda bir xil emas. Tabiiy va ijtimoiy fanlarda matematik metodlardan foydalanish mazkur fanlarda matematika tiliga o'girish mumkin bo'lgan ancha aniq tushunchalar mavjud bo'lgan holdagina samara berishi mumkin. Matematik metodlarni qo'llashdan oldin hodisalarni sifat jihatidan o'rganish bo'yicha katta ish amalga oshiriladi. Boshlang'ich nazariy tushunchalar mazmuni izchil matematik terminlar va ta'riflar bilan muvofiq kelmaydigan fanda matematika kutilgan samarani bermaydi. Ammo ko'rsatilgan omillar bir-biri bilan muvofiq holatga keltirilgan taqdirda matematik nazariya tabiiy va ijtimoiy hodisalarni nazariy o'rganishning qudratli va samarali metodiga aylanadi.

Fanning turli sohalarida matematik metodlar sifatida turli matematik nazariyalar amal qilishi mumkin. Ayrim ilmiy fanlar arifmetikaning elementar tushunchalari va amallarini qo'llash bilangina cheklanadilar, ba'zi fanlar matematik tahlil vositalari, differentsial va integral hisoblash usullarini ishga soladilar, yana bir guruh fanlar esa tenzor tahlili, ehtimollik nazariyasi, guruhlar nazariyasi apparatidan foydalanadilar.

Ilmiy-nazariy bilimlarda matematik metodlardan foydalanish odatda kvantifikatsiya – eng sodda miqdor ko'rsatkichlari va ularning o'zaro nisbatlarini aniqlashdan boshlanadi. Ilmiy nazariya matematik apparatining rivojlanishi keyingi bosqichda ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqaning ideallashtirilgan ifodasi sifatida xizmat qilishga qodir bo'lgan funktsional yoki statistik bog'lanishning mos keladigan shakllarini topishga tayanadi. Ayni shu asosda o'rganilayotgan hodisalarning matematik sxemasi yoki *matematik modeli* yaratiladi. U funktsiyalar, tenglamalar, geometrik shakllar, grafiklar tizimi va hokazolar sifatida ifodalanishi mumkin. *Matematik modellashtirish – bu nazariy modellarni matematika tilida yaratishdir.* Matematik modellar hodisalarning miqdor tomoninigina emas, balki ularning ko'pgina sifat, tarkibiy va boshqa xossalarini ham nazariy o'rganish imkoniyatini beradi. Boshqa vositalar bilan olish qiyin bo'lgan yoki umuman mumkin bo'lmagan xulosalarni matematik modellar yordamida olish mumkin.

Ba'zan fan tushunchalarini matematika tiliga ko'chirish ilmiy kashfiyotlar quroliga, butunlay yangi tushunchalar va g'oyalarni yaratish vositasiga aylanadi.

Nazariy bilishda matematik gipoteza metodidan foydalanish ulkan evristik rol o'ynaydi. Bu metod hodisalarning bir sohasini tavsiflovchi matematik formalizm (tenglama)dan hodisalarning boshqa bir sohasini tavsiflash uchun gipotetik matematik sxema sifatida foydalanishni nazarda tutadi. Bunda formalizmga zaruriy o'zgartirishlar kiritiladi, uning simvollari yangidan talqin qilinadi.

Hozirgi zamon fanida «mashina matematikasi» alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ilgari haddan tashqari ko'p hisob-kitoblarni talab etgani tufayli yechishning iloji bo'lmagan nazariy vazifalar endilikda kompyuter dasturlari yordamida yechilmoqda. Kompyuterda modellashtirishsiz hozirgi zamon fani endilikda o'zi o'rganayotgan muammolarning aksariyatini hatto qo'yishga ham qodir bo'lmas edi.

Kerakli metodni izlash bilan bog'liq qiyinchiliklar. Qo'yilgan muammoni mumkin qadar kam vaqt, kuch va mablag' sarflab yechish imkoniyatini beruvchi metodni topish olimning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday metodga ega bo'lish muvaffaqiyat garovidir. Ammo uni izlash jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Ma'lumki, metodni tanlashda uning yaroqliligi, maqsadga muvofiqligi va bajarish mumkinligini baholash hamda mazkur xossalarni optimallashtirishga harakat qilish talab etiladi. Ammo bu xossalarning o'zaro nisbati ancha ziddiyatli xususiyat kasb etadi va ulardan birini optimallashtirish intilish boshqa xossalarni shu darajada yomonlashtirishi mumkinki, mazkur optimallashtirish behuda ishga aylanishi mumkin. Masalan, ba'zan ob'ektning fizik modelini tuzishda uni mazkur ob'ekt bilan mumkin qadar ayniylashtirishga harakat qiladilar. Ammo keyinchalik mazkur fizik modelni matematik tavsiflash o'ta og'ir ish ekanligi ayon bo'ladi. SHu bilan bir vaqtda soddaroq fizik modelni yaratish uning informativlik darajasi pastligi tufayli maqsadga muvofiq emasdek bo'lib tuyulsa-da, lekin amalda u yaxshiroq samara beradi, chunki uni matematik tavsiflash ancha oson va uning tahlili ob'ekt haqida ko'proq ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Tadqiqot metodlarini tanlashda xatoga

yo'l qo'ymaslik uchun ularni har tomonlama baholash, bunda o'rganilayotgan ob'ektning xususiyatlarini ham, uni o'rganish shartlari va maqsadlarini ham e'tiborga olish talab etiladi.

Xulosa. Ilmiy bilim o'z xususiyatiga ko'ra murakkab tuzilishga ega. Har qanday ilmiy bilimning boshlang'ich asosi kundalik bilim bo'lib u kundalik amaliy tajribaga asoslanadi. Amaliy ehtiyoj ilmiy bilim o'sishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda ilmiy bilim insoniyat taraqqiyotining barcha davrlaridagi nisbatan ikki barobar o'sdi.

Nazorat savollari

- 1. XX asr falsafasining xarakterli xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?*
- 2. Ekzistentsial falsafaning mohiyati nimadan iborat?*
- 3. Neopozitivizmning asosiy xususiyatlari qanday?*
- 4. Strukturalizmning mohiyati nima?*
- 5. Germeneytika nima?*
- 6. Stsientizm va antistsientizm nima?*

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu: Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati

Maqsad:

Tinglovchilarga dunyoni falsafiy idrok etishning mohiyati, uning o'ziga xos jihatlari, boshqa ilmiy va turmush tarzidagi tushunchalardan farqini tushuntirish, tafakkur madaniyatini shakllantirish.

1. KIRISH QISMI (nazariy asoslar)

Falsafa – insonning o'zini, jamiyatni va borliqni bilishga intilishidir. U savol beradi, tahlil qiladi va umumiy xulosalar chiqaradi. Dunyoga falsafiy yondashuv bu — har bir narsani, hodisani chuqur anglash, sabab va oqibat bog'lanishlarini izlashdir.

Falsafiy idrokning o'ziga xos xususiyatlari:

1. Umumiylik va umuminsoniylik:

Falsafa borliqni butunlay qamrab oladi. U faqat muayyan sohani emas, balki butun reallikni ko'zda tutadi.

2. Tanqidiy-tahliliy yondashuv:

Falsafa narsalarni shundayligicha qabul qilmaydi. Har bir tushuncha, fikr, voqea tanqidiy tahlildan o'tadi.

3. Savolbozlik xarakteri:

"Nima uchun?", "Qanday?" kabi savollar orqali bilim chuqurlashadi. Javobdan ko'ra savol ko'proq ahamiyatga ega.

4. Ko'p qarashlilik (plyuralizm):

Falsafada yagona fikrga qaraganda, turlicha yondashuvlar, qarashlar mavjud bo'lishi tabiiy.

5. Kasbiy va shaxsiy yondashuv uyg'unligi:

Falsafa shaxsning ichki dunyosiga ham daxldor. U insonning olamga, hayotga bo'lgan munosabatini shakllantiradi.

2. ASOSIY QISM (amaliy mashqlar va muhokamalar)

VAZIFA 1: Fikrni tahlil qilish

Quyidagi fikrni o‘qing va falsafiy jihatdan tahlil qiling:

“Inson borlig‘i uning erkinligida namoyon bo‘ladi.” (J.-P. Sartr)

- Bu yerda “borliq” va “erkinlik” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi nimada?
- Sartrning bu qarashi falsafiy idrokning qaysi xususiyatini ifoda etadi?

✓ Talabalar guruhlarda muhokama qiladi, ustoz ishtirokida umumiy xulosa chiqariladi.

VAZIFA 2: Qiyosiy tahlil

Falsafiy, ilmiy va mifologik dunyoqarashni solishtiring. Quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Kriteriy	Falsafiy dunyoqarash	Ilmiy dunyoqarash	Mifologik dunyoqarash
Tafakkur xarakteri	?	?	?
Ob‘yektivlik darajasi	?	?	?
Idrok subyekt	?	?	?
Universalik	?	?	?

✓ Shakl to‘ldirilgandan so‘ng, har bir qatori ustidan muhokama o‘tkaziladi.

VAZIFA 3: Falsafiy mulohaza

Quyidagi savollarga falsafiy nuqtai nazardan javob tayyorlang:

1. Hayotning ma'nosi nimada?
2. Erkinlik va javobgarlik o'rtasidagi bog'liqlikni qanday tushunasiz?
3. Inson o'zi uchun yashaydimi yoki jamiyat uchun?

✓ *Talabalar yozma shaklda yoki og'zaki fikr bildirishlari mumkin. Turlicha qarashlar qabul qilinadi va baholanadi.*

3. YAKUNIY QISM (Xulosa va baholash)

Asosiy xulosalar:

- Falsafiy idrok reallikka nazar solishning o'ziga xos usuli bo'lib, insonni umumiy, tanqidiy va ma'naviy fikrlashga undaydi.
- U boshqa turdagi bilish shakllaridan chuqur va keng qamrovli ekani bilan farq qiladi.
- Falsafa insonning hayotga bo'lgan munosabatini shakllantiradi va shaxsiy rivojlanishga yo'l ochadi.

2-MAVZU: GNOSEOLOGIK TA'LIMOTLAR VA ULARNING ZAMONAVIY TAHLILI

Gnoseologiya (bilim nazariyasi) falsafaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bilimning tabiati, uning kelib chiqishi, usullari va chegaralarini o'rganadi. Bu soha asosan, «Bilim nima?», «Bilim qanday hosil bo'ladi?», «Inson bilimining ishonchliligi qanday aniqlanadi?» kabi savollarga javob izlaydi. Ushbu mavzu bo'yicha nazariy tahlil qilish gnoseologik ta'limotlarning shakllanishi va ularning zamonaviy tahlilini o'z ichiga oladi.

1. Gnoseologik ta'limotlarning shakllanishi va rivojlanishi Gnoseologiya qadimgi davrlardan boshlab falsafaning markaziy masalalaridan biri bo'lib kelgan. Uning asosiy bosqichlari quyidagicha tasniflanadi:

1.1. Antik davr gnoseologiyasi

- Suqrot, Platon va Aristotel kabi faylasuflarning ta'limotlari.
- Idealistik va realizm yondashuvlari.

1.2. Oʻrta asr gnoseologiyasi

- Diniy gnoseologiya: Augustin va Foma Akvinskiy qarashlari.
- Bilimning ilohiy manbalar bilan bogʻliqligi.

1.3. Yangi davr gnoseologiyasi

- Racionalizm (Dekart, Spinoza, Leybnits).
- Empirizm (Lokk, Berkli, Gyum).
- Kantning transsendental gnoseologiyasi.

1.4. XX asr va zamonaviy gnoseologiya

- Neopozitivizm va analitik falsafa.
- Fenomenologiya (Gusserl, Haydegger).
- Postmodernistik yondashuvlar (Derrida, Fuko).

2. Zamonaviy gnoseologik yondashuvlar Bugungi kunda gnoseologiya falsafaning turli sohalari bilan kesishib, axborot texnologiyalari, neyrobiologiya va sunʼiy intellekt bilan bogʻliq holda rivojlanmoqda.

2.1. Ilmiy gnoseologiya

- Ilmiy bilimlarning rivojlanish tamoyillari.
- Karl Popper va Tomas Kun nazariyalari.

2.2. Texnologik gnoseologiya

- Sunʼiy intellekt va bilim jarayonlari.
- Axborot nazariyasi va epistemologik muammolar.

2.3. Postmodern gnoseologiyasi

- Subyektivizm va bilim nisbiyligi.
- Jamiyatdagi bilim shakllari va ularning dominantligi.

3. Amaliy mashgʻulotlar. Gnoseologiya boʻyicha amaliy mashgʻulotlar tinglovchilarning bilimini chuqurlashtirish va mavzuni yaxshi oʻzlashtirishga yordam beradi. Quyida ikkita amaliy mashgʻulot topshiriqlari keltirilgan:

3.1. Amaliy mashgʻulot 1: Bilimning ishonchliligini tahlil qilish

Maqsad: Tinglovchilar ilmiy bilimning ishonchliligini baholash usullarini oʻrganadilar.

Topshiriq:

- Guruhlarga bo‘linib, ilmiy bilimlar ishonchliligini aniqlash usullari bo‘yicha taqdimot tayyorlang.
- Karl Poppening falisifikatsiya nazariyasi asosida ilmiy gipotezalarni tahlil qiling.
- Olingan natijalarni guruhlar o‘rtasida muhokama qiling va xulosa chiqaring.

3.2. Amaliy mashg‘ulot 2: Racionalizm va Empirizm taqqoslanishi

Maqsad: Racionalistik va empirik yondashuvlarni tushunish va ularni amaliy hayotda qo‘llashni o‘rganish.

Topshiriq:

- Ikkita guruh tashkil qiling: biri racionalistik, ikkinchisi esa empirik yondashuv tarafdorlari sifatida harakat qiladi.
- Berilgan mavzu bo‘yicha (masalan, «Ilmiy bilimning shakllanishi») har bir guruh o‘z yondashuvi asosida fikr bildiradi.
- Guruhlar bahs olib borib, o‘z yondashuvining ustunliklarini isbotlashga harakat qiladi.
- Muhokama yakunida har ikki yondashuvning kuchli va zaif tomonlari bo‘yicha xulosa chiqariladi.


Gnoseologiya inson tafakkurining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida doimo rivojlanib kelmoqda. Zamonaviy falsafa, texnologiya va ilmiy taraqqiyot bu sohani yanada chuqurlashtirib, inson bilimining mohiyatini anglashda yangi qirralarni ochmoqda. Shu sababli gnoseologiyaning zamonaviy tahlili falsafiy va ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. Amaliy mashg‘ulotlar esa mavzuni yanada chuqur o‘rganish va real hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

3-AMALIY MASHG‘ULOT. FANDA METOD VA METODOLOGIYA: ASOSIY TUSHUNCHALAR

Eniga: 3. Faoliyatda qo‘llaniladigan ma’lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san’atda va h.k.); tizim haqidagi ta’limot yoki metod nazariyasi . 8. .?. ikkilanish nuqtalarining mavjudligini hamda rivojlanish davomining har xilligini nazarda tutadi. 9. Qarama-qarshi fikrlar asosida ixtiyoriy tanlangan foydali

mulohaza bo'lib, uning yordamida har qanday narsa yoki fikrni isbotlay olish mumkin. 11. Olamning o'z-o'zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. 13. Interv'yu. 14. .?. tizim.

Bo'yiga: 1. Sofistika vakili. 2. Tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti qonuniyatlari hamda ularning asosida shakllanadigan umumiy tafakkur uslubi va amaliy faoliyat haqidagi ta'limotdir. 3. Fizikadan keyin. 4. Standartlashtirilgan topshiriqlar bo'lib, ularni bajarish natijalari ayrim shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko'nikma, xotira, zehn va sh.k.)ni o'lchash imkonini beradi. 5. Suzayotgan ob'ektni anglatadi va ob'ektlarning tizimli xususiyatini aks ettiradi. 6. «Dialektika» yunonchadan. 7. .?. hech qanday bilim faoliyati bilan bog'lanmagan, bir-biriga zid dalillarga asoslanadi va olamni buzib yolg'on aks ettiradi. 10. «Savol-javob metodi». 12. «.?. tafakkur».



Tinglovchilarga ilm-fan sohasidagi "metod" va "metodologiya" tushunchalarini anglatish, ularning farqi, o'zaro bog'liqligi va amalda qo'llanilishini tahlil qilishni o'rgatish.

1. Nazariy qismni mustahkamlash

Asosiy tushunchalar:

- **Metod (usul)** — ma'lum maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan yo'l, harakat tartibi.
- **Metodologiya** — ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida foydalaniladigan metodlar tizimi, ularning nazariy asoslari va logikasi.

Savollar:

1. Metod va metodologiya o'rtasida qanday farq bor?
2. Metod qanday turlarga bo'linadi?
3. Metodologiyaning fan rivojiga ta'siri qanday?

2. Amaliy topshiriqlar

Topshiriq 1: Tushunchalarni aniqlash

Jadvalni to'ldiring:

Tushuncha	Ta'rifi	Misol keltiring
Metod		
Metodologiya		
Ilmiy metod		
Empirik metod		
Teoretik metod		

Topshiriq 2: Keys tahlili

Quyidagi keysni o'qing va savollarga javob bering:

"Tadqiqotchi inson ongi rivojlanishini o'rganmoqda. U avvalo mavjud adabiyotlarni tahlil qildi, so'ng so'rovnoma tuzib, 100 nafar talabada fikr to'pladi va statistik tahlil yo'li bilan xulosa chiqardi."

Savollar:

1. Ushbu tadqiqotda qaysi metodlar qo'llangan?
2. Metodologiya qanday tarzda namoyon bo'lgan?

3. Ushbu tadqiqotda empirik va teoretik usullar qaysi bosqichda qo'llangan?

3. Guruhli muhokama

Mavzu: "Metod va metodologiyaning fan taraqqiyotidagi o'rni"

- Guruhlarga bo'ling (3–4 kishi).
- Har bir guruh quyidagi savol asosida fikr bildirsin:
 - Nima uchun fan uchun to'g'ri metod tanlash muhim?
 - Metodologiyasiz tadqiqot qanday xatarlarga duch keladi?

4-AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.

NEOREALIZM VA LINGVISTIK TAHLILNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Neorealizm – siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar nazariyasidagi muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi xalqaro tizimdagi kuchlar muvozanatini, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va tahlil qilishdir. Neorealizm an'anaviy realizm g'oyalarini rivojlantirgan holda, xalqaro munosabatlardagi strukturaviy omillarning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ilgari suradi.

Neorealizmning asosiy qoidalaridan biri shundan iboratki, xalqaro tizim anarxik tusga ega bo'lib, davlatlar o'z manfaatlarini himoya qilish va xavfsizlikni ta'minlash uchun harakat qiladilar. Bu yondashuvda ichki siyosiy jarayonlar emas, balki xalqaro tizimdagi strukturaviy omillar asosiy tahlil obyekti sifatida qaraladi. Shuningdek, neorealizm davlatlarning tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarda tutgan o'rnini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Lingvistik tahlil esa tilni o'rganish va uning tuzilishini, ma'no va funksiyalarini tahlil qilishga qaratilgan metodologik yondashuv hisoblanadi. Bu metod tilni mantiqiy va strukturaviy jihatdan tadqiq qilishni o'z ichiga oladi. Lingvistik tahlil turli shakllarda namoyon bo'lib, uning semantik, sintaktik va pragmatik yo'nalishlari mavjud.

Lingvistik tahlilning asosiy vazifalaridan biri til birliklarining semantik va sintaktik xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Shu bilan birga, u nutqdagi ma'nolarni to'g'ri tushunish va ularning kommunikativ jarayondagi ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Lingvistik tahlil til va voqelik o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, matnlarni chuqur tahlil qilish, ularning tahrir va tahlil qilish jarayonlarini takomillashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Neorealizm va lingvistik tahlil o'rtasidagi bog'liqlik ham mavjud. Neorealizm xalqaro munosabatlar tahlilida tilning ahamiyatini va diplomatik muloqotlardagi rolini tan oladi. Xususan, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda til vositasida yetkaziladigan axborot va uning tahlili xalqaro siyosatni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvistik tahlil esa xalqaro munosabatlardagi bayonotlar, diplomatik yozishmalar va siyosiy nutqlarni tahlil qilish orqali neorealistik yondashuvga yordam beradi. Shu sababli, neorealizm va lingvistik tahlil xalqaro munosabatlar hamda siyosiy jarayonlarni tushunishda muhim metodlardan biri hisoblanadi. Neorealizm davlatlar va xalqaro tizim munosabatlarini tahlil qilsa, lingvistik tahlil mazkur jarayonlarda tilning ahamiyatini ochib beradi. Ushbu metodlar birgalikda xalqaro siyosatni chuqurroq anglash va tahlil qilishga xizmat qiladi.

AMALIY MASHG'ULOT: NEOREALIZM NAZARIYASI VA UNING LINGVISTIK ASOSLARI

Maqsad:

Tinglovchilarga neorealizm nazariyasining asosiy tamoyillari va uning til tahlilidagi o'rni haqida tushuncha berish.

Topshiriqlar:

1. Neorealizm tushunchasini izohlab bering. U realizmdan qanday farq qiladi?
2. Neorealizmning lingvistikada qo'llanilishi haqida misollar keltiring.
3. Berilgan matndan (murakkab voqealarni ifodalagan) neorealistik g'oyalarni aks ettiruvchi iboralarni aniqlang va tahlil qiling.
4. Neorealizmning ijtimoiy va siyosiy voqelikdagi ahamiyatini muhokama qiling.

AMALIY MASHG‘ULOT: LINGVISTIK TAHLILDA NEOREALIZM METODLARI

Maqsad:

Tinglovchilarga lingvistik tahlilda neorealizm metodlarini qo‘llashni o‘rgatish va ularning amaliy tadqiqotlardagi ahamiyatini tushuntirish.

Topshiriqlar:

1. Berilgan matndan reallikni aks ettiruvchi til birliklarini ajratib chiqing.
2. Neorealistik yo‘nalishdagi til tahlilida qanday metodlar qo‘llaniladi?
Izohlang.
3. Neorealizmning kino, adabiyot va publitsistikadagi aksini tahlil qiling.
4. Zamonaviy media va axborot manbalaridan neorealizm misollarini toping va tahlil qiling.

AMALIY MASHG‘ULOT: NEOREALIZM VA LINGVISTIK TAHLILDA KONTEKSTNING AHAMIYATI

Maqsad:

Tinglovchilarga neorealizm va lingvistik tahlilda kontekstning roli va uning ma’no anglashdagi ahamiyati haqida tushuncha berish.

Topshiriqlar:


1. Kontekst tushunchasini izohlang va uning til tahlilidagi ahamiyatini bayon qiling.
2. Quyidagi jummalarni kontekstdan ajratib o‘qib ko‘ring va ularning mazmunan o‘zgarishini tahlil qiling:
3. "Uning yuziga tabassum yog‘di."
4. "Shahar tun bo‘yi jim bo‘lmadi."
5. "Ular g‘alaba qozondilar."
6. Berilgan matndan (ijtimoiy yoki siyosiy mavzudagi maqola) kontekstni shakllantiruvchi til birliklarini toping va tahlil qiling.
7. Neorealizm usullari orqali matnni tahlil qilib, voqea va hodisalarni qay tarzda tasvirlaganini aniqlang.

MAVZU BO‘YICHA KROSSVORDLAR

Bilishning mazmuni va mohiyati

Eniga: 3. Bilim shakllaridan biri. 6. CHegaraga sig'maydigan. 8. Bilish haqidagi ta'limot (fan). 9. Ibtidoiy odam tafakkurining tabiat hodisalarini tushunish va tushuntirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. 10. Bilish faolligining manbai. 11. Bilimning asosiy turlaridan biri. 13. Idrok etish. 16. Dunyoni va insonning undagi o'rnini yaxlit tushunish andozasi.


Bo'yiga: 1. Bilim shakllaridan biri. 2. Bilimning asosiy turlaridan biri. 4. SHaxsni ma'naviy boyitish manbai. 5. SHaxsiy bilim kontseptsiyasini asoschisi. 7. O'z tafakkurini bir ob'ektga qaratish, inson e'tiborini chalg'ituvchi barcha begona omillarni chetga chiqarish yo'li bilan fikr yuritish, narsa, g'oya, dunyoni idrok etishdir. 12. «Gnosis» yunochadan. 13. Yunon skeptitsizm asoschisi. 14. Sub'ektning bilish faoliyati qaratilgan narsa yoki hodisa. 15. Konventsionalizm asoschilaridan biri.



Hissiy, empirik, nazariy va intuitiv bilish darajalari

Eniga: 2. Bu insonning narsalar muhim xossalari va munosabatlarini izchil, bilvosita va umumiy aks ettirishidir. 4. Narsalar va hodisalarning umumiy, muhim xossa va aloqalari aks etuvchi fikr. 5. Yangi dalillarning mohiyatini tushuntiruvchi qonun mavjudligi haqidagi asosli taxmindir. 7. Bu bir paytlar insonning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatgan va keyinchalik miyada saqlanib qolgan aloqalar bo'yicha gavdalanadigan narsalarning obrazlaridir. 9. Fan tarixining muayyan davrida uning rivojlanishini belgilovchi barqaror tamoyillar, umumiy me'yorlar, qonunlar, nazariyalar va metodlar majmui. 10. Bilishning rivojlanish jarayonida ob'ektiv tarzda yuzaga keladigan, yechimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo'lgan masala yoki masalalar majmuidir. 13. Ob'ekt xossalarining rivojlanish darajasini tavsiflovchi kattalikni aniqlash jarayoni. 14. Borliqning eng muhim tomonlari, xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi umumiy tushunchalardir. 16. Ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazi, degan tamoyil sifatlarni birlamchi va ikkilamchiga mexanik tarzda ajratishga qarshi yo'nalgan.

Bo'yiga: 1. Bu shunday tadqiqot metodiki, uning yordamida ob'ekt yo sun'iy tarzda yaratiladi, yo tadqiqot maqsadlariga mos keladigan ma'lum shart-sharoitlarda o'rganiladi. 3. Hodisalarning muayyan turkumi, bu turkumdagi hodisalarning mohiyati va ularga nisbatan amal qiladigan borliq qonunlari haqidagi bilimlarning mantiqiy asoslangan va amaliyot sinovidan o'tgan tizimidir. 6. Bilish ob'ektining muhim xossalari va munosabatlarini aniqlash maqsadida ataylab amalga oshiriladigan izchil idrok etishdir. 8. Bilimining tasdiqlangan boyligiga aylangan moddiy yoki ma'naviy dunyo hodisasi, biron-bir hodisa, xossa yoki munosabatni qayd etishdir. 11. Fikrning shunday bir shakli, unda tushunchalarni bog'lash yo'li bilan biror narsa haqidagi biron-bir fikr tasdiqlanadi (yoki rad etiladi). 12. Mushohadaning nisbatan tugallangan birligi. Mushohada yuritish jarayonida mavjud mulohazalardan yangi mulohaza – xulosa chiqariladi. 15. Haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita anglab yetish qobiliyatidir.



Ko'chma mashg'ulot

1- Ko'chma mashg'ulot .Fanda metod va metodologiya tushunchasi (6soat)

Ko'chma mashg'ulotni qayerda o'tkazish maqsadga muvofiq:

1. Oliy o'quv yurtlarining ilmiy laboratoriyalari yoki ilmiy markazlari:
– Metod va metodologiyaning amaliy qo'llanilishi kuzatiladi.
2. Innovatsion markazlar (IT-Park, Youth Innovation Center, TechnoPark va boshqalar):

– Tadqiqotda metodik yondashuvlar qanday rol o'ynashini o'rganadilar.
3. Axborot-resurs markazlari yoki elektron kutubxonalar:
– Ilmiy manba tanlash, metodik asoslarni shakllantirishda qanday vositalardan foydalanilishini o'rganishadi.

4. Profil (mutaxassislik) kafedrası

Ko'chma mashg'ulotning maqsadi:

- “Metod” va “metodologiya” tushunchalarining amaliy hayotda, ayniqsa ilmiy izlanishlarda qanday qo'llanishini tushuntirish.
- Tinglovchilarda ilmiy fikrlash, tahlil qilish va metodik yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish.
- Ilmiy faoliyatda metod tanlash va uni asoslash muhimligini anglashga yordam berish.

Nega mashg'ulotni profil kafedrada o'tkazish maqsadga muvofiq?

1. Mutaxassislikka oid real tadqiqotlar mavjud:
– Tinglovchilar metodologiyani bevosita o'z yo'nalishlariga mos misollar orqali ko'radilar.
2. Professor-o'qituvchilarning sohaga oid tajribasi katta:
– Ular amaliyotda qanday metodlar tanlanishi va asoslanishini tushuntirib bera oladi.
3. Kafedrada mavjud resurslar yordam beradi:
– Bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalari, loyihalar asosida tahliliy ish olib borish mumkin.

Tinglovchilar nimalarni o'rganadilar:

1. Metod va metodologiya farqini real hayot misolida tushunadilar.
– Tadqiqotlarda ishlatilayotgan metodlar va ularning tanlanish asoslarini kuzatadilar.
2. Ilmiy tadqiqot bosqichlari bilan tanishadilar:
– Muammo qo'yish, maqsad belgilash, gipoteza tuzish, metod tanlash, natijalarni tahlil qilish.

3. Mutaxassislar bilan jonli muloqot qiladilar:
– Amaliyotchi olimlar, laboratoriya rahbarlari, tadqiqotchilardan o‘rganadilar.
4. Ilmiy axborot bilan ishlashni o‘rganadilar:
– Manba tanlash, tahlil qilish, havola berish, yozuv madaniyatiga amal qilish.
5. Sohalar bo‘yicha metodologik yondashuvlar haqida tushunchaga ega bo‘ladilar:
– Masalan, tabiiy fanlarda eksperiment, ijtimoiy fanlarda kuzatuv, intervyu, statistik tahlil.

Tinglovchilar mashg‘ulot davomida nimalarni o‘rganadilar?

1. Metod va metodologiyaning amaliy farqini anglaydilar.
– Tadqiqotga metod tanlash va uni asoslash jarayonini kuzatadilar.
2. Mutaxassislik fanlarida qo‘llaniladigan asosiy metodlar bilan tanishadilar.
– Masalan, pedagogik tadqiqotda: kuzatuv, test, intervyu; filologiyada: matn tahlili, stilistik tahlil va h.k.
3. Ilmiy rahbarlar bilan bevosita suhbatlashadilar.
– Tadqiqotda metodologik muammolar va ularning yechimi haqida fikr almashadilar.
4. Amaldagi ilmiy ishlarni o‘rganadilar.
– Kafedrada mavjud bitiruv ishlari va maqolalardan namunalar olib, metodologik tahlil qiladilar.
5. O‘z tadqiqotlari uchun metod tanlashda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlarni o‘rganadilar.
– Metodning maqsadga muvofiqligi, ilmiy asoslanganligi va natijaga ta’siri haqida fikr yuritadilar.

Mashg'ulot yakunida bajariladigan topshiriq:

Har bir tinglovchi quyidagi savol asosida qisqa yozma xulosa tayyorlaydi:

“Bugungi ko‘chma mashg‘ulotda metod va metodologiyaning amaldagi ahamiyati haqida nimalarni angladim?”

2-ko‘chma mashg‘ulot. Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari (6 coat)

Mashg‘ulot turi: Sayyor (ko‘chma) amaliy mashg‘ulot

Maqsadli auditoriya: Oliy ta’lim muassasasi filologiya yo‘nalishi tinglovchilari

O‘tkaziladigan joy: Adabiyot va tilshunoslikka ixtisoslashgan kafedra, ilmiy kutubxona, yoki ijodiy muhitga ega madaniy markaz

Mashg‘ulotning asosiy maqsadi:

- Neorealizm adabiy oqimi va uning lingvistik tahlildagi aksini tushuntirish.
- Adabiy matnni neorealistik yondashuv asosida tahlil qilishga o‘rgatish.
- Tahlilda lingvistik vositalarning qanday qo‘llanilishini amaliy misollar orqali ko‘rsatish.

Mashg‘ulot o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan joylar:

1. Filologiya kafedrası (profil kafedra):

– Tahlil uchun mavjud adabiy matnlar, ilmiy izlanishlar misollaridan foydalanish imkoniyati.

2. Ilmiy kutubxona (masalan, ARM yoki FAN kutubxonasi):

– Neorealistik asarlarning to‘plamlari, tanqidiy maqolalari bilan tanishish.

3. Madaniyat markazi yoki yozuvchilar uyushmasi:

– Ijodiy muhitda zamonaviy adabiyotning real namunalari ustida ishlash.

Tinglovchilar nimalarni o'rganadilar?

1. Neorealizmning adabiy oqim sifatidagi belgilari va yondashuv uslublarini.
2. Lingvistik tahlilda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar (leksik, sintaktik, pragmatik tahlil).
3. Adabiy matnlarda neorealistik g'oyaning lingvistik ifodasini aniqlash.
4. Matnlarda ideologik, ijtimoiy, madaniy kontekstlarni aniqlash va izohlash.
5. O'z mustaqil tahlil tajribasini shakllantirish.

Mashg'ulot ssenariysi (tavsiyaviy reja, 80 daqiqa):

1. Kirish (10 daqiqa):

- Neorealizm va lingvistik tahlil haqida qisqacha tushuncha.
- Mashg'ulotning maqsadi va yo'nalishini tushuntirish.

2. Asosiy qism (50 daqiqa):

A) Guruhlarga topshiriqlar taqsimlash:

- Har bir guruhga neorealistik yo'nalishdagi bir adabiy matn beriladi.

B) Amaliy tahlil:

- Matndagi lingvistik vositalar, neorealizmga xos belgilar, ijtimoiy-tanqidiy ruh tahlil qilinadi.

C) Taqdimotlar:

- Har bir guruh o'z matn tahlilini sinfda taqdim etadi.

3. Xulosa (20 daqiqa):

- Tahlillarni umumlashtirish, asosiy jihatlarni qayd etish.
- Yozma refleksiya (quyida ko'rsatilgan shaklda) topshiriladi.

GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
ABSTRAKTLIK	(lot. Abstractio – mavhumlik). A. – tafakkurning asosiy metodlaridan biri. A. ikki ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, A. deyilganda, aqliy bilish jarayoni anglashiladi, ya'ni buyumning ko'pgina tomonlari, xususiyatlari va ularning o'zaro aloqalari xayolan tasavvur qilinadi; ayni paytda, ular bir-biridan fikran ajratiladi, ularning qandaydir bizni qiziqtirgan tomonlari, xususiyatlari alohida-alohida tartibda farqlanadi. Obyektiv borliq har bir moddiy buyumning o'ziga xos ko'pgina tomonlari, xususiyati, sifati mavjud bo'lib, ular boshqa buyum va hodisalar bilan son-sanoqsiz iplar bilan bog'langan.	philosophy stating that the efforts of man to find meaning in the universe will ultimately fail because no such meaning exists (at least in relation to man). Absurdism is related to existentialism, though should not be confused with it, nihilism.

AGNOSTISIZM	(yunon. agnosis – a – inkor, gnosis – bilish, bilishni inkor etish, noma'lum) – falsafiy ta'limot bo'lib moddiy sistemalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlari mohiyatini bilish imkoniyatlarini rad etib, bilimni voqealikka muvofiqligini isbotlash mumkin emas, deb hisoblaydi. A. antik skeptisizm va o'rta asr nominalizmidan kelib chiqqan bo'lib, XIX asr o'rtalarida ingliz tabiatshunosi Geksli tomonidan muloqotga kiritilgan.	the philosophical view that the truth values of certain claims — particularly theological claims regarding the existence of God, gods, or deities — are unknown, inherently unknowable, or incoherent, and therefore, (some agnostics may go as far to say) irrelevant to life. Agnosticism, in both its strong (explicit) and weak (implicit) forms, is necessarily a non-atheist and non-theist position, though an agnostic person may also be either an atheist, a theist, or one who endorses neither position.
ALTRUIZM	(lot. alter, fran. altruisme – boshqa) atamasini falsafaga O.Kont tomonidan kiritilgan. A. egoizmga qarama – qarshi axloqiy tamoyil bo'lib, shaxsiy manfaatlaridan kechib, o'z galar manfaati, baxt–saodati yo'lida beg'araz xizmat qilish	the belief that people have a moral obligation to serve others or the "greater good"; term coined by Auguste Comte. Generally opposed to self-interest or egoism.

	degan ma'noni anglatadi. shaxsning ichki o'z-o'zini baholash, "yagona bir o'zim" deyish qoidasidan voz kechishini anglatadi. A. axloqiylikni tashqaridan baholash orqali ta'minlanadi, shuning uchun A. insonni o'z faoliyatiga vijdon bilan, xolisona baholashga majbur etadi.	
ANIMIZM	(lot. anima – ruh, jon) – jonga va ruhlarga ishonish. Animistik tasavvurlar ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan. Ibtidoiy kishilarning tasavvurida narsalar, o'simliklarning joni bordek tuyulgan. YA'ni jon odamlardan boshqa, ayrim mavjudotlarda bor ham. Ruh esa egalardan ajralgan holda ham mavjud bo'lib, u har qanday narsalarga ta'sir ko'rsatadi. A. tushunchasi birinchi bor, nemis olimi Shtal (1708) tomonidan kiritilgan.	"animism" has been applied to many different philosophical systems. This includes Aristotle's view of the relation of soul and body held also by the stoics and scholastics. On the other hand, monadology (Leibniz) has also been described as animistic. The name is most commonly applied to vitalism, which makes life, or life and mind, the directive principle in evolution and growth, holding that life is not merely mechanical but that there is a directive force that guides energy without altering its amount. An entirely different

	Uning ta'limotiga ko'ra A. – hayot manbai – ruh barcha hayotiy jarayonlarning zaminida yotadi, "tanning haykaltaroshidir". Ushbu tushunchani Taylor o'z konsepsiyasida o'zgartirilgan holda qo'llab, uni dinni paydo bo'lish nazariyasiga asos qilib olgan.	class of ideas, also termed animistic, is the belief in the world soul, held by Plato, Schelling and others. Lastly, in discussions of religion, "animism" refers to the belief in indwelling souls or spirits, particularly so-called "primitive" religions that consider everything inhabited by spirits.
BUDDHISM	diniy–falsafiy ta'limot. B. dastlabki jahon dinlardan (xristianlik va islom kabi) biridir. B.Neru tili bilan aytganda, Hindistonda "yashovchi dinamik hamda ming yillar davomida keng tarqalgan dindir". B.ning asoschisi hind shahzodasi Sidxartxa Gautama–Buddadir. B.ning asosiy g'oyasi – boshqa shaklga kirish, xolos bo'lish va nirvanaga yetishishdir. Nirvana – insonning buyuk ma'naviy holati bo'lib, haqiqiy bilim	a dharmic religion and philosophy based on the teachings of the Buddha, Siddhārtha Gautama. The basic teachings of Buddhism have to do with the nature of suffering or dissatisfaction (dukkha) and its avoidance through ethical principles (the Eightfold Path). Buddhism originated in India, and is today largely followed in East Asia, including China, Japan, Korea, Tibet, and Thailand. Buddhism is divided into different sects and movements, of which the largest are the Mahayana, Theravada, and Vajrayana

	bilan ravshanlashadi. B. falsafasi veda matnlari asosida shakllangan. B. ta'limotining asosini uch muhim g'oya tashkil etadi: 1) zo'rlik qilmaslik; 2) hayotning har qanday shaklini ezgulik orqali qabul qilish; 3) azob – uqubat manbai – ehtirolardan xalos bo'lish.	
DEIZM	(lot. deus – xudo) xudoning, olamning shaksiz birinchi sababchisi sifatida mavjudligini e'tirof etuvchi ta'limot. D. atamasi birinchi marotaba 1564 yilda paydo bo'ldi. D.ning turli ko'rinishlari mavjud. XVII–XVIII asrlarda davr ta'limoti Fransiya, Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarida keng tarqaldi. D.ning dastlabki tarafdorlari xristianlikda mavjud bo'lgan xudoning 3 muqaddas birligi to'g'risidagi aqidani rad etish bilan birga o'zlarini	the view that reason, rather than revelation or tradition, should be the basis of belief in God. Deists reject both organized and revealed religion and maintain that reason is the essential element in all knowledge. For a "rational basis for religion" they refer to the cosmological argument (first cause argument), the teleological argument (argument from design), and other aspects of what was called natural religion. Deism has become identified with the classical belief that God created but does not intervene in the world, though this is not a necessary component of deism.

	ateist, deb hisoblamas edilar.	
PANTEIZM	(yunon. ran – hamma, theos – xudo) – tarixan shakllangan falsafiy ta’limot bo‘lib, u xudo bilan tabiat bir–biriga, tamoman, mos bo‘lib tushadi, ular aynan birdir, ularni bir–biriga qarama–qarshi qo‘yish falsafiy tafakkur rivojiga putur yetkazadi, deb da’vo qiladi. Turli tarixiy davrlarda p., mohiyatan bir–biridan farq qiladigan falsafiy sistemalarni, xilma–xil fikr–mulohazalarni o‘zida aks ettirib keldi. Mavjud an’analarga ko‘ra, p. Sharq va G‘arb p.dan iborat. Mas., Abu Nasr Forobiy borliq va uning vujudga kelishi haqidagi ta’limoti panteistik tusga ega. U o‘zining "Savollar mohiyati" asarida quyidagilarni yozadi: "Birinchi vujud o‘z–o‘zini	a type of deism that combines the deistic belief in a rationally determined, non-intervening God with the idea of pantheism (under theism, below) of God being identical to the Universe.

	biladi, uning mohiyati, muayyan darajada barcha mavjud narsalarni tashkil qilgani singari, o‘zini bilgan vujud muayyan darajada boshqa narsalarni ham biladi. Chunki mavjud narsalarning har biri o‘z mavjudligini undan oladi. Ikkinchi sabablarning har biri birinchi sababni bilib boradi". Demak, Forobiyning panteistik qarashlarida moddiy ibtido o‘zini xudo orqali namoyon qiladi.	
DETERMINIZM	(lot. determino– belgilamoq yoki taqozo etmoq, aloqadorlik) – barcha predmet va hodisalarni qonuniyatlar yordamida sababiy jarayonlarini izohlab beradigan ta’limot. Borliqdagi barcha (moddiy va ruhiy) narsa va hodisalarning bir-biri bilan bog‘liqligi va o‘zaro bir–birini taqozo etishining	the philosophical proposition that every event, including human cognition, decision and action, is causally determined by an unbroken chain of prior occurrences.

	qonuniyatligi haqidagi ta'limot. D. ta'limotining mazmunini bir hodisa (sabab) boshqa hodisa (oqibatning yoki natijaning) kelib chiqishini zaruriy ravishda belgilashi haqidagi g'oya tashkil etadi. Narsa va hodisalarning paydo bo'lishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi doimiy bo'lib ular biror sabab orqali amalga oshadi. O'zaro ta'sir kelib chiqadi. Ushbu o'zaro ta'sirlar determinatsiyalanish jarayonida amalga oshadi. YA'ni narsa va hodisalardagi harakatlarni barchasi bir vaqtni o'zida amalga oshmaydi. Ulardan ma'lum bir qismlar va hodisalargina yangi narsa va hodisalarni kelib chiqishiga turtki bo'ladi. Bu ham qonuniyatdir. Determinatsiya ana shu	
--	---	--

	ba'zi qismlar yordamida tubdan yangi qismlarni kelib chiqishini ifodalaydi.	
DUALISM	(lot. duo – ikki) – falsafiy ta'limot. D. monizm, ya'ni yagonalikni e'tirof qiluvchi, plyuralizm (ko'plikni, turli–tumanlikni e'tirof qiluvchi) ta'limotlarga qarama – qarshi bo'lib, olamni va inson borlig'ining negizini ikki mustaqil asosdan iborat, deb ko'rsatadi. D.ga ikki qarama–qarshi asosning doimiy mavjudligini e'tirof etish, o'rtasida doimiy kurash mavjudligini, ularning bir–birlarini yo'q qilishga intilishlarini ham tan olish xosdir. D. unsurlari qadimgi "Avesto"dagi yaxshilik xudosi – Axuramazda va yomonlik xudosi – Axura manlar kurashida ham namoyon bo'ladi. Ushbu qarashlar manixiylikda ham mavjud (yorug'lik va	a set of beliefs that begins with the claim that the mental and the physical have a fundamentally different nature. It is contrasted with varying kinds of monism, including materialism and phenomenalism. Dualism is one answer to the mind-body problem. Pluralism holds that there are even more kinds of events or things in the world.

	qorong'ilik to'qnashuvi, ezgulik va yomonlik).	
EGOIZM	(lot. ego – individ «men»i – ichki dunyosini anglatadi) o'z-o'zini qadrlash, sevish, shaxsiy «men»i to'g'risidagi fikrlariga asoslangan fe'l-atvorni anglatadi. E. avvalo o'z-o'zini muhofaza qilishdan iborat tabiiy instinktning namoyon bo'lishidir. Shu ma'noda, u odob–axloq maromlariga zid emas. Zero, individ o'zida mavjud bo'lgan salohiyatni anglashi va uni ro'yobga chiqarishga intilishi, binobarin, jamoa va jamiyat oldidagi burchini ado etishi, shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini takomillashtirish uchun o'z qadr–qimmatini bilishi va uni muhofaza eta olishi uchun «men»iga sodiq qolishi lozim. Biroq, shu	either a descriptive theory that maintains all conscious acts ultimately concern promoting one's self-interest, or a normative theory that maintains one should pursue one's self-interest.

	asnoda boshqalarning hayoti va qadr-qimmatini nazar-pisand qilmaslik odob-axloq maromlari doirasiga sig'maydi, binobarin, bunday holatda egoistning «men»i individualizmga aylanib ketadi.	
EPISTEMOLOGIYA	Bilish jarayonining mohiyati, bilimning voqealikka bo'lgan munosabati, bilish jarayonining umumiy asoslari, uning haqiqatligini, shart-sharoitlarini aniqlovchi kabi muammolarni tadqiq etuvchi falsafaning qismi. Bilim nima, bilim qanday tuzilgan, bilimning qanday turlari mavjud kabi muammolar ham e.ga tegishli. Epistemologiya uchun aksariyat hollarda bilish jarayonining barcha xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga ega	a term first used by the Scottish philosopher James Frederick Ferrier to describe the branch of philosophy concerned with the nature and scope of knowledge;[5][6] it is also referred to as "theory of knowledge". Put concisely, it is the study of knowledge and justified belief. It questions what knowledge is and how it can be acquired, and the extent to which knowledge pertinent to any given subject or entity can be acquired. Much of the debate in this field has focused on the philosophical analysis of the nature of knowledge and how it relates to connected notions such as truth, belief, and justification.

	emas. Epistemologiyada voqelikni real holatlarini ifodalovchi haqiqatlik xususiyatiga ega bilimlarni o‘ziga xosliklari inobatga olinadi. Epistemologiyaning asosiy muammolari: bilimning tuzilishi, bilimning qanday turlari mavjud? Bilim «hayot»ning umumiy qoidalari, o‘zgarishlari va rivojlanishi ilmiy–nazariy va amaliy faoliyatda bilimni obyektivligi va joriy etish mexanizmlarning mohiyati.	The term was probably first introduced in Ferrier's Institutes of Metaphysic: The Theory of Knowing and Being (1854)
EKZISTENSIONALIZM	(lot. existenz – yashash; nemis. yexistieren – yashamoq) – falsafiy oqim. Ontologik ekzistensializm (Xaydegger), diniy ekzistensializm (Yaspers), J.P.Sartr ekzistensializmi ko‘rinishlarida bo‘ladilar. Shu bilan birgalikda	the philosophical movement that views human existence as having a set of underlying themes and characteristics, such as anxiety, dread, freedom, awareness of death, and consciousness of existing, that are primary. That is, they cannot be reduced to or explained by a natural-scientific approach or any approach that

	fransuz, nemis, rus e. turlari borligi ham tan olinadi. E. mohiyatini uning turkumlashishini aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud. Barcha ta'limotlarda insonning borlig'i yagona haqiqat sifatida tan olinadi. Bu borliq, avvalo, har qanday falsafiy bilimning boshi va oxiri hisoblanadi. Inson eng avvalo o'zining mavjudligi haqida fikr yuritadi, his qiladi, yashaydi. Keyin esa, hayotdagi o'z o'rnini aniqlaydi. Inson o'z mohiyatini o'zi aniqlaydi. Mohiyat insondan tashqarida bo'lmaydi. Inson o'zligini o'zi aniqlaydi, u o'zgacha emas, shunday bo'lmoqlikni istaydi. Inson individual maqsadga intiladi. U o'zligini yaratadi, o'z hayotini o'zi tanlab oladi. Haqiqiy inson har	attempts to detach itself from or rise above these themes.
--	--	---

	qanday sarob va individdan yuqori turgan borliq orasida bekinmaydi. Inson o‘zining faoliyati, xatti–harakatlari va uning oqibatlari uchun mutlaqo o‘zi javobgar ekanligini tushunadi.	
FATALIZM	(lot. fatatis – tadirga oid) – butun olam, jumladan insonning hayoti oliy iroda tomonidan tole, taqdir sifatida azaldan belgilab qo‘yganligi to‘g‘risidagi ta’limot.	the view that human deliberation and actions are pointless and ineffectual in determining events, because whatever will be will be. One ancient argument, called the idle argument, went like this: "If it is fated for you to recover from your illness, then you will recover whether you call a doctor or not. Likewise, if you are fated not to recover, you will not do so even if you call a doctor. So, calling a doctor makes no difference
IDEALISM	(yun. Idea – g‘oya, fikr) – eng qadimgi o‘ziga xos falsafiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, tafakkurning borliq, ruh va ong masalasida tafakkur, ruh va ongni borliqning yagona	the doctrine that reality or knowledge is founded on ideas (mental experience). Depending on the specific ideal, idealism is usually juxtaposed with materialism or realism.

	asosi deb e'tirof etadi. Idealizm olam ong, "Mutlaq g'oya", "Dunyoviy ruh"ning ifodasi, go'yoki ko'lankasi, deb hisoblaydi. idealizmga ko'ra aslida bizning ongimiz real mavjud bo'lib, moddiy-ashyoviy olam, borliq, tabiat esa ongning, sezgi, his-tuyg'u, tasavvur va tushunchalarning hosilasidir. Falsafiy idealizm o'z mohiyatidan kelib chiqib, ikki ko'rinishda—subyektiv I. va obyektiv idealizmda namoyon bo'ladi. Subyektiv idealizm borliqning asosi sifatida alohida olingan individuum, subyektning ongi, sezgisini tan oladi. U ingliz fay.i va episkopi J.Berkli nomi b-n bog'liqdir. Uning fikricha, narsalarning barcha sifat va xossalari, inson sezgilaridan o'zga narsa	
--	---	--

	emas. Bizni qurshab olgan moddiy jismlar obyektiv, ya'ni bizning ongimizdan tashqarida mavjud emas. Odamlarning sezgi, his-tuyg'ularigina real mavjuddir. Mavjud bo'lish – bu sezgilar tomonidan qabul qilinish. Bunday qarash pirovard natijada solipsizmga ya'ni voqelikni aks ettiruvchi subyektdan o'zga barcha real narsa-ashyolarni, inson va insoniyatni rad etishga olib keladi.	
MATERIALIZM	materialistik oqimiga mansub fay.lar K.Fogt, R.Moleshott va L.Byuxnerning fal-iy qarashlarini ta'riflash uchun engels tomonidan kiritilgan tushuncha. G'arb fal.siga mansub bo'lgan V.m. oqimi 19-a.ning 1-yarmida tabiiyot ilmi rivojlanib, ulkan yutuqlarga erishilganligi ta'sirida vujudga keldi. Jumladan, energiyaning	the philosophical view that the only thing that can truly be said to 'exist' is matter; that fundamentally, all things are composed of 'material' and all phenomena are the result of material interactions.

	saqlanish qonuni, Ch.Darvinning evolyusion ta'limotini ijtimoiy hodisalarga tadbiq qilinishi, miya funksiyalarini jadal ravishda tadqiq etilishi kabi tabiiy fanlarning kashfiyot va yutuqlari argument sifatida butun naturfalsafaga, jumladan, nemis klassik fal.siga qarshi yo'naltiriladi. Ijtimoiy hodisalarni (mas., sinfiy tafovutlarni, xalqlar tarixini o'ziga xos xususiyatlarini va b.) tahlil qilishda V.m.da biologizm, naturalizm va empirizm nuqtai nazaridan fikr yuritiladi; gnoseologiya masalalarini empirik yo'l b-n tadqiq qilish, falsafani tabiatshunoslikka qarama- qarshi qo'yish kabi urinishlar ham V.m.ga xos ish uslubidir	
--	--	--

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ – 637- sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini

yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
2. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. -T.: Sharq, 2005.
3. A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon» - 2015.-155 b.
4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik / Darslik. -Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y.
5. Abdulla Sher. Estetika. / Darslik. -Toshkent: O'zbekiston, 2015 y.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.- 318 b
7. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y.i dr.Sovremenniy obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
8. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2017.
9. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKSS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
10. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -160b.
11. Gulobod Qudratullo qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.
12. J.Rumiy. Ichindagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.
13. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.YE.Ibraymov. – Toshkent: "Lesson press", 2020. 112 bet.

14. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
15. Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharkshunoslik, 2012. 340-6
16. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
17. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.
18. L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018 y.
19. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoye posobiye. Rizograf imeni Nizami. 2018 g.
20. Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
21. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.
22. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
23. Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yang i asr avlodi. 2008.
24. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019 y.
25. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
26. Shermuxamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
27. Shermuxamedova N.A. Borlik va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013,720 6
28. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-6.

29. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
30. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Moliya, 2003.
31. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. –T.: Sharq, 2005.
32. Nurmatova M., Muhammadjonova L. Ma'naviyatning axloqiy asoslari. // O'quv qo'llanma. Toshkent: Universitet, 2013.

IV. Internet saytlar

33. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
34. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
35. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
36. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet
37. <https://philpapers.org/> - mejdunarodnaya filosofskaya poiskovaya sistema po knigam, stat'yam, jurnalom, nauchnyim i otкрыtom dostupe
38. <https://plato.stanford.edu/> - Stenfordskaya entsiklopediya filosofii.
<https://elibrary.ru/> - krupneyshiy rossiyskiy informatsionno-analiticheskiy portal (v tom chisle) v oblasti filosofii
36. <http://ziyonet.uz> – Ziyonet ta'lim portali.
37. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rasmiy veb-sayti.
38. <http://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi rasmiy veb-sayti.
39. <http://senat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati rasmiy veb-sayti.
40. <http://uza.uz> – O'zbekiston Milliy axborot agentligi portali.
41. <http://huquqburch.uz> – Huquqiy axborot portali.